

## Mundarija

<b>Kirish.....</b>	<b>2-9</b>
<b>I BOB. INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH SOHASIDA MILLIY INDIKATORLARNING UMUMIY TAVSIFI.....</b>	<b>10-32</b>
1.1-§.Inson huquqlarini himoya qilish sohasida milliy indikatorlar tushunchasi, turlari va o'ziga xos hususiyatlari.....	10-21
1.2-§.Xalqaro munosabatlar sub'ekti sifatida davlatning inson huquqlarini himoya qilish sohasida milliy indikatorlarni shakllantirishdagi o'rni va vazifalari.....	22-32
<b>II BOB. INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BO'YICHA XALQARO AMALIYOT VA XORIJIY TAJRIBA .....</b>	<b>33-69</b>
2.1-§.Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy, xorijiy va xalqaro indikatorlar qiyosiy tahlili.....	33-48
2.2-§.Inson huquqlari sohasida xalqaro baholash, reyting va indekslar nazariy tahlili.....	49-59
2.3-§.Indikatorlarni shakllantirish bo'yicha xalqaro amaliyot va xorijiy tajriba: ijobiy indikatorlarni milliy huquq tizimiga implementatsiya qilish masalalari .....	60-69
<b>III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BO'YICHA MILLIY INDIKATORLARNI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....</b>	<b>70-90</b>
3.1-§.Milliy huquq tizimida indikatorlarni shakllantirish va takomillashtirish zarurati, ularning davlat siyosatidagi o'rni va roli.....	70-77
3.2-§.Milliy indikatorlarni shakllantirishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish choralari.....	78-90
<b>Xulosa.....</b>	<b>91-94</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>95-103</b>
<b>Ilovalar.....</b>	<b>104-147</b>

## KIRISH

Darhaqiqat, so'nggi yillarda mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunga qadar O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, xususan BMTning 7 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi va shartnomaviy organlariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalar va hisobotlar taqdim etib kelmoqda.

Shuningdek, milliy qonunchilikni inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlar bilan uyg'unlashtirish, bu orqali inson huquq va erkinliklarini kafolatlashga xizmat qiluvchi normativ bazani takomillashtirish bo'yicha qator amaliy chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, inson huquqlari sohasida uzoq muddatli strategiyaning qabul qilinishi ushu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishiga, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga, mamlakatning xalqaro maydondagi obro'si yanada mustahkamlanishiga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy-huquqiy reyting hamda indekslardagi mavqei yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Bu esa o'z navbatida inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlash sohasida milliy indikatorlarni ishlab chiqish, ushbu indikatorlar doirasida faoliyatni muvofiqlashtirib borish orqali samarali baholash tizimini joriy etishga va mamlakatimizning xalqaro maydondagi o'rni, nufuzi va reytingini yaxshilashga xizmat qiladi.

**Dissertatsiya ishi mavzusining asoslanishi va dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.06.2020 yildagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va

tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi PF-6003-sonli Farmonida ayrim rahbarlar reytinglar bilan ishlashga yetarlicha e'tibor qaratmayotganligi va xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan so'rovlarda aksariyat islohotlar o'z aksini topmayotganligi oqibatida ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasi quyi pog'onalarda qolayotganligi takidlangan.

Jumladan, davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faoliyatini xalqaro miqyosida baholovchi *the GlobalEconomy.com* talqiniga ko'ra 2021 yil yakuni bo'yicha inson huquqlarini ta'minlash va qonun ustuvorligi indeksida mamlakatimizning 173 ta davlat orasida 135 pog'onadaligi, yoki *Worldpopulationreview.com* talqiniga ko'ra inson erkinligi va kamoloti indeksida mamlakatimizni 165 ta davlat orasida umuman qayd etilmasligi (ma'lumot o'rnida Qirg'iziston 81 va Qozog'iston 106 pog'onalarda) bu borada xali izchil islohotlar olib borilishi lozimligini yana bir bor ko'rsatib berdi.

Bu esa rivojlangan xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar standartlariga mos inson huquqlari sohasidagi zamonaviy milliy indikatorlarni ishlab chiqish, takomillashtirish zaruratini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.06.2020 yildagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-sonli Farmonida O'zbekistonning inson huquqlari va erkinliklari sohasida xalqaro reytinglar va indekslar bo'yicha dunyodagi 50 ta etakchi mamlakatlar qatoriga kiritishni ta'minlash inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiyaning asosiy maqsad va vazifalari qatorida belgilandi.

Mazkur Farmonning 2-ilovasiga asosan inson huquqlari bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlanib, unda insonning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini kafolatlash bo'yicha 78 ta banddan iborat aniq vazifalar belgilab berildi.

Albatta ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun aniq mexanizm va indikatorlarni yaratish, inson huquqlarining muayyan sohasida aniq me'zonlarni

ishlab chiqish va bu orqali vakolatli organlar, idoralar faoliyatiga ularni joriy etish maqsadga erishishning yanada samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, BMTning Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mitasining mamlakatimizda olib borilgan kuzatuvlar natijasi yuzasidan 31.03.2022 yilda yuborilgan tavsiyalarida ham mamlakatimizda inson huquqlarini lozim darajada ta'minlanishi bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani yaratish va joriy etish, ayollar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlash (ayniqsa erkaklar bilan teng maosh olishi va ta'lim olishdagi ulushini oshirish), bolalar huquqlarini ta'minlash (ayniqsa kam ta'minlangan va olis hududda istiqomad qilayotgan bolalar uchun ijtimoiy ta'minot yo'qligi, ularning statistik hisobi yuritilmasligi) va mulkiy huquqlarni ta'minlash (shaharsozlikni amalga oshirishda mulk egasi bilan oldindan kelishmaslik, kompensatsiya to'lamaslik) va sohadagi boshqa qator masalalar inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha xali etarlicha ishlarni olib borishimiz zarurligini belgilab berdi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinig 21.02.2022 yildagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-sonli Qarorida belgilangan aholini kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish, gender tengligini ta'minlash, barcha uchun odil sudlov imkoniyatidan foydalanish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida shaffoflik va ochiqlikni joriy etish orqali fuqarolarning axborot olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash va boshqa shu kabi vazifalarni amalga oshirish eng avvalo barcha davlat organlari va tashkilotlari uchun dastur bo'lib xizmat qiluvchi zamonaviy indikatorlarni ishlab chiqishni, milliy mexanizmlarni yaratishni va ularni amaliyotga tadbiq etish orqali samaradorlikka erishishni taqozo etadi.

**Tadqiqot predmeti.** Inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy mexanizmini tashkil etuvchi milliy, xorijiy va xalqaro indikatorlar.

**Tadqiqot ob’ekti** bo’lib inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan milliy indikatorlarni shakllantirish tartib-taomillari, ularni takomillashtirish masalalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.** Tadqiqotning maqsadi inson huquqlarini himoya qilish va ta’minlashga qaratilgan xorijiy va xalqaro indikatorlarni tahliliy o’rganish, xalqaro tashkilotlar tomonidan “ijobiy” va “samarali” sifatlari bilan baholangan, xalqaro standartlarga mos zamonaviy indikatorlarni milliy huquq tizimiga joriy etish bo’yicha taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo’yiladi:

- inson huquqlarini himoya qilish bo’yicha indikatorlar tushunchasi, turlari va o’ziga xos hususiyatlarini tahliliy o’rganish, bu borada milliy indikator tushunchasining aniq ta’rifini ishlab chiqish;

- inson huquqlarini himoya qilish sohasida milliy, xorijiy va xalqaro tashkilotlar faoliyati, xususan indikatorlarni yaratish, takomillashtirish va amaliyotga joriy etish masalalarini tahliliy va nazariy asosda o’rganish;

- mamlakatlar tomonidan inson huquqlarini ta’minlanganlik darajasini indeks va reytinglar asosida baholovchi xalqaro tashkilotlarning bu boradagi faoliyatini tadqiq etish orqali milliy mexanizmni yaratish va takomillashtirish bo’yicha takliflar ishlab chiqish;

- mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish, ta’minlash va buzilgan huquqlarini tiklash bo’yicha oqsayotgan muammolarni tadqiq etish va ushbu muammolarni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

- inson huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro standartlarga mos milliy indikatorlar tizimi loyihasini ishlab chiqish.

**Dissertatsiya ilmiy yangiligi shundan iboratki,** mazkur tadqiqot ishi inson huquqlarini himoya qilish sohasida milliy indikatorlar tizimini xalqaro va xorijiy mamlakatlarning ilg’or tajribasi asosida takomillashtirish va shakllantirish masalalarini tahliliy asosda o’rganish va zamonaviy indikatorlarni joriy etish orqali

inson huquqlarini himoya qilish mexanizmini joriy etishning istiqbollari yuzasidan taklif va tavsiyalar beruvchi dastlabki tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, har yili qator xalqaro tashkilotlar, jumladan *Amnesty International, Human rights watch, Civil Rights Defenders, Global Rights, Human Right Foundation, Freedom House, Human Right First, International Society for Human Right* kabilar tomonidan aynan inson huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro indekslar doirasida mamlakatlarning mavqei va nufuzini belgilovchi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi har bir mamlakat uchun indikatorlarning ahamiyatini belgilab beradi va tadqiqot ishida bu xususida ham qisqacha to'xtalib o'tiladi.

Shuningdek tadqiqot ishida, inson huquqlarini himoya qilish sohasida milliy indikatorlar tizimini shakllantirish va takomillashtirish zarurati, ularni davlat siyosati va jamiyat hayotidagi o'rni, zamonaviy indikatorlarni implemintatsiya qilish orqali davlat organlarining vakolatini belgilash hamda nazorat funksiyalarini ishlab chiqish, bu orqali inson huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmini yaratish masalalari nazariy jihatdan asoslab beriladi va tadqiqot yakuniga ko'ra, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy indikatorlar tizimi loyihasi taqdim etiladi.

**Tadqiqot usullari.** Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ilmiy tadqiqot usullaridan, jumladan tizimli tahlil, analiz va sintez, qiyosiy-huquqiy tahlil, empirik material va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish hamda boshqa maxsus usullardan foydalanilgan. Mazkur usullar ma'lum darajada dissertatsiya tadqiqoti natijalarining aniqligi va asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili.** Ta'kidlash lozimki xorijiy davlatlarda, xususan AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shveysariya Daniya hamda Yevropaning boshqa qator mamlakatlarida soha mutaxassislari va olimlari tomonidan inson huquqlarini himoya qilishda indikatorlarni tadqiq etishga qaratilgan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan va bu borada qator adabiyotlar, uslubiy qo'llanmalar yaratilgan hamda tavsiyaviy xulosalar berilgan.

Xorijiy adabiyotlar orasida : T.Francesca M.Julieta<sup>1</sup>, G.Gulay, O'.Arun, A.Aslihan, S.Ulash, A.Adem, Y.Thibert<sup>2</sup>, I.Vasquez, F.McMahon, R.Murphy, G.S.Schneider<sup>3</sup>, D.McGrogan<sup>4</sup>, S.McInerney-Lankford va Hans-Otto Sano<sup>5</sup> kabi olimlar va mutaxassislarining maqolalari, uslubiy qo'llanmalari, tahlil natijalarida inson huquqlari sohasidagi indikatorlarning o'ziga xos xususiyatlari yoritib beriladi va ushbu tadqiqot ishida bu xususida qisqacha to'xtalib o'tiladi.

Ayniqsa, tadqiqot ishida inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari, xalqaro ma'ruzalari, uslubiy qo'llanmalari va tahlil natijalaridan samarali foydalanilgan.

Jumladan, BMTning Inson huquqlari Qo'mitasi tomonidan 2012 yilda nashr etilgan "Human rights indicators: A Guide to Measurement and Implementation"<sup>6</sup> nomli tahlil ishi, "Human rights watch" xalqaro tashkilotining 2020 yil yakunlari bo'yicha mamlakatlarda olib borilgan kuzatishlar natijasiga oid "World report 2021 events of 2020"<sup>7</sup> nomli maruzalar matni, "World Justice Project" tashkiloti statistik ma'lumotlari va BMTning "Sustainable development goals" dasturi manbaalaridan foydalanilgan.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilish sohasida milliy indikatorlarni shakllantirish masalalari yangicha institut sifatida kirib kelayotganligi bois sohani ilmiy tadqiq etish masalalari shu kunga qadar yetarlicha o'rganilmagan. Endilikda esa, bu sohani tadqiq etish zarurati vujudga kelmoqda. Bu esa mazkur dissertatsiya mavzusi doirasida ilmiy tadqiqot ishini tanlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup>. Indicators and data for human rights and sustainable development: a guide for national human right institutions. Copenhagen 2021 y. © Danish Institute for Human Rights and Global Alliance of National Human Rights Institutions. [www.humanright.org](http://www.humanright.org)

<sup>2</sup>. Human rights cities indicators. 2021 y Istanbul. Raoul Wallenberg institute. [www.rwinstanbul.org](http://www.rwinstanbul.org)

<sup>3</sup>. The human freedom index 2021. Copyright © 2021 by the Cato Institute and the Fraser Institute. [www.cato.org](http://www.cato.org)

<sup>4</sup>. Human Rights Indicators and the Sovereignty of Technique. © The Author 2016. Published by Oxford University Press. <http://creativecommons.org/licenses/by/3/0>

<sup>5</sup>. Human Rights Indicators in Development. Copyright © 2010. The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

<sup>6</sup>. HR/PUB/12/5. © 2012 United Nations (New York and Geneva, 2012)

<sup>7</sup>. [www.hrw.org](http://www.hrw.org). Copyright © 2021 Human Rights Watch .

To'g'ri, inson huquqlarini himoya qilish sohasida qator olim va siyosatshunoslar, jumladan yuridik fanlari doktori, professor A.Saidov<sup>8</sup>, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) F.Eshmatova<sup>9</sup>, Oliy Majlis Senati Raisi T.Norboeva<sup>10</sup> larning maqolalarida, A.Mo'minov va M.Tillabayev<sup>11</sup>, O.Tadjibaeva va N.Ramazonova<sup>12</sup>, G.Yuldasheva, N.Gafurova va Z.Borsieva<sup>13</sup>larning darsliklarida inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari, uning xalqaro va milliy huquq tizimidagi o'ziga hos xususiyatlari, inson huquqlarini himoya qilishning usul va vositalari, bu borada davlat organlarining vazifalari va boshqa ko'pgina ijobiy tomonlari yoritib berilgan, biroq aynan milliy indikatorlarni shakllantirish, takomillashtirish masalalari, ushbu indikatorlarni ijtimoiy hayotga tadbiq etish orqali inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini yaratish masalalari yoritib o'tilmagan.

Shuningdek, mazkur tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlarga taqdim etgan hisobotlari, xalqaro reyting va indekslarini baholovchi tashkilotlarning davlatlar bo'yicha e'lon qilgan ochiq maruzalari hamda xalqaro va milliy qonun hujjatlaridan foydalaniladi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish natijasida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va xulosalar inson huquqlarini himoya qilish sohasida milliy indikatorlarni ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan milliy mexanizmni yaratilishiga xizmat qiladi va mazkur tadqiqot ishi ushbu sohada amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning o'zbek tilida tadqiq etilgan dastlabki ko'rinishi hisoblanadi.

---

<sup>8</sup>. A.Saidov "Turkiston-press" NAAGA "Inson huquqlarini ta'minlash – bosh maqsadimiz" risolasi ostida bergan intervyusida. 21.03.2022 yil

<sup>9</sup>. F.Eshmatova "Inson huquqlari-eng oliy qadriyat" nomli maqolasida. Ombudsman.uz

<sup>10</sup>. T.Norboeva "Inson huquqlari-eng oliy qadriyat" nomli maqolasida. "Xalq so'zi" gazetasi 23.02.2021 yil

<sup>11</sup>. A.Mo'minov va M.Tillabaev "Inson huquqlari" darslik. Toshkent. Adolat 2013 yil

<sup>12</sup>. O.Tadjibaeva va N.Ramazonova "Inson huquqlari" darslik. Toshkent. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" 2010 yil

<sup>13</sup>. G.Yuldasheva, N.Gafurova va Z.Borsieva "Inson huquqlari" darslik. Toshkent. TDYuU 2014 yil



Bu esa kelgusida sohaga doir ilmiy tadqiqot olib borish, o'quv metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va inson huquqlarini himoya qilish sohasida islohotlarni amalga oshirishda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining nazariy ahamiyati, rivojlangan xorijiy mamlakatlar va xalqaro standartlarga muvofiq inson huquqlarini himoya qilish mexanizmini ifodalovchi normativ huquqiy-hujjatni yaratish va bu orqali davlat idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, muassasalarda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha aniq maqsad va vazifalarni belgilab beruvchi indikatorlar tizimi vujudga keltirishdan iboratdir. Bu esa bir tomondan fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilinishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan davlat organlarining bu boradagi vazifalarini amalga oshirishda dastur-ul amal bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, mamlakatimizning xalqaro maydondagi o'rni va mavqeini oshirishga xizmat qiluvchi milliy normativ mexanizm yaratiladi.

**Tadqiqot ishi tuzilmasining tavsifi.** Maqsad va vazifalaridan kelib chiqib tadqiqot ishining tuzilishi: kirish, 7 paragrafni qamrab olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy qism hajmi 80 betni tashkil etadi. Mavzuga oid 80 ga yaqin turli rasmiy, ilmiy va internet tarmoq sayti manbaalaridan foydalanilgan.

## **I BOB. INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH SOHASIDA MILLIY INDIKATORLARNING UMUMIY TAVSIFI.**

### **1.1. Inson huquqlarini himoya qilish sohasida milliy indikatorlar tushunchasi, turlari va o'ziga xos hususiyatlari.**

Inson huquqlarini himoya qilish sohasida milliy indikatorlarni shakllantirish va takomillashtirish haqida so'z yuritilganda, avvalo "indikator" va "inson huquqlari indikator" tushunchalariga alohida to'xtalib o'tish lozim.

Zero, ilmiy ishni tadqiq etishda ushbu tushunchalarning mazmun va mohiyatini to'g'ri tushunish va anglash tadqiqotning maqsadga erishishga bo'lgan vazifalaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda, tinglovchida ushbu tushunchalarning tarixi, turli talqinlari, normativ hujjatlarda aks ettirilishi va tadqiqotchining bu boradagi qarashlari xususida zarur ko'nikma hosil qiladi.

Indikator (lot.indico – ko'rsataman, aniqlayman) – biror bir jarayonning borishini, kuzatilayotgan ob'ektning ma'lum bir vaqtdagi holatini inson idrok eta oladigan qulay shaklda aks ettiruvchi vosita (qurilma, element)<sup>14</sup>.

Albatta, ma'lum bir jarayonning darajasini baholash inson idrok eta oluvchi uning ko'rish (visual), eshitish (akustik) va sezish ((taktil), masalan, hid bilish yoki jismning qattiq yoki yumshoqligini aniqlash maqsadida ushlab ko'rish) kabi qobiliyatiga moslashtiriladi.

Masalan, avto halokat sodir etilishi jarayonida haydovchining holati (hushyor yoki sarhush ekanligi, chalg'iganligi, etarli haydovchilik ko'nikmasiga ega yoki ega emasligi va hokazo), mashinaning texnik holati (soz yoki nozosligi, texnik ko'rikdan o'tgan yoki o'tmaganligi va hokazo), mashinaning tezligi, yoki mashinaga ta'sir etgan ob'ektning holati (yo'lovchining yo'l qoidasini buzgan yoki buzmagani) va hattoki ob-havo (yomg'ir, tuman, qor) va boshqa holatlarni avto halokat kelib chiqishi sabablarining indikator sifatida baholash mumkin.

Inson huquqlarini biror bir mamlakatda ta'minlanganlik darajasini

---

<sup>14</sup> <https://qomus/info/> online dictionary/

baholashda indikatorlarni joriy etish masalasi ikkinchi jaxon urushidan so'ng ya'ni 19-asrning 40-50 yillarida amalga oshirila boshlandi.

Ma'lumki, BMT Bosh Assambleyasining 10.12.1948 yildagi 217 A (III) ko'rsatmasi orqali "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"<sup>15</sup> qabul qilindi.

Mazkur xalqaro hujjatning 29-moddasi 2-qismida, har bir inson o'z huquq va erkinliklaridan foydalanishda o'zlarining huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda etarli darajada bo'lishini hamda hurmat qilinishini ta'minlash, axloq, jamoat tartibi, umum farovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerakligi belgilangan.

E'tiboringizni ushbu xalqaro normadagi "har bir inson o'z huquq va erkinliklaridan foydalanishda o'zlarining huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda **etarli darajada bo'lishini...**" degan jumlagacha qaratishingizni istardim.

Chunki, aynan mazkur jumla har bir davlatdagi insonlarning o'z huquq va erkinliklarini etarli darajada ta'minlanishi me'zoni uning sub'ektiv xohish va istaklaridan emas, balki xalqaro normalarda belgilandan minimal talablarning davlat tomonidan taminlanganlik darajasidan kelib chiqib baholanishini anglatadi va aynan huquq hamda erkinliklarning "etarli darajada ta'minlanishi" me'zoni bu – inson huquqlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi indikatorlar bilan baholanadi.

Inson huquqlari indikatorlari xususida qator huquqshunos, sotsiolog va siyosatshunos olimlar tomonidan turlicha fikr, mulohozalar va tavsiflar berilgan.

Jumladan, sotsiolog J.Abbot va I.Gujitning ta'kidlashicha, "indikator bu - muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni tushunish imkonini beruvchi, biroq holatni to'liq ifodalamaydigan ma'lumotning bir qismi"<sup>16</sup> deb ta'riflaydilar.

E.Merry esa, indikatorni "kuchning asosiy o'lchovi" sifatida murakkab va o'zgaruvchan hodisalarni bir ma'noga aylantiruvchi, aniq va shaxsiy bo'lmagan choralar"<sup>17</sup> sifatida tariflaydi.

---

<sup>15</sup> <https://www.un.org>, <https://constitution.uz>.

<sup>16</sup> Joanne Abbot and Irene Gujit, 'Changing Views on Change: Participatory Approaches to monitoring the Environment' (1998) SARL Discussion Papers 254, p. 40.

<sup>17</sup> Sally Engle Merry, 'Measuring the World: Indicators, Human Rights, and Global Governance' (2011) 52 (Supplement to Number 3) Current Anthropology 83, p. 84.

Tadqiqotchi olim E.Merry inson huquqlari mavjud bo'lgan jamiyatda ularni indikatorlar bilan baholash mumkinligini, biroq turli mintaqalarda inson huquqlari masalasi nisbiy ekanligini tushuntirib, Tanzaniyada bola huquqlari indikatorlarini takomillashtirish yuzasidan olib borgan tadqiqotlari jarayonida, inson huquqlariga (Kisvahili tilidan) axloqiy majburiyatlar sifatida qaralishini ta'kidlaydi<sup>18</sup>.

Yana bir tadqiqotchi olim Mariya Grin esa J.Abbot va I.Gujit tomonidan taklif etilgan tarifdan kelib chiqib, "indikator bu – (bir bo'lak) insonga tegishli bo'lgan ma'lum bir huquqning qay darajada ta'minlanayotganligi yoki ushbu huquqdan insonlar qay darajada foydalanayotganligi o'lchashda foydalanilayotdan ma'lumotlar"<sup>19</sup> deya tariflaydi.

BMTning maxsus ma'ruzachisi sifatida P.Hunt 2003-yilda taqdim etgan hisobotida har bir insonning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlash mumkin bo'lgan eng yaxshi standart bu uning ehtiyojini aniqlashga xizmat qiluvchi sog'liqni saqlash huquqi indikatorini ekanligini, insonning sog'lig'ini saqlash huquqi indikatorlari salomatlik indikatoridan farq qilishi, aynan insonlarni sog'lig'ini saqlashga bo'lgan huquqini ta'minlash indikatorlarini monitoring qilish natijalari mas'ul shaxslarni javobgarlikka tortishga sabab bo'lishini ta'kidlaydi<sup>20</sup>.

BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari P.Hunt va M.Grin ta'riflaridan kelib chiqib, inson huquqlari sohasidagi indikatorlar inson huquqlari normalari bilan bog'liq bo'lgan hodisa, ob'ekt, faoliyat haqida ma'lum bir davlat to'g'risida aniq ma'lumot beruvchi, inson huquqi tamoyillari va muammolarini o'zida aks ettiruvchi, inson huquqlarini ustuvorligini ta'minlash maqsadida monitoring qiluvchi, baholovchi mezon sifatida tarifladi<sup>21</sup>.

---

<sup>18</sup> Sally Engle Merry, 'Quantification and the Paradox of Measurement' (2014 AHRI Conference, Copenhagen, September 2014).

<sup>19</sup> Maria Green, 'What we talk about when we talk about Indicators: Current Approaches to Human Rights Measurement' (2001) 23 Human Rights Quarterly 1062, p. 1065.

<sup>20</sup> United Nations Special Rapporteur of the Commission on Human Rights on the Right of Everyone to enjoy the Highest Attainable Standard of Physical and Mental Health, 'Interim Report on the Right of Everyone to enjoy the Highest Attainable Standard of Physical and Mental Health' 28 August 2003, A/58/427, para 10.

<sup>21</sup> United Nations Special Rapporteur of the Commission on Human Rights on the Right of Everyone to enjoy the Highest Attainable Standard of Physical and Mental Health, 'Interim Report on the Right of Everyone to enjoy the Highest Attainable Standard of Physical and Mental Health' 28 August 2003, A/58/427, para. 12

Shuningdek, BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari tomonidan 2012 yilda taqdim etilgan "Human Right indicators A guide to Measurment and Implementation" (Inson huquqlari bo'yicha indikatorlarni amalga oshirish bo'yicha qo'llanma) nomli qo'llanmada inson huquqlari indikatori bu – inson huquqlari normalari va standartlari bilan bog'liq bo'lgan muayyan hodisa, ob'ekt, faoliyat va natija haqida ma'lumot beruvchi, inson huquqi tamoyillari va muammolari haqida xabar beruvchi, monitoring va baholash mezonlari sifatida tariflanadi.

Fikrimizcha, BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari tomonidan berilgan tarifda inson huquqlari indikatorlari mazmun va mohiyati nisbatan to'liqroq yoritilgan bo'lib, yuqoridagi olimlarning qarashlariga nisbatan kengroq munosabatlarni qamrab oladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerak, milliy qonun hujjatlarimizda "indikator" "subindikator" tushunchasiga tarif berilgan bo'lsada<sup>22</sup>, "inson huquqlari indikatori" tushunchalari mazmuni yoritib o'tilmagan.

Ayrim milliy qonun hujjatlarimizda, masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022 yildagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-sonli qarori<sup>23</sup>ning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan milliy maqsad va vazifalar BMTning "Sustainable Development Goals" dasturida belgilangan barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlari asosida yaratilgan bo'lib, ushbu qonun hujjatida har bir indikator "vazifa" deb yuritiladi.

Jumladan, "Sustainable Development Goals" dasturida 5-maqsad (Gender tengligiga erishish va barcha xotin-qizlarning teng huquqliligini ta'minlash) 5.5-vazifa (Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini hamda yetakchilik uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash) si 2 ta indikatordan ya'ni 5.2.1 indikator – parlamentda

---

<sup>22</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2021 yildagi "O'zbekiston Respublikasida huquq ustuvorligini ta'minlash holatini aniqlashning samarali mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4951-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Hududlarning huquq ustuvorligi indeksini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 2-bandi 1-2-xatboshida

<sup>23</sup> <https://lex.uz>

va mahalliy davlat idoralarida ayollar egallagan o'rinlar nisbati va 5.2.2 indikator - boshqaruvdagi ayollar ulushi sifatida belgilanadi.<sup>24</sup>

Mazkur milliy qonun hujjatimizda esa 5-maqсад (Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish) 5.5-vazifa (Xotin qizlarning Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha bosqichlarida har tomonlama ishtirok etishlarini hamda qaror qabul qilishda yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash) sifatida berilib, alohida indikatorlarga ajratilmagan.

Yoki ushbu qonun hujjatida "Sustainable Development Goals" dasturida nazarda tutilgan indikatorlar, masalan 5.5.a.1 indikator 5-maqсад 5.a-vazifa deb, 5.5.b-indikator 5.5.b-vazifa deb belgilangan.

Shuningdek, "indikator" tushunchasi milliy qonun hujjatlarimizda "ko'rsatkichlar" tushunchasi bilan ham uchraydi.

Masalan, *KidsRight Index* xalqaro baholash me'zoni talqiniga ko'ra, mamlakatlarda bolalar huquqlarini ta'minlanganlik darajasini baholash 5 ta indeks (hayot kechirish, sog'lig'i muxofazasi, ta'limga bo'lgan huquqi, himoyalanganlik darajasi va tabiiy huquqlarini ta'minlanganlik darajasi) doirasida 20 ta indikator<sup>25</sup>ni nazarda tutadi.

Mazkur indikatorlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.04.2019 yildagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son Qarorining ilovasi bilan tasdiqlangan "stat.uz" veb-saytiga joylashtirilishi lozim bo'lgan minimal ko'rsatkichlar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatida "ko'rsatkich" tushunchasi bilan talqin etiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan tushuncha va tariflarda kelib chiqib, inson huquqlari sohasida indikatorlar bu – xalqaro va milliy qonun hujjatlarida belgilangan inson huquqlari himoya qilish va ta'minlashga qaratilgan normalar va standartlar bilan

---

<sup>24</sup> <https://unstats.un.org>

<sup>25</sup> Quantitative data published and regularly updated by UNICEF [www.data.unicef.org](http://www.data.unicef.org) UNDP [www.hdr.undp.org/data](http://www.hdr.undp.org/data)

bo'g'liq bo'lgan muayyan hodisa, ob'ekt, faoliyat va natija haqida ma'lumot beruvchi, inson huquqlari tamoyillari va muammolari haqida xabar beruvchi, monitoring va baholash mezonini deb tariflash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotchi Sally Engle Merry tomonidan "Chicago Journals" nashriyatida chop etilgan "Measuring the World: Indicators, Human Rights and Global Governance" deb nomlangan maqolasida "Dunyo bo'ylab amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ijtimoiy adolatni baholash va targ'ib qilish vositasi sifatida turli indikatorlar vujudga keldi. Masalan, qonun ustuvorligi, zo'ravonlik, ayollar huquqlarini ta'minlash, iqtisodiy va boshqa turdagi indikatorlar. Indikatorlar milliy darajada va global boshqaruvda keng qo'llanilmoqda va ularga qo'yilgan talablar ham murakkablashib bormoqda. Soddalashtirilgan raqamli tasvirlarga tayanish (indikatorlar) milliy boshqaruv va iqtisodiy tahlil strategiyalarida boshlangan va yaqinda nodavlat tashkilotlar va inson huquqlarini tartibga solish sohasiga ko'chib o'tdi"<sup>26</sup> deb ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, ijtimoiy munosabatlar rivojlangani sari davlat va jamiyat hayotini tartibga soluvchi mexanizmlar va mavjud huquq normalari ham takomillashib boradi. Albatta bu jarayonlar inson huquqlarini himoya qilish sohasiga ham ta'sir etmasdan qolmaydi. Chunki, barcha islohotlar negizida avvalo inson va uning manfaatlari yotadi. Bu esa inson huquqlarini ta'minlashning yangicha mexanizmlarini, yanada soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy indikatorlarni yaratishni taqozo etadi.

**Inson huquqlari indikatorlarining turlari** xususida gapirganda, BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari har bir xalqaro normalarni qabul qilgan davlatda inson huquqlarini ta'minlash indikatorlarini amalga oshirish doirasiga ko'ra **3 turga, ya'ni strukturaviy, jarayon va natija indikatorlariga ajratadi**<sup>27</sup> va bu indikatorlar davlatda inson huquqlarini hurmat qilish, himoya qilish va majburiyatlarni bajarish mas'uliyatini belgilab beradi.

---

<sup>26</sup> Author(s): Sally Engle Merry The University of Chicago Press 01/11/2012 <http://www.jstor.org/stable/10.1086/657241>

<sup>27</sup> Office of the High Commissioner for Human Rights (OHCHR), Human Rights Indicators: A Guide to Measurement and Implementation (2012)

**Strukturaviy indikator.** Indikatorlarning mazkur turi davlat tomonidan xalqaro hujjat ratifikatsiya qilingandan so'ng unda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish maqsadida milliy huquq normasini yaratishni nazarda tutadi va bu orqali maqsadga erishishning mexanizmi qonun hujjatlarida aks ettiriladi.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi 07.06.2021 yilda BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ni ratifikatsiya qilgandan so'ng unda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun qator milliy qonun hujjatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligiga ko'maklashishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 203-sonli Qarori (20.04.2022 yil), "Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 769-sonli Qarori (23.12.2021 yil), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5217-sonli Qarori (09.08.2021 yilda) va boshqa qator milliy qonun hujjatlari qabul qilindi. Mazkur qaror va farmonlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish doirasida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini amalga oshirish bo'yicha ma'lum bir indikatorlar, masalan, davlat idoralarida nogironligi bo'lganlar ulushini 2023 yilga qadar 15 % ga oshirish, tibbiy ortopedik buyumlar berilishini 2023 yilga qadar 20 % ga oshirish kabi indikatorlar ishlab chiqilsa mazkur indikatorlarni strukturaviy indikatorlar deyish mumkin.

**Jarayon indikatorlari** esa davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning ayni vaqtdagi holati haqida ma'lumot beruvchi indikatorlardir.

Masalan, muayyan hududda maktablarning qurilishi ko'rsatkichi (foizda) qanday? yoki ayni vaqtda maktablarda qiz bolalar uchun chet tillarini o'qitish ko'rsatkichi qay darajada? degan savollarga javob beruvchi indikatorlar davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi vaqtdagi holatini ifodalab berishga xizmat qiladi.



**Natija indikatorlari.** Davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar yoki ma'lum bir jarayonlarning yakuni to'g'risida ma'lumot beruvchi indikatorlardir.

Masalan, qiynoqlar natijasida qamoqxonalarda vafot etgan insonlar soni qancha? yoki avto halokatlari sababli nogiron bo'lib qolgan aholi soni qancha? degan indikatorlarga javob berish orqali jarayonlarning yakuni bo'yicha ma'lumot olish mumkin bo'ladi.

Misol tariqasida ko'rib chiqaylik;

*(1) Nogironligi bo'lgan shaxslarni 100 foiz ortopedik vositalar bilan taminlanganlik darajasiga erishish maqsadida, ushbu toifadagi shaxslarni (2) ayni vaqtdagi tibbiy buyumlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va (3) amalga oshirilgan ishlar yakuni bo'yicha aniq statistik malumotlar taqdim etish lozim.*

*1. Strukturaviy*

*2. Jarayon*

*3. Natija*

Mazkur bayon etilgan jumlada nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy buyumlar bilan ta'minlashga bo'lgan maqsadni amalga oshirish jarayonlarini baholash bo'yicha indikator ishlab chiqishga qaratilgan faoliyat ifodalangan.

Inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi milliy indikatorlar tasvirlash usuliga ko'ra, **miqdoriy** va **sifat** indikatorlarga ajratiladi.

Miqdoriy indikatorlar - ma'lum jarayon va hodisalarni statistik raqamlar, sonlar, foizlar va indekslar bilan tasvirlab beradi<sup>28</sup>.

Miqdoriy indikatorlardan ayniqsa davlat boshqaruvida ayollarning ulushi, maktab yoshidagi bolalar ulushi, qancha turdagi xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilinganligi kabi holatlarni ifodalashda samarali foydalaniladi.

Sifat indikatorlar – jarayon va hodisalar xususida hikoya qilish, fikr bildirish orqali aniqlash usulidir.

<sup>28</sup> Office of the High Commissioner for Human Rights (OHCHR), Human Rights Indicators: A Guide to Measurement and Implementation (2012)

Sifat indikatorlari ma'lum jarayonlarni kuzatish va tahlil qilish orqali ham to'planadi va bunda ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish yakuni bo'yicha xulosalar indikator sifatida baholanadi.

Ushbu ikki indikator bir-birini o'zaro to'ldirib turadi va yakuniy xulosaga kelishda har ikkisidan ham birdek foyalaniladi.

Shuningdek, indikatorlar aniqlash usuliga ko'ra faktlar (ob'ektiv)ga va fikr, mulohazalar (sub'ektiv)ga asoslangan turlarga bo'linadi. Misol uchun:

	<b>Faktlar(ob'ektiv)ga asoslangan</b>	<b>Fikr(sub'ektiv)ga asoslangan</b>
<b>Miqdoriy indikator</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. 6 yoshli bolalarni maktabga qabul qilinishi ko'rsatgichi?</li> <li>2. O'zboshimchalik bilan hibsdan saqlanayotganlar soni?</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. 18-30 yoshli qizlarning necha foizi tunda yolg'iz yurganda o'zini xavfsiz his etadi.</li> <li>2. Jurnalistlarning necha foizi mamlakatda suv erkinligi mavjud deb hisoblaydi?</li> </ol>
<b>Sifat indikator</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mamlakat qiynoqlarga qarshi kurashish bo'yicha konvensiyani ratifikatsiya qilganmi?</li> <li>2. Milliy jinoyat qonunchiligida ayblanuvchi va jabrlanuvchini yarashtirish masalalari tartibga solinganmi?</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sud organlarining qanchalik adolatli va mustaqilligini siz qanday izohlaysiz?</li> <li>2. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat tomonidan olib borilayotgan ishlar qonunda va amalda qanchalik bir xil?</li> </ol>

Faktlar (ob'ektiv)ga asoslangan indikatorlar – tasdiqlangan hodisa va jarayonlarni aniqlashda, masalan qiynoq natijasida vafot etganlar soni, 5 yoshgacha bo'lgan kam vazni bolalar soni, sud hukmiga asosan korrupsion

jinoyatlarni sodir etgan mansabdor shaxslarning soni kabi holatlar haqida ma'lumot beradi.

Mulohazalarga asoslangan indikatorlar esa, shaxslar tomonidan muayyan hodisa va jarayonlarga sub'ektiv fikr bildirishlari natijasida, masalan, mamlakatingizda OAVlarning so'z erkinligini ta'minlash masalasini qanday izohlaysiz? yoki hududingizdagi tibbiy xizmat sifati sizni qoniqtiradimi? kabi savollarga javob berish orqali olinadigan ma'lumotlardir.

Inson huquqlarini himoya qilish sohasida indikatorlar o'ziga xos xususiyatlarga, funksiyalarga ega bo'lishi lozim. Jumladan,

- 1) Monitoring va baholashi;**
- 2) Miqdoriy va sifat darajasini aniqlash;**
- 3) Mavjud ko'rsatkichga ega bo'lishi;**
- 4) Indeks doirasida baholanishi;**
- 5) Ma'lum toifa, guruhni qamrab olishi (disagregatsiya);**

Inson huquqlari bilan bog'liq holatlarni aniqlash maqsadida monitoring va baholash jarayoni olib borilib, mavjud vaziyatni tahlil qilishda yordam beradi. Monitoring mavjud salbiy holatlarni aniqlash va ushbu holatlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash uchun muhimdir.

Inson huquqlariga rioya etilayotganligini baholashda miqdoriy va sifat indikatorlarining o'rni birdek ahamiyatlidir. Biroq, tadqiqotchi olim G.Green tomonidan "Organisation for Economic Co-operation and Development" jurnalida taqdim etgan maqolasida inson huquqlari sohasida indikatorlar faqat statistik (raqamlar, foizlar, sonlar) ko'rsatkichlar bilan ifodalanishi<sup>29</sup> taklidlab o'tgan.

Bizningcha, muayyan davlatda istiqomad qilayotgan insonlarning mavjud qonunlarning qay darajada amalda tadbiriq etilayotganligi, sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faqat qonunga asosan faoliyat olib borayotganligi va davlat idoralari mansabdor shaxslarning aralashuviga yo'l qo'yilmayotganligi

---

<sup>29</sup> Maria Green, 'What we talk about when we talk about Indicators: Current Approaches to Human Rights Measurement' (2001) 23 Human Rights Quarterly 1062; Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), 'Measuring Human Rights and Democratic Governance: Experiences and Lessons from Metagora' (2008) 9 OECD Journal on Development 2, p. 33.

holatini faqatgina sifat indikatorlari orqali (aholining fikrini bo'yicha so'rovnomalar o'tkazish) bilish mumkin bo'ladi. Yevropa Ittifoqi Taraqqiyot dasturida ta'kidlaganidek, "sifat indikatorlari raqamli bo'lmagan usuldagi eng yaxshi ifodalangan, qayd etilgan ma'lumotlarni yi'gishga xizmat qiladi"<sup>30</sup>

Indikatorlarning yana bir eng muhim hususiyati bu ko'rsatkichlarda ifodalanishidadir. Aynan ko'rsatkichlar maqsadni belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlarida 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'lim ko'rsatkichini uchdan ikki qismga kamaytirish maqsadi belgilangan.<sup>31</sup>

Indikatorlarning eng muhim hususiyatlaridan biri bu indekslarda ifodalanishidir. Indeks bu – bir qancha indikatorlarni jamlagan muayyan maqsadga erishishni baholovchi ko'rsatkich sifatida ta'riflanadi. Indeksni alohida bir indekator bilan baholab bo'lmaydi. Masalan, KidsRight Index xalqaro baholash me'zoni talqiniga ko'ra, mamlakatlarda bolalar huquqlarini ta'minlanganlik darajasini baholash 5 ta indeks (hayot kechirish, sog'lig'i muxofazasi, ta'limga bo'lgan huquqi, himoyalanganlik darajasi va tabiiy huquqlarini ta'minlanganlik darajasi) doirasida 20 ta indikator<sup>32</sup>ni nazarda tutadi.

Shuningdek, indikatorlarning o'ziga xos hususiyatlari sifatida muayyan hudud, aholi, shaxs toifasi, guruh, jins, yosh, millat vakillari o'rtasida o'tkazilishidadir (disaggregatsiya). Chunki, ayrim indikatorlar faqat ma'lum guruhlardagi insonlarni huquq va manfaatlarini tartibga solishga qaratilgan bo'lib, boshqa guruh vakillarining hayotiga tasir etmaydi, Masalan, erta tug'ruq holatlari ko'rsatkichi (ayollarga nisbatan), nogironlarni davlat idoralarida bandligini taminlanishi ko'rsatkichi (nogironlarga nisbatan), maktab yoshidagi bolalar o'rtasida jinoyat sodir etish ko'rsatkichi (bolalarga nisbatan) kabilar faqat ushbu toifa shaxslariga nisbatan tadbiiq etiladi.

---

<sup>30</sup> United Nations Development Programme (UNDP), Report to UNDP Philippines: Human Rights Programme Review, HURIST, May 2004, p. 44.

<sup>31</sup> United Nations General Assembly, 'United Nations Millennium Declaration' of 18 September 2000, A/RES/55/2, para. 19

<sup>32</sup> Quantitative data published and regularly updated by UNICEF [www.data.unicef.org](http://www.data.unicef.org) UNDP [www.hdr.undp.org/data](http://www.hdr.undp.org/data)

Inson huquqlari sohasidagi indikatorlar o'ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda ma'lum bir metodologik tamoyillarga ham ega bo'lib, ushbu tamoyillar inson huquqlarini hurmat qilish, himoya qilish va davlatning o'z majburiyatlarini bajarilishi funksiyalarini baholab beradi. Ushbu tamoyillar quyidagilardir:

- Tegishlilik va ishonchlilik;
- Kuzatilayotgan sub'ektlardan ma'lumotlar to'plashning mustaqilligi;
- Global va universal manoda, milliy qonun hujjatlariga mos ravishda kamsitishning taqiqlangan asoslari bo'yicha ajratish;
- Inson huquqlari standartlarini markazlashtirilganligi va huquqlarning me'yoriy doirada mustahkamlanganligi;
- Aniqlash usullaridan shaffof o'z vaqtida foydalanilishi;
- Oddiy va o'ziga xosligi.

Bugungi kunga qadar chop etilgan inson huquqlari sohasida indikatorlar masalasiga doir adabiyot va darsliklarda ushbu sohadagi asosiy indikatorlar sifatida, tenglik va kamsitishga yo'l qo'yilmaslik, qasddan sodir etilgan jinoyatlar ko'rsatkichi, gender maoshidagi farqlar, ta'lim yoki ish bilan band bo'lmagan yoshlar ulushi, o'rta ta'limdagi nogiron bolalarning ulushi va ularning baholari, qashshoq bolalar ko'rsatkichi, daromadning eng past darajasi, 1.000 nafar aholi nisbatida uysizlar soni, vaqtinchalik yashash uchun uylar soni, insonlarning o'rtacha umr ko'rish yoshi, ijtimoiy ko'makka muhtoj aholining shifoxonalardan qoniqish hosil qilish darajasi<sup>33</sup> kabilar sanab o'tiladi.

Biroq bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarning tobora rivojlanib borishi, shahar joylarida infratuzilma o'zgarib borayotganligi, zamonaviy indekslarning joriy etilishi, texnologiyadagi yuksalishlar, huquq normalarining tobora takomillashib borishi inson huquqlari sohasida yangicha indikatorlarni yaratish zaruratini taqozo etmoqda va bu mamlakatimizda ham sohada zamonaviy indikatorlar yaratish masalasini dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

---

<sup>33</sup> York Human Rights Indicator Report 2017, Human Rights: Reclaiming the Positive. [https://www.york.ac.uk/media/cahr/documents/2017\\_Report\\_A4\\_final.pdf](https://www.york.ac.uk/media/cahr/documents/2017_Report_A4_final.pdf)

## **1.2. Xalqaro huquqiy munosabat sub'ekti sifatida davlatning inson huquqlarini himoya qilish sohasida milliy indikatorlarni shakllantirishdagi o'rni va vazifalari.**

Har bir davlat xalqaro huquqiy munosabatlarning sub'ekti sifatida tan olinar ekan, turli maqsad va vazifalarni bajarish hamda majburiyatlarni xalqaro talablar darajasida amalga oshirish mas'uliyatini ham o'z zimmasiga oladi.

Ushbu majburiyatlar qatorida shubhasiz, inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish, imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida zarur shart-sharoitlar yaratish va buzilgan huquqlarini tiklash kabi ustuvor vazifalar ham belgilanadi.

Bu jarayonlarni inson manfaatlari uchun xizmat qiluvchi milliy huquq normalarini takomillashtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi va eng muhimi, mazkur normalarda inson huquqlarini ta'minlash darajasini belgilab beruvchi indikatorlarning aks ettirilishi bu boradagi islohotlarning samaradorligiga xizmat qiladi.

*Xo'sh, davlat tomonidan bu kabi indikatorlarni shakllantirish va takomillashtirish masalalari qanday tartibda amalga oshiriladi? Nima uchun indikatorlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega? Indikatorlarsiz davlatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotini tartibga solish mumkinmi?*

Tadqiqot ishining ushbu bo'limi mazkur savollarga javob beradi.


Ma'lumki, bugungi kunda xalqaro inson huquqlari sohasida BMT tomonidan 18 ta xalqaro hujjat qabul qilingan bo'lib, mazkur hujjatlarda insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa turdagi huquqlarini kafolatlovchi xalqaro normalar aks ettirilgan. Bular quyidagilardir:

1. "Irtiqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish haqidagi Konvensiya" (1965 yil);
2. "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt" (1966 yil);
3. "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt" (1966 yil);
4. "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitilishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya" (1979);

5. “Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g’ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazoga qarshi Konvensiya” (1984);
6. “Bola huquqlari to’g’risidagi Konvensiya” (1989);
7. “Barcha mehnatkash migrantlar va ular oila-a’zolarining huquqlarini himoya qilish to’g’risidagi xalqaro Konvensiya” (1990);
8. “Barcha shaxslarning majburan yo’qolib ketishidan himoya qilish to’g’risidagi xalqaro Konvensiya” (2006);
9. “Nogironlar huquqlari to’g’risidagi Konvensiya” (2006);
10. “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to’g’risidagi xalqaro Pakt”ning fakultativ protokoli (2008);
11. “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro Pakt” fakultativ protokoli (1966 yil);
12. “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro Pakt”ning o’lim jazosini bekor qilish to’g’rida”gi 2-fakultativ protokoli. (1989);
13. “Ayollarga nisbatan kamsitilishlarning barcha shakllariga barham berish to’g’risidagi Konvensiya”ning qo’shimcha protokoli (1999);
14. “Bola huquqlari to’g’risidagi Konvensiya”ning bolalarni qurolli mojarolarga jalb qilishni ta’qiqlash bo’yicha” fakultativ protokoli (2000);
15. “Bola huquqlari to’g’risidagi Konvensiya”ning bolalarni foxishalik va bolalar pornografiyasi maqsadida sotishni ta’qiqlash to’g’risida”gi ixtiyoriy protokoli (2000);
16. “Bola huquqlari to’g’risidagi Konvensiya”ning jarayonlar to’g’risida xabar berish to’g’risida”gi fakultativ protokoli (2014);
17. “Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g’ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazoga qarshi Konvensiya” ning davolanish va jazoni ijro etish muassasalari to’g’risida”gi qo’shimcha protokoli (2002 yil);
18. “Nogironlar huquqlari to’g’risidagi Konvensiya” ning qo’shimcha prokotoli (2006)<sup>34</sup>.

---

<sup>34</sup> URL: <http://www.ohchr.org/EN/Issues/Indicators/Pages/HRIndicatorsIndex.aspx>



*Inson huquqlariga doir 18 ta xalqaro hujjatlarni davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinishi indikatorini (01.06.2022 yil holatiga)<sup>35</sup>*

15-18 ta	10-14 ta	5-9 ta	0-4 ta
<i>Argentina (18)</i>	<i>Kanada (14)</i>	<i>Pokiston (9)</i>	<i>Butan (4)</i>
<i>Ispaniya (17)</i>	<i>Qozog'iston (14)</i>	<i>Zimbabve (9)</i>	<i>Palau (3)</i>
<i>Mongoliya (17)</i>	<i>B.Britaniya (13)</i>	<i>Xitoy (8)</i>	<i>Tuvalu (3)</i>
<i>Mali (17)</i>	<i>Kongo DR (12)</i>	<i>Saudia A (8)</i>	<i>Tongo (2)</i>
<i>Ozarbayjon (17)</i>	<i>Rossiya (11)</i>	<i>Somali (7)</i>	<i>Fr. Gvineyasi (0)</i>
<i>Turkiya (16)</i>	<i>Uzbekiston (11)</i>	<i>Eron (6)</i>	
<i>Germaniya (16)</i>	<i>Indoneziya (10)</i>	<i>AQSH (5)</i>	

Mazkur inson huquqlarini tartibga solishga qaratilgan xalqaro hujjatlarda aks ettirilgan norma talablari davlatlarning milliy qonun hujjatlarida ham aks ettirilishi va har bir norma talablarini ishtirokchi davlat tomonidan qay darajada ta'minlanayotganligini baholash maqsadida xalqaro inson huquqlari indikatorlari,

<sup>35</sup> <https://indicators.ohchr.org>



milliy darajada ta'minlanayotganligini baholash maqsadida esa inson huquqlari sohasida milliy indikatorlar ishlab chiqilishi lozimdir.

Bugungi kunda qator mamlakatlar tomonidan mazkur xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilinmasada, inson huquqlarini imkon qadar milliy qonun hujjatlari doirasida hal etishga urunish holatlari anchagina.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mazkur hujjatlarda inson huquqlarini taminlashning minimal darajasi ifodalanib, uning maksimal darajasini xech bir me'zon bilan belgilanmaydi va ushbu xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilinishi darajasi davlat uchun inson huquqlari indikatorlarini yaratishning asosi bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro Paktlar, statutlar, protokollar va konvensiyalar ratifikatsiya qilingan davlatda albatta huquqiy kuchga ega bo'lgan hujjat sifatida e'tirof etiladi.

Deklaratsiya, tamoyillar, ko'rsatmalar va standart qoidalar esa majburiy kuchga ega bo'lmasada, inkor etilmaydigan ma'naviy hujjatlar sifatida davlatga amaliy yordam berishga xizmat qiladi<sup>36</sup>.


Davlat indikatorlarni shakllantirishni inson huquqlari sohasining muayyan bir tarmog'ini, masalan, nogironligi bo'lgan shaxslar yoki bolalalar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi normalarni tanlashdan boshlaydi va ushbu norma doirasida indikatorlar yaratiladi.

Inson huquqlari sohasidagi indikatorlar shakllantirish jarayoni 3 ta asosiy standartni qamrab olishi, ya'ni huquq normasida aks etishi, ijtimoiy so'rovlar, mutaxassis xulosalari va fikr - mulohazalarga asoslanishi va sub'ektlar doirasi (kamsitishga yo'l qo'ymaslik) belgilanishi lozim.

Ushbu indikatorlarni shakllantirishda eng asosiysi diskriminatsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik va disaggregatsiya masalalarini (jins, yosh, din, hudud, guruh va shu kabi belgilarni) qamrab olishi lozim. Quyida indikatorlarni shakllantirish jarayonlarini ko'rib o'tamiz.

---

<sup>36</sup> \_For example, the United Nations Declaration on the Rights of Indigenous Peoples elaborates on existing international human rights as they apply to indigenous peoples



3-rasm. Indikatorlarni shakllantirishda qo'yiladigan talablar.

Tadqiqotchi olimlar manbaalarni to'plash usullari 4 ta jarayondan iboratligini ta'kidlab, bular, jarayon natijalariga asoslanish, rasmiy statistik

ma'lumotlarni olish, so'rovnomalar tashkil etish va mutaxassis xulosalariga asoslanish kabilarni sanab o'tishadi<sup>37</sup>.

Albatta, shakllantirilayotgan indikatorlar ma'lum bir ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qilishi sababli, mavjud real holatni aniqlash maqsadida muayyan jins, yosh, guruhga mansub aholi vakillari o'rtasida so'rovnomalar tashkil etilishi va ularning fikr mulohazalari inobatga olinishi lozim.

Masalan, Falastin davlatida indikatorlar ishlab chiqish maqsadida ta'lim sohasida real muammolarni aniqlash uchun aholi o'rtasida OAV va NNT vakillari ko'magida so'rovnomalar o'tkazilib, aniqlangan muammolarni bartaraf etish yuzasidan ta'limni rivojlantirish indikatorlari ishlab chiqilgan<sup>38</sup>.

Indikatorlarni shakllantirishda ijtimoiy hayotda tez-tez sodir bo'lib turadigan salbiy holatlarni oldini olish va bu holatlarni oldini olishga xizmat qiluvchi miqdoriy indikatorlarni ishlab chiqish masalasi bo'yicha mutaxassis xulosalari ham olinadi.

Shuningdek, indikatorlar belgilangan norma doirasidan chetga chiqmasligi, inson huquqlarining mazmun-mohiyatini qamrab olishi, me'yoriy mazmun soni imkon qadar (qisqa jumla bilan ifodalanishi) oz bo'lishi va boshqa indikatorlarni takrorlamasligi lozim.

Inson huquqlari normalari muayyan hususiyatlar (atributlar)ga ega bo'lishini inobatda olib, har bir hususiyatni ifodalovchi indikatorlar shakllantiriladi.

Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasida nazarda tutilgan insonning yashash huquqi 4 ta hususiyatni, ya'ni "o'zboshimchalik bilan hayotdan mahrum etish", "shaxsning majburan yo'qolishi", "sog'ligi va ovqatlanishi" hamda "o'lim jazosi" kabilarni qamrab oladi va mazkur

---

<sup>37</sup> See Malhotra and Fasel, "Quantitative human rights indicators". This survey is by no means exhaustive. It draws from some attempts at mapping and surveys of human rights and related indicators and some earlier studies, in particular M. Cain, R. Claude and Th. Jabine, "A guide to human rights data sources", in Human Rights and Statistics: Getting the Record Straight; T. Landman and J. Häusermann, "Map-making and analysis of the main international initiatives on developing indicators on democracy and good governance" (2003); UNDP, Governance Indicators: A Users' Guide, 2nd ed. (2007); and C. Naval, S. Walter and R. Suarez de Miguel, "Measuring human rights and democratic governance: experiences and lessons from Metagora", OECD Journal on Development, vol. 9, No. 2 (2008).

<sup>38</sup> <http://www.paris21.org/pages/designing-nsds/presentationevents/>

normalar “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro Pakt”<sup>39</sup>, mazkur paktning o’lim jazosini bekor qilish to’g’rida”gi 2-fakultativ protokoli, “Barcha shaxslarning majburan yo’qolib ketishidan himoya qilish to’g’risidagi xalqaro Konvensiya” va “Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g’ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazoga qarshi Konvensiya” normalarida batafsil o’z aksini topgan.

Indikatorlarning hususiyatlari haqida turlicha qarashlar mavjud. Masalan, BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo’yicha qo’mitasi, insonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari indikatorlari *mavjudlik, muvofiqlik, sifat, maqbullik* kabi hususiyatlar bo’yicha bir xil indikator bilan baholanishi lozimligini ta’kidlaydi<sup>40</sup>.

Biroq, bir guruh olimlar yuqoridagi hususiyatlarni bir yoki bir xil indikatorlar bilan baholash mumkin emas deb hisoblaydilar.

Masalan, do’konlarda sut mahsulotlarining umuman sotilmasligi (mavjud emasligi) holatini do’konlarda sut mahsulotining qiymat sotilishi (aholiga maqbulligi) hususiyati bilan bir xil ifodalab bo’lmaydi.

Yoki, davlat tomonidan indikatorlarni shakllantirishda tibbiy xodimlar sonini aniqlashdan ko’ra, surunkali kasallik bilan shifokorga murojaat etuvchilar sonini aniqlash samaraliroq bo’lishi mumkin.

Bizningcha, har bir hususiyatni alohida tartibda baholash, mavjud real holatni aniqlash imkonini beradi.

Ya’ni, - do’konlarda sut mahsulotlari sotiladimi? Javob: xa yoki yo’q.

- sut mahsulotlari narxi sizni qoniqtiradimi? Javob: xa yoki yo’q.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan monitoring va baholash tadbirlari davomida davlat tomonidan quyidagi xalqaro standartlar amalga oshirilgan bo’lishi lozim.

- Inson huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlarda va BMT qo’mitalarining tavsiyalarida belgilangan holatlar yuzasidan indikatorlarning yaratilganligi;

---

<sup>40</sup> See, for instance, its general comments on the rights to food, housing, health and education

- Davlat tomonidan inson huquqlari sohasida xalqaro majburiyatlarni bajarilganligi holati yoki bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar yuzasidan amalga oshirilgan ishlar;

- Davlat tomonidan inson huquqlarini hurmat qilish, himoya qilish, bu borada o'z majburatlarini bajarish, buzilgan huquqlarni tiklash va javobgarlik masalalari bo'yicha mexanizm yaratilganligi;

- Barcha insonlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy huquqlarini teng asosda ta'minlanganligi va o'zaro bir - biriga bog'liq qilib qo'yilmaganligi;

- Indikatorlarni shakllantirishda tenglik, kamsitilishga yo'l qo'ymaslik, qonun ustuvorligi, ishtirokni ta'minlash, mavjud jarayonlarni inobatga olish, sifatli boshqaruv, himoya va javobgarlik masalalarining inobatga olinganligi;

- Davlatning iqtisodiy - ijtimoiy, siyosiy - madaniy rivojlanishidan qat'iy nazar, insonlarning kelgusida da'vo qilish huquqlarini vujudga keltirish maqsadida ham milliy indikatorlarni yaratilganligi.

Mazkur zaruriy talablarning davlat tomonidan to'liq bajarilishi ushbu davlatda inson huquqlarini hurmat qilish va ta'minlashga bo'lgan e'tibor yuksak baholanishi bilan bir qatorda, uning xalqaro indekslardagi o'rni va nufuzini yuksaltirishga ham xizmat qiladi.

Davlat tomonidan indikatorlarni shakllantirishdagi eng muhim vazifalardan biri bu statistik ma'lumotlarning haqqoniyligini baholashdir.

Tadqiqotchi olim Emad Omar bu borada "Inson huquqlarini targ'ib qilish va himoya qilishda biz qilishimiz kerak bo'lgan eng muhim vazifa statistik ma'lumotning yolg'on yoki haqiqatligini aniqlashdir. Bu bor raqamlar dunyoni boshqaradi (Gyotedan iqtibos keltirar ekan), raqamlar bizga yaxshi va yomon holatni ko'rsatib berishiga men ishonaman" deb ta'kidlaydi<sup>41</sup>.

Darhaqiqat, statistik ma'lumotlarning to'g'ri yuritilishi mavjud vaziyatni haqqoniy baholashga va oqsayotgan sohalarda samarali islohotlarni olib borishga xizmat qiladi.

---

<sup>41</sup> Senior Adviser to the Search for Common Ground, Middle East Program, Jordan, in his address at the Montreux Conference on "Statistics, Development and Human Rights", September 2000.

Afsuski, har doim ham davlatlar tomonidan statistik ma'lumotlarning yuritilish to'g'ri baholab borilgan deb ayta olmaymiz. Ayniqsa, inson taraqqiyotining turli davrlarida sodir etilgan ommaviy qirg'inlar, qurolli mojarolar va urushlar masalasida davlatlar statistik ma'lumotlarni o'z manfaatlariga moslashtirishga urunganlar.

Bu borada tadqiqotchi olimlar Seltzer va Anderson tomonidan olib borilgan izlanishlarda, ikkinchi jaxon urushi davrida Yevropaning qator davlatlari, jumladan, Fransiya, Germaniya, Niderlandiya, Norvegiya, Polsha va Ruminiya natsislarning yahudiylarni ta'qib qilishiga yordam berish maqsadida aholini ro'yxatga olish tizimini va statistik ma'lumotlarni soxtalashtirib ko'rsatishganligi, bu kabi holatlar AQSHda tub joy aholisiga nisbatan sodir etilgan repressiyalarda ham kuzatilganligi, Sobiq ittifoq davlatlarida majburiy migratsiya (aholini surgun qilish, ko'chirib yuborish) jarayonlarini ifodalovchi statistik ma'lumotlarni yuritilishida, Belgiya tomonidan Ruandadagi xutu va tutsi qabilalariga nisbatan mustamlaka ma'muriyati qo'li bilan sodir etilgan ommaviy qotilliklarni qayd etilgan statistik ma'lumotlarni yuritishda ham soxtalashtirishga yo'l qo'yilganligini ta'kidlaydilar<sup>42</sup>.

Tadqiqotchilar, ma'lumotlarni soxtalashtirishning asosiy sababini mafkuraviy bo'shliq, irqchilik, qo'rquv tufayli bo'ysunish, byurokratik to'siqlarning mavjudligi yoki shaxsiy g'arazninig mavjudligi bilan izohlaydilar va kelgusida bu kabi salbiy holatlar soni ortishini oldini olish maqsadida davlatlarga o'zlarining uslubiy, huquqiy tavsiyalarini beradilar. Jumladan:

- Ma'lum holatni ro'yxatga olish o'rniga, namunaviy so'rovnomalardan foydalanish, so'rovnoma javoblarini guruhlariga ajratilishi, shaxsga xos identifikatorlar bo'lishi va respondentlarning shaxsi himoya qilinishi;

- Statistik ma'lumotlarni to'planishini markazlashtirmaslik va ma'lumotlar saqlanadigan joylar o'rtasida o'zaro "kop'rik fayli"ni yo'lga qo'yish, bunday joylar

---

<sup>42</sup> W. Seltzer and M. Anderson, "The dark side of numbers: the role of population data systems in human rights abuses", *Social Research*, vol. 68, No. 2 (summer 2001).

ta'sir etish mumkin bo'lgan davlat organlari, ya'ni mahalliy sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar yuridiksiyasidan tashqarida bo'lishi kerakligi;

- Statistik tizimda saqlanayotgan ma'lumotlarning maxfiyligi qonun bilan ta'minlanishi (zamonaviy standart talablari);

- Davlat tomonidan Xalqaro Statistika Institutining (ISI) Kasbiy etikasi qabul qilinishi va ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanishni oldini olishga yordam beruvchi insitutsional asosni yaratish.

Davlar tomonida indikatorlarni shakllantirishdagi yana bir eng muhim vazifa bu disaggregatsiya (taalluqlilik) masalasini hal etishdir.

**Disaggregatsiya** – jinsi, yoshi, hududiyli (masalan shahar yoki qishloq), ijtimoiy-iqtisodiy holati (masalan ish bilan band yoki ishsiz), etnik kelib chiqishiga qarab indikatorlarni belgilash.

Disaggregatsiya masalasini hal etish muayyan toifa vakillarining huquq va manfaatlarini himoya qilinishini inobatga olib, ularning huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita buzilishini oldini olishga xizmat qiladi<sup>43</sup>.

Shuningdek, mazkur holatda qaror qabul qilishda mas'ul shaxslar tomonidan diskriminatsiya (kamsitilish) holatlariga (masalan, muayyan toifa vakillariga nisbatan kamroq huquq va imtiyozlar berilganligini ta'kidlab) yo'l qo'yilmasligi lozim<sup>44</sup>.

Inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlar tomonidan disaggregatsiyaning kamsitilish holatlari ro'yxatiga insonlarning jinsi, yoshi, iqtisodiy-ijtimoiy holati, irqi, rangi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, tug'ilishi, nogironligi, salomatlik holati, fuqaroligi, oilaviy ahvoli, jinsiy orientatsiyasi, jinsiy o'ziga xosligi, yashash joyi va boshqa belgilari kiritilgan.

---

<sup>43</sup> For example, the Special Rapporteur on contemporary forms of racism, racial discrimination, xenophobia and related intolerance has used surveys and disaggregated indicators to highlight the marginalization of minorities in access to education, employment, health and housing in Japan (E/CN.4/2006/16/Add.2).

<sup>44</sup> In some cases, disaggregation by region or administrative unit might provide proxy information on the situation of ethnic groups.

Ko'pgina xalqaro jamiyatlar inson huquqlariga doir indikatorlarni shakllantirishda ma'lumotlarni to'plash vositalari sifatida o'zlarining tajribalarini jaxon hamjamiyatiga taqdim etdilar.

Masalan, Osiyo jamg'armasi tomonidan "Shri-Lankadagi siyosiy va etnik zo'ravonlik xaritasini tuzish" loyihasida fuqarolik jamiyati institutlari yordamidan foydalanish orqali inson huquqlari buzilishi holatlarini aniqlash ma'lumotlarni to'plashning muhim manbai bo'lib xizmat qilgan.

Biroq, shuni ta'kidlash lozimki fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan taqdim etilgan xabarlar har doim ham ishonchli bo'lavermasligi, o'z tasdig'ini topmasligi, vaqt va makon bo'yicha resurslarning yetarli bo'lmasligi sababli ma'lumotlar to'plashning muqobil variant sifatida e'tirof etildi.

Albatta, davlat tomonidan milliy indikatorlarni yaratishda faqatgina xalqaro standart talablarini bajarish bilan kifoyalanmasdan, uni yaratishning zarurati va afzalliklari, qanday hodisani baholashga xizmat qilishi, bu orqali kutilayotgan natija, aholi turmush tarzini yaxshilashga xizmat qilish darajasi va boshqa hususiyatlarini ham inobatga olish lozim.

**Xulosa o'rnida ta'kidlash lozim**, har bir davlat tomonidan inson huquqlarini ta'minlashda nafaqat milliy huquq normalarini, balki ushbu normalarda sanab o'tilgan huquq va burchlarning o'ziga xos hususiyatlari darajasini belgilab beruvchi milliy indikatorlarni shakllantirish *birinchidan*, mukammal huquq normasini yaratishga xizmat qiladi; *ikkinchidan*, davlatda inson huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmi ishlab chiqiladi; *uchunchidan*, davlatning xalqaro indekslardagi nufuziga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Aniqroq qilib aytganda, inson huquqlari sohasidagi indikatorlar mazkur sohada jamiyatdagi real holatni davlat tomonidan baholash va monitoring qilish mexanizmini yaratilishiga xizmat qiladi.



## **II БОБ. INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BO'YICHA XALQARO AMALIYOT VA XORIJIY MAMLAKATLAR TAЖRИБАСИ.**

### **2.1. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy, xorijiy va xalqaro indikatorlar qiyosiy tahlili.**

Barchamizga ma'lumki, har bir davlat tomonidan mamlakatning ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy - madaniy va boshqa sohalarini rivojlantirishda xalqaro va rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va bu boradagi ijobiy tajribalarni milliy boshqaruv tizimiga joriy etish bugungi kun siyosatining asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, huquq normalarini takomillashtirib borish, inson huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan milliy huquq normalarini xalqaro norma talablariga muvofiqlashtirish jarayonlari ham bevosita xalqaro va xorijiy mamlakatlar amaliyotini muntazaam o'rganib borish zaruratini taqozo etadi.

Tadqiqot ishining mazkur bo'limida inson huquqlari sohasida xalqaro tashkilotlar va rivojlangan xorijiy mamlakatlarda sohaga doir indikatorlarni shakllantirish tartibi, bu boradagi jarayonlar va metodlarning o'ziga xos xususiyatlari, ijobiy va salbiy tomonlari nazariy jihatdan tahlil etilib, afzallik xususiyatlarini milliy tizimga implementatsiya qilish bo'yicha asoslantirilgan taklif va tavsiyalar beriladi.

BMTning Inson huquqlari Qo'mitasi tomonidan davlatlarning inson huquqlarini ta'minlash sohasidagi faoliyatini baholashda inson huquqlari bilan bevosita bog'liq 16 ta asosiy indikatorni shakllantirilganlik darajasini belgilaydi<sup>45</sup>(standart indikatorlar).

Mazkur standart indikatorlar doirasida davlatlar tomonidan o'zlarining milliy indikatorlar tizimi yaratiladi (bilvosita indikatorlar). Bilvosita indikatorlar standart indikatorlar mazmuniga muvofiq bo'lishi lozim.

Standart indikatorlar quyidagilardir:

---

<sup>45</sup> Office of the High Commissioner for Human Rights (OHCHR), Human Rights Indicators: A Guide to Measurement and Implementation (2012)

1. Davlat tomonidan inson huquqlariga doir 18 ta xalqaro hujjatni ratifikatsiya qilinishi darajasi.
2. Reprodukativ salomatlikning jinsiy va milliy qamrov darajasi.
3. Konstitutsiya va qonunlarda ta'lim olish huquqining kafolatlanganligi va ta'lim qamrovi darajasi.
4. Barcha uchun boshlang'ich va bepul ta'lim tamoyilga asosan davlat tomonidan harakat rejasi ishlab chiqilganligi, muddati va qamrovi darajasi.
5. Inson huquqlari sohasida faoliyat olib boruvchi milliy institutlarni ro'yxatdan o'tganligi va faoliyati darajasi.
6. Majburiy mehnatga barham berish bo'yicha hukumatning BMT bilan samarali aloqalari darajasi (aniqlashritilgan yoki yopiq).
7. Qiynoqqa solish, shavqatsiz, g'ayrinsoniy yoki qadr-qimmatni kasituvchi muomala yoki jazo turlarini qo'llash bo'yicha tekshirishlar va sud hukmlari soni, bu haqda ombudsman va hukumat idoralariga kelib tushgan murojaatlarning samarali o'rganilganlik darajasi yoki bu kabi murojaatlarning ko'rib chiqilmaslik xolati.
8. Ichki ishlar organlariga kelib tushgan jinoyat haqidagi xabarlar soni.
9. Malakali tibbiyot xodimlarining tug'ilish holatida ishtiroki darajasi.
10. Aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik ulushi.
11. Boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim va xususiy ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilar umumiy soniga nisbatan pedagoglar ulushi.
12. Har 100.000 aholi nisbatida qotillik (qasd yoki ehtiyotsizlik) ulushi.
13. Majburiy ko'chirish holatlari qayd etilish darajasi.
14. Nogironligi bo'lgan ayblanuvchi shaxslarning tergov va sudda o'zlari tanlagan vakil yoki advokat bilan ishtirok etishi, ularga nisbatan jazo turlari va muddatlari qonuniy ta'minlanganligi darajasi.
15. Chaqaloqlar o'limi darajasi.
16. Har 100 ming aholi nisbatida uysizlar soni.

Ma'lumki, Finlandiya davlati inson huquqlari indeksida yuqori o'rinlarni band etgan dunyo mamlakati sifatida e'tirof etiladi. 2021 yilda "Friedrich Naumann Foundation for Freedom" fondi qoshidagi "Liberalis Institut" tomonidan nashr etilgan manbaada Cato instituti tomonidan o'tkazilgan "Inson Ozodligi" indeksiga ko'ra 165 mamlakat orasida Finlaniya 7 o'rinni<sup>46</sup>, "the GlobalEconomy.com" talqiniga "Inson huquqlari va huquq ustuvirligi" indeksida 173 mamlakat orasida 4 o'rinni<sup>47</sup>, BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari" indeksiga 193 mamlakat orasida 1 o'rinni<sup>48</sup> qayd etgan.

Finlandiyada inson huquqlari indikatorlarini yaratishning asosiy tamoyili bu diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslikdir. Davlat tomonidan monitoring ob'ektlari va indikatorlari 9 ta guruhga bo'lingan. Ya'ni:

- Shaxsiy erkinlik, daxlsizlik va yashash huquqi;
- Huquqiy himoya va sifatli boshqaruv;
- Shaxsiy va oilaviy hayot daxlsizligi;
- So'z, fikr, e'tiqod va din erkinligi;
- Til va madaniyat erkinligi;
- Yashash va munosib mehnat qilish uchun sharoit yaratish;
- Ta'lim;
- Salomatlik, farovonlik va atrof-muhitga bo'lgan huquq;

Mazkur indikatorlar tushunarli va sodda ifodalanishi negizida xalqaro standart indikatorlatni o'zida mujassam etgan qator bilvosita indikatorlarga ajratilib inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning barcha sohalarini to'liq qamrab oladi. Ko'rsatkichlarni yaratish jarayoni ochiq, shaffof va interaktiv usulda tashkil etilib, yakuniy jarayonlar BMT shartnomaviy qo'mitalarining tavsiyalariga asosan qonun chiqaruvchilar, Konstitutsiyaviy qo'mita a'zolari va ekspert ishchi guruh vakillari bilan muhokamaga qo'yilgan savollarga javob topish hamda yakuniy hulosaga kelishga asoslanadi<sup>49</sup>.

---

<sup>46</sup> <https://worldpopulationreview.com>

<sup>47</sup> <https://www.theglobaleconomy.com>

<sup>48</sup> <https://dashtboards.sdgindex.org>

<sup>49</sup> <https://oikeusministerio.fi>

So'nggi yillarda Turkiya davlati ham inson huquqlarini himoya qilish sohasida samarali islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bu borada milliy indikatorlarni ishlab chiqishga, ayniqsa shahar aholisi sonining migrantlar hisobiga tobora ortib borishi natijasida, shaharda turli zo'ravonlik, irqiy kamsitish, aholi o'tasida ishsizlikning kuchayishi kabi salbiy omillarni oldini olish zarurati sifatida qaraldi. Natijada Turkiya hukumati tomonidan shaharlarda inson huquqlari bilan bog'liq muammolarni tartibga solishga qaratilgan "Human Right cities Project" loyihasi yaratildi.

Mazkur lohiyaning inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi afzalliklari talaygina, biroq biz asosiy mavzudan chetlashmagan holda mazkur loyihadagi inson huquqlari sohasidagi indikatorlar masalasiga alohida to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Ushbu loyiha doirasida:

- Umumiy inson huquqlari indikatorlari;
- Gender tengligi indikatorlari;
- Bola huquqlari indikatorlari;
- Nogironligi bo'lgan shaxslar indikatorlari;
- Qariyalar indikatorlari;

- Boshpana indikatorlari kabi 6 ta fundamental indikatorlar asosida, jami 412 ta bilvosita indikatorlar ishlab chiqilidi va mazkur indikatorlarga e'tibor qaratganimizda ularga dissaggregatsiya holatlarini yaqqol ko'rishimiz mumkin bo'ladi<sup>50</sup>.

Mazkur loyihani ishlab chiqishda, jamoat institutlari, nodavlat va notijorat tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar, ilmiy idora va mahalliy munitsipalitetlar ishtirok etdilar. Biroq, mazkur loyiha Turkiya davlati milliy mnfaatlaridan kelib chiqib yaratilganligini e'tibordan qochirmaslik lozim.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizi qishloq joylarida istiqomad qilishini<sup>51</sup> inobatga olasak, mazkur loyihani mamlakatimiz hayotiga tadbiiq etish qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

---

<sup>50</sup> Human rights cities indicators. 2021 y Istanbul. Raoul Wallenberg institute. [www.rwinstanbul.org](http://www.rwinstanbul.org)

<sup>51</sup> <https://stat.uz>

Yana bir inson huquqlari ta'minlash bo'yicha xalqaro indekslarda yuqori o'rinlarda turuvchi Yevropa mamlakatlaridan biri bu Norvegiyadir. 2021 yilda "Cato institute" tomonidan o'tkazilgan "Inson Ozodligi" indeksiga ko'ra Norvegiya 165 mamlakat orasida 13 o'rinni<sup>52</sup>, "the GlobalEconomy.com" talqiniga ko'ra "Inson huquqlari va huquq ustuvorligi" indeksida 173 mamlakat orasida 1 o'rinni<sup>53</sup>, BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari" indeksiga 193 mamlakat orasida 17 o'rinni<sup>54</sup>, "KidsRights Index" talqiniga ko'ra 182 davlat orasida 14 o'rinni qayd etgan<sup>55</sup>.

Norvegiyaning inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi eng katta ustuvor jihati mamlakatda faoliyat yuritayotgan barcha korporativ tashkilotlarda inson huquqlarini hurmat qilish tamoyilini joriy etgani bilan izohlanadi. Har bir korporativ tashkilotlarda kasaba uyushmalari samarali faoliyat olib borib, inson huquqlari ta'minlanishi darajasini sifat va miqdoriy indikatorlar yordamida muntazaam baholab boradilar va har bir korporatsiya rahbari muayyan mehnat munosabatlarida kasba uyushmalari bilan kelishishga majburdir.

Davlat korporatsiyalar tomonidan inson huquqlari ta'minlanayotganligi holatini mustaqil baholashlari maqsadida "Global Report Initiative" dasturini qo'llab-quvvatlaydi va buning uchun ularni rag'batlantirib boradi<sup>56</sup> (A, B, C darajadagi inson huquqlari taminlangan korxonalar).

Norvegiya bola huquqlarini ta'minlash sohasida xalqaro standartlar asosida 25 ta asosiy indikatorlarni ishlab chiqdi. Bular, hayotdan qoniqish, salomatlik, qashshoqlik darajasi, ta'lim, huquqlarni himoya qilish, ozodlik, kamsitilmaslik, mas'uliyatlilik, davlat hayotida ishtiroki darajasi, keraksiz jinsiy e'tibor darajasi, internetda zo'ravonlik qurboni bo'lish, qotilliklardagi ulushi kabi indikatorlardir.

---

<sup>52</sup> <https://worldpopulationreview.com>

<sup>53</sup> <https://www.theglobaleconomy.com>

<sup>54</sup> <https://dashboards.sdindex.org>

<sup>55</sup> Quantitative data published and regularly updated by UNICEF [www.data.unicef.org](http://www.data.unicef.org) UNDP [www.hdr.undp.org/data](http://www.hdr.undp.org/data)

<sup>56</sup> <https://www.globalreporting.org>

Inson huquqlari sohasida xalqaro hujjatlarni jadallik bilan ratifikatsiya qilayotgan davlatlardan yana biri bu Ozarbayjondir. Bugungi kunga qadar Ozarbayjon 18 ta xalqaro hujjatning 17 tasini ratifikatsiya qilgan<sup>57</sup>.

Ozarbayjonda 2017 yidan buyon aholining kam ta'minlangan qismi, kambag'al toifalari, nogironlar, gender asosida zo'ravonlik qurboni bo'lgan shaxslarga davlat tomonidan bepul yuridik yordam korsatib kelinmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlarini inson huquqlari sohasida milliy mexanizmlarni yaratishga safarbar qildi va hattoki, ushbu jamiyatlar tomonidan so'z erkinligi, sud mustaqilligi, ig'ilshlar o'tkazish erkinligi bo'yicha tayyorlangan hisobotlar to'g'ridan-to'g'ri BMTning Inson huquqlari qo'mitasi va boshqa xalqaro tashkilotlarga taqdim etildi.

So'nggi yillarda esa, fuqarolik jamiyati institutlarining tashabbusi bilan BMT va Ombutsman hamkorligida nodavlat notijorat tashkilotlar va advokatlarni o'qitish tizimi joriy etilib, ularni inson huquqlari tamoyillari va mexanizmlari bo'yicha bilim salohiyati oshirib kelinmoqda<sup>58</sup>.

Ozarbayjoning gender tengligini ta'minlash bo'yicha indikatorlarni shakllantirish siyosatini alohida e'tirof etish lozim. Ozarbayjon "Ayollarga nisbatan kamsitilishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya" talablari va BMTning tavsiyalari asosida xotin- qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini tartibga solisha qaratilgan Masalan:

- Abort darajasi (qishloq va shaharda, yoshi, oliyaviy ahvoli, bola soni);
- Onalar o'limi koeffitsenti (qisloq va shaharlarda, oilaviy ahvoli, yoshi);
- Homiladorlik davrida kamida 4 marotaba antenatal markazlarga borgan ayollar ulushi;
- Jismoniy, jinsiy zo'ravonlikka duch kelgan 15–49 yoshli ayollar ulushi;
- Ayollarni ta'lim olishida to'siqlarning mavjudligi darajasi va boshqa shu kabi 100 dan ortiq indikatorlar tizimi yaratildi<sup>59</sup>.

---

<sup>57</sup> <https://indicators.ohchr.org>

<sup>58</sup> <https://ohchr.org>

<sup>59</sup> E.Sulaymanova. Assessment of the implementation status of treaty body recommendations on sexual and reproductive health and right in the Republic of Azerbaijan. Baku 2015.

Rivojlangan mamlakatlar orasida Germaniya davlati bu borada alohida o'rin tutadi. Germaniya hukumati 2016 yilda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi 50 foiz kompaniyalarda xodimlar soni kamida 500 nafarni tashkil etishiga erishish maqsadini belgilab oldi. Bu orqali, inson huquqlarini yirik kompaniyalar uchun belgilangan 12 ta indikator asosida ta'minlash, nisbatan samarali va oson edi.

Avvaliga, ushbu indikator asosida 20 ta yirik kompaniyada o'tkazilgan baholashda, faqatgina Siemens va Daimler kompaniyalari etarlicha talabga javob bera oldi. Biroq, keyinchalik boshqa yirik kompaniyalar ham bu borada ishlarni yo'lga qo'yish orqali inson huquqlarini hurmat qilishga jiddiy e'tibor qarata boshladi.

Mazkur indikatorlar quyidagilardir:

**Boshqaruv bo'yicha:**

- A.1.1 Inson huquqlarini hurmat qilish majburiyati;
- A.1.2 Ishchilar huquqlarini hurmat qilish majburiyati;
- A.1.3 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish (fuqarolar bilan);
- A.1.4 Yo'l qo'ygan kamchiliklarni tuzatish majburiyati;

**Inson huquqlari masalasida mas'uliyatli bo'lish bo'yicha:**

- B.1.1 Inson ehtiyoji uchun kundalik resurlarni yaratish va huquqlar buzilganda javobgarlikni belgilash;
- B.1.2 Inson manfaatiga ta'sir etuvchi xavf va salbiy holatlarni aniqlash;
- B.1.3 Aniqlangan xavf va salbiy holatlar darajasini baholash;
- B.1.4 Baholash natijalarini imkon qadar kamaytirish bo'yicha chora ko'rish;
- B.1.5 Inson manfaatlariga ta'sir etuvchi omillarni muntazam kuzatib borish;

**Huquqiy himoya vositalari va shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha:**

- C.1.1 Ishchilarning shikoyatlarini qabul qilish mexanizmlari samaradorligi;
- C.1.2 Tashqi shaxslar (masalan, ishchilar oila a'zolari) va tashkilot (masalan, bandlik organi)lar murojaatlarini qabul qilish mexanizmi samaradorligi;
- C.1.3 Salbiy ta'rirlarni bartaraf etish va natijalarni umumlashtirish<sup>60</sup>.

---

<sup>60</sup> Author Herbert Winisto'rfer. Business & Human Rights Resource Cente: "Respect for Human Rights: a snapshot of the larges German Companies".Full Report -2019.

Inson huquqlari sohasida xorijiy mamlakatlar tajribasi haqida gapirganimizda Isroil davlatini alohida e'tirof etish lozim. Ayni vaqtda "Inson Ozodligi" indeksiga ko'ra, Isroil 165 mamlakat orasida 63 o'rinni qayd etib 2021 yilga nisbatan 14 pog'onaga yuqorilagan bo'lsa<sup>61</sup>, "the GlobalEconomy.com" talqiniga ko'ra 2021 yilda "Inson huquqlari va huquq ustuvorligi" indeksida 173 mamlakat orasida 33 o'rinni band etib 2020 yilga nisbatan 73 pog'ona yuqorilagan<sup>62</sup> (Osiyo davlatlari orasida 1 pog'ona). "Barqaror rivojlanish maqsadlari" indeksida 193 mamlakat orasida 38 o'rinni band etib, 2019 yilga nisbatan 11 pog'onaga yuqorilagan<sup>63</sup>.

Bu kabi ulkan yutuqqa Isroil hukumati Falastin bilan o'zaro munosabatlarda huquqni muhofaza qiluvchi organ tizimida samarali islohotlarni olib borish, majburiy mehnat va bolalar mehnatining taqiqlangan shakllariga qarshi kurashish bo'yicha indikatorlarni yaratish, qamoqxonalarda sharoitlarni yaxshilash, o'zboshimchalik bilan hibsga olish holatlariga barham berish, fuqarolik sudlarda kompensatsiya va jinoyat oqibatida etkazilgan zararni undirish institutlarini takomillashtirish, so'z erkinligini ta'minlash va shu kabi inson huquqlari tamoyillarini belgilovchi siyosati tufayli erishdi.

Isroil davlati gender tengligini ta'minlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratdi. Bu borada, ayollarning siyosiy va korporativ faolligini oshirish, gender ish haqi farqlari, huquqiy yordam ko'rsatishda ayollar ulushi, tug'ruq ta'tillariga chiqishi masalalarida indikatorlar yaratilgan.

Isroilda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash darajasini baholovchi aniq indikatorlar yaratilmagan, biroq asosiy kundalik vazifasini bajaruvchi tashkilotlarning hisobotlari asosida ushbu daraja o'lchanadi. Biroq, "JDC-Israel" (Jewish Joint Distribution Committee) dasturi ko'rsatkichlari asosida aholi vakillari orasida nogironlarni ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha turli so'rovnomalar o'tkazib boriladi<sup>64</sup>.

---

<sup>61</sup> <https://worldpopulationreview.com>

<sup>62</sup> <https://www.theglobaleconomy.com>


<sup>63</sup> <https://dashtboards.sdgindex.org>

<sup>64</sup> Authored by: LBarlev, Y.Pur, Y.Bachar. People with Disabilities in Israel 2021 Facts and Figures. Jerusalem 21




Inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro indikatorlar qator indeks va xalqaro dasturlarda ham o'z aksini topgan.

Masalan, “2030 yilga qadar Barqaror rivojlanish maqsadlari” dasturida nazarda tutilgan (SDG) indikatorlarning aksariyati inson huquqlarini ta'minlashni nazarda tutadi. SDG indikatorlari jami 232 ta maqsadni va 70 dan ortiq inson huquqlari standartlarini o'zida jamlagan.




“2030 yilga qadar Barqaror rivojlanish maqsadlari” 17 ta maqsad asosida mamlakatlar yuksalishini belgilab beruvchi xalqaro dasturdir. Mazkur dasturning barcha maqsadlarida inson huquqlari indikatorlari belgilangan. Jumladan, sog'liq va farovonlik (3-maqsad) sohasida 27 ta, sifatli ta'lim (4-maqsad) sohasida 17 ta, Gender tengligi sohasida (5-maqsad) 14 ta va tinchlik, adolat va samarador institutlari (16-maqsad) sohasida 16 ta inson huquqlariga doir indikatorlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022 yildagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-sonli Qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan milliy maqsad va vazifalar ro'yxatida belgilangan maqsadlar soni 17 emas 16 ta bo'lib (14-maqsad ya'ni suv (dengiz) osti hayotini tartibga solish) , jami 122 ta vazifa (indikator)ni qamrab oladi va mazkur vazifalarning 90 foizdan ortig'i inson huquqlari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.<sup>65</sup>



**Barqaror rivojlanish maqsadlari holati (2020 holatiga)**



**Maqsadlarni bajarilishi bo'yicha o'sish dinamikasi (2021 holatiga)**

Mamlakatimizda "Barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasida inson huquqlarini himoya qilish sohasi sezilardi darajada rivojlanayotgan bo'lsada, bu borada ayrim ishlarni amalga oshirish lozimligi BMT tomonidan ta'kidlangan<sup>66</sup>. Jumladan:

- Xalqaro standart talablari doirasida qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- Barcha sohalarda kamsitilishlarga barham berish (qonunchilik zarurati);
- Sud hokimiyati va advokatlar palatasi mustaqilligini ta'minlash;

<sup>65</sup> <https://www.undp.org/content/undp/en/home/blog/2019/humanrights-and-the-sdgs-two-sides-of-the-same-coin>.

<sup>66</sup> The list below highlights priority recommendations from the Human Rights Committee's Concluding observations on the fifth periodic report of Uzbekistan on the International Covenant on Civil and Political Rights

- Din va e'tiqod erkinligini ta'minlash maqsadida cheklovlarni olib tashlash.

Inson huquqlarini sohasidagi indikatorlar haqida so'z yuritganda, "huquq ustuvorligi" indeksi doirasida "World Justice Project" xalqaro baholash markazi faoliyatini alohida ta'kidlash lozim, Chunki, aynan mazkur indeks doirasida BMT fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy va boshqa tabiiy huquqlarini davlat tomonidan ta'minlanganlik darajasini baholovchi 135 ta indikator va subindikatorlarni belgilab beradi<sup>67</sup>.

"World Justice Project" xalqaro baholash markazi tomonidan mazkur indikatorlar 8 ta asosiy faktorlar doirasida taqsimlanadi. Ya'ni;

1. Hukumat vakolatlarini amalga oshirishda cheklovlar mavjudligi;
2. Davlatning korrupsiyadan holiligi;
3. Davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi;
4. Fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari;
5. Fuqarolarning xavfsizligi ta'minlanganligi;
6. Normativ hujjatlarga amal qilinishi holati;
7. Fuqarolik sudlari va fuqarolik ishlarining holati;
8. Jinoyat sudlari va jinoyat ishlarining holati<sup>68</sup>.

Mazkur yo'nalishlarning aksariyatida fuqarolarning huquqlarini kafolatlanganlik darajasini baholovchi indikatorlar keltirilgan. Masalan, 3-yo'nalish (davlat idoralari faoliyatining ochiqligi) fuqarolarning davlat idoralaridan ma'lumotlarni olish erkinligi, fuqarolarning davlat hayotida ishtiroki, murojaat qilish mexanizmi va e'lon qilingan qonunlar va hukumatga nisbatan munosabati kabi 4 ta indikatorni qamrab oladi.

E'tiborlisi, mazkur indeks ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslarning xalqaro standartlar doirasida huquqlari ta'minlanayotganligi, ular uchun zarur shart-sharitlar yaratilganligi, himoyaning samarali mexanizmidan foydalanayotganligi bilan bog'liq holatlarni ham baholaydi.

---

<sup>67</sup> The United Nations Rule of Law Indicators Implementation Guide and Project Tools. First edition 2011. <http://www.ohchr.org>

<sup>68</sup> World Justice Project "Rule of Law Index 2021" Copyright 2021. [worldjusticeproject.org](http://worldjusticeproject.org).

Albatta, mamlakatimizda ham so'nggi yillarda "huquq ustuvorligi" indeksi doirasida indikatorlarni ishlab chiqish va xalqaro vakolatli tashkilotlarga hisobotlarni taqdim etish bo'yicha normativ asoslar yaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2021 yildagi "O'zbekiston Respublikasida huquq ustuvorligini ta'minlash holatini aniqlashning samarali mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4951-sonli Qarori qabul qilinib, unda mamlakatda huquq ustuvorligini ta'minlash bo'yicha 7 ta yo'nalish doirasida (fuqarolik, jinoyat sud ishlari 1 ta yo'nalish) 32 ta indikator, 82 ta subindikator va ushbu doirada baholash me'zonlari batafsil ko'rsatilgan<sup>69</sup>.

Unga ko'ra, hududlarning "huquq ustuvorligi" darajasini baholash so'rovlar o'tkazish va statistik natijalarni baholash orqali amalga oshirilishi ta'kidlangan. Mazkur qarorning o'ziga xos muhim hususiyatlaridan biri sifati ushbu indikatorlar doirasida baholash mezonlarining aniq ishlab chiqilganligidadir. Masalan,

So'rov asosida shakllantiriladigan baholash mezonlari quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$M_q = ((Q_j / R_j) + \dots + (Q_{j_n} / R_{j_n})) / S_n$$

$M_q$  — baholash mezoni uchun berilgan o'rtacha ball;

$Q_j$  — birinchi savol bo'yicha berilgan jami ballar yig'indisi;

$R_j$  — birinchi savolga javob bergan jami respondentlar soni;

$Q_{j_n}$  — har bir savol bo'yicha jami ballar yig'indisi;

$R_{j_n}$  — har bir savolga javob bergan jami respondentlar soni;

$S_n$  — so'rovda berilgan jami savollar soni.

Statistik ko'rsatkichlar asosida baholash mezonlari esa indikatorlarning hususiyati, maqsad va vazifalaridan kelib chiqib o'ziga xos baholash mezonlari asosida hisoblanadi. Aytish mumkinki, mazkur milliy indikatorlar xalqaro "huquq ustuvorligi" darajasini baholovchi tashkilotlar standartlariga to'liq munosib bo'lib, bu borada inson huquqlarini baholovchi barcha me'zonlarni qamrab oladi.

---

<sup>69</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2021 yildagi "O'zbekiston Respublikasida huquq ustuvorligini ta'minlash holatini aniqlashning samarali mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4951-sonli Qarori 2-ilovasi


# Uzbekistan

Region: Eastern Europe and Central Asia  
Income Group: Lower-Middle

The scores range from 0 to 1, where 1 signifies the highest possible score and 0 signifies the lowest possible score.

Overall Score	Regional Rank	Income Rank	Global Rank
0.49	10/14	11/35	85/139
Score Change	Rank Change		
0.02▲	14▲		








	Factor Score	Score Change	Regional Rank	Income Rank	Global Rank
 Constraints on Government Powers	0.38	0.05*	10/14	25/35	121/139
 Absence of Corruption	0.46	0.05*	6/14	4/35	70/139
 Open Government	0.37	0.03*	13/14	27/35	122/139
 Fundamental Rights	0.44	0.03	11/14	18/35	109/139
 Order and Security	0.90	0.00	1/14	1/35	16/139
 Regulatory Enforcement	0.44	0.00	11/14	20/35	104/139
 Civil Justice	0.50	-0.01	7/14	8/35	78/139
 Criminal Justice	0.45	0.01	5/14	5/35	67/139



\* Indicates statistically significant change at the 10 percent level

Low Medium High

Uzbekistan Eastern Europe and Central Asia Lower-Middle



Bugungi kunda qator xalqaro indekslar, jumladan “Global Rights Index”, “Human Freedom Index”, “Human Development Index”, “Political Stability and Absence of violence /terrorism Index” “Voice and Accountability” “Democracy Index” va boshqa indekslarda ham inson huquqlari sohasidagi indikatorlar belgilanib, davlatlarning xalqaro maydondagi o‘rnini belgilab kelmoqda.

Afsuski, bugungi kunda mamlakatimizda mazkur xalqaro indekslar doirasida indikatorlar tizimi to‘liq shakllantirilmagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.02.2020 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF-6003-sonli Farmoniga ko‘ra ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy reyting va indekslarning Kengash ishchi organlari bo‘yicha taqsimoti tuzilib, unda 14 ta ijtimoiy-iqtisodiy soha indekslari bo‘yicha Moliya vazirligi va 12 ta siyosiy-huquqiy soha indekslari bo‘yicha Adliya vazirligi mas’ul sifatida belgilab berildi.

To‘g‘ri mazkur farmonda ayrim tarkibiy indikatorlarning nomlanishi haqida so‘z yuritiladi, biroq ushbu indikatorlar tizimi, amalga oshirilish mexanizmi, qanday mezonlarni qamrab olishi, qanday turdagi indikatorni tashkil etishi masalalariga aniqlik kiritilmasdan qolgan.

Mazkur farmon bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o‘rnini yaxshilash uchun mas’ul davlat organlari ro‘yxatining 7-bandi, Inson kamoloti indeksi (Human Development Index) deb nomlanib, atigi 3 ta indeks ya’ni kutilayotgan umr ko‘rish, ta’lim va daromad indekslaridan iboratligi belgilangan.

Vaholanki, Evropean University Institut rasmiy sahifasida va BMTning Rivojlanish dasturida (UNDP) “Human Development Index” doirasida 13 ta indeks va 171 ta indikator sanab o‘tilib, ushbu indikatorlarning 50 foizga yaqini inson huquqlari sohasidagi bevosita va bilvosita indikatorlar bo‘lib hisoblanadi<sup>70</sup>.

---

<sup>70</sup> <https://www.eui.eu>

Bu esa milliy huquq tizimida inson huquqlari sohasidagi milliy indikatorlar tizimini takomillashtirish zaruratini taqozo etadi.

Albatta, bu borada xorijiy mamlakatlar rivojlangan tajribasini o'rganish orqali, mukammal milliy huquq tizimini yaratish va bu orqali inson huquqlarini mamlakatda ta'minlanganlik darajasini xalqaro maydonda ko'rsatib berish davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlar tobora takomillashib bormoqda, xususan insonlarning raqamli huquqlardan foydalanishi, xalqaro migratsion munosabatlardagi o'zgarishlar, global iqlim o'zgarishlarida inson huquqlarini ta'minlash masalalari, insonlar tomonidan koinotni yangi nuqtalarini zabt etishga urinish bularning barchasi avvalo inson omili bilan bog'liq ekan, demak bu yangi vujudga kelayotgan huquqlar darajasini belgilab beruvchi indikatorlar davlar uchun har doim muhim ahamiyat kasb etaveradi.

Shunday ekan, bu borada huquq normalarini takomillashtirish orqali inson huquqlari ustuvorligini ta'minlash fuqarolar, davlat va jamiyat uchun birdek manfaatli bo'lishi lozim.



## **2.2. Inson huquqlari sohasida xalqaro baholash, reyting va indekslar nazariy tahlili.**

Ma'lumki har bir davlat uchun inson huquqlari sohasida milliy indikatorlarni yaratish va takomillashtirishining zarurati avvalo "inson – eng oliy qadriyat" sifatida davlat tomonidan uning huquqlarini davlat tomonidan kafolatlanishi taminlashga xizmat qilsa, yana bir tomondan davlatning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirishga, indekslardagi nufuzini oshirishga va demokratik tamoyillarga asoslangan milliy huquq normalarini shakllantirilishiga olib keladi.

Darhaqiqat, inson huquqlarini himoya qilishga doir xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilishdan asosiy maqsad ham aynan xalqaro majburiyatni bajarish orqali mamlakatda inson huquqlarini ta'minlash va bu amaliy ishlarni xalqaro maydonda ko'rsata olishdan iboratdir.

Mazkur bo'limda, inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlar tomonidan inson huquqlari sohasidagi indekslarda mamlakatlarning xalqaro maydondagi o'rni, bu borada amalga oshirilgan ishlar, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari bilan tanishamiz.

Inson huquqlari sohasidagi indekslar haqida gapirganimizda, "Global Rights Index", "Human Freedom Index", "Human Development Index", "Democracy Index", "Human Rights Watch Index", "Voice and Accountability Index", "Sustainable Development Goals Index" kabilarni ta'kidlamaslikning iloji yo'q.

Chunki aynan mazkur indekslar mamlakatlarda olib borilayotgan islohotlar, jarayonlar, o'zgarishlarni holisona baholashda BMT Inson huquqlari qo'mitasiga ko'maklashadi, ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanmalari va tavsiyalari orqali inson huquqlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni yaratishda davlatlarga ko'mak ko'rsatadi va eng muhimi, mazkur o'rganish natijalarini to'g'ridan - to'g'ri dunyo aholisi e'tboriga havola etib boradilar.

Quyida mazkur xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarning inson huquqlari indeksi bo'yicha baholash natijalari bilan tanishamiz.

“Human Freedom Index” talqiniga ko’ra har yili insonlarning shaxsiy va iqtisodiy huquqlari doirasida 82 ta indikator bo’yicha o’tkazilgan baholashda 2021 yilda 165 ta mamlakat ishtirokida statistik ma’lumotlar jamlandi va turli guruh vakillari o’rtasida so’rovnomalar tashkil etilib, mamlakatlarning bu boradagi reytingi tuzildi.

Afsuski, mazkur baholashda mamlakatimiz va bu boradagi natijalarimiz qayd etilmagan.

Davlat	Reyting	Shaxsiy Erkinlik	Iqtisodiy Erkinlik	Inson Taraqqiyoti Indeksi
<i>Shveysariya</i>	1	9.56	8.48	9.11
<i>Y.Zellandiya</i>	2	9.33	8.56	9.01
<i>Daniya</i>	3	9.56	8.17	8.98
<i>Estoniya</i>	4	9.48	8.11	8.91
....				
<i>Mayziya</i>	83	6.92	7.52	7.17
<i>Nepal</i>	84	7.41	6.71	7.12
<i>Indoneziya</i>	85	6.98	7.26	7.10
...				
<i>Sudan</i>	162	4.74	4.19	4.48
<i>Yaman</i>	163	3.11	5.45	4.08
<i>Venesuela</i>	164	4.90	2.83	4.03
<i>Suriya</i>	165	2.60.	5.19	3.66

**Shaxsiy erkinlik:** Odil sudlov huquqi, xavfsizlik huquqi, erkin harakatlanish huquqi, diniy e’tiqod erkinligi, uyushmalar va jamiyatlar tuzish erkinligi, fikr erkinligi, jinsiy daxlsizlik erkinligi.

**Iqtisodiy erkinlik:** hukumat kafolatlar, huquq va qonunlarga amal qilish darajasi, valyutaning qadri, xalqaro savdo erkinligi, tartibga solish (bizness) hajmi.

Osiyo qit’asi mamlakatlari orasida Yaponiya 15, Tayvan 19 va Janubiy Koreya 31 pog’onani, Markaziy Osiyoda dalatlari orasida Qirg’iziston 81, Qozog’iston 104 va Tojikiston 153 pog’onalarni band etgan<sup>71</sup>.

<sup>71</sup> The human freedom index 2021. Copyright © 2021 by the Cato Institute and the Fraser Institute. www.cato.org

“Human Development Index” tomonidan 2020 yilda 182 ta mamlakatda inson taraqqiyoti indeksi doirasida 20 ta indikator asosida baholash o‘tkazildi. Mazkur indikatorlar orasida inson huquqlarini ta’minlanganlik darajasini bevosita belgilab beruvchi gender tengligini ta’minlash, fuqarolar sog‘ligini saqlash, ta’lim tizimidagi yutuqlar, insonlarning asosiy huquqlarini ta’minlash, ish bilan ta’minlanishi darajasi, insonlarning davlat tomonidan himoyalanganligi darajasini belgilovchi indikatorlar ham inobatga olindi.

Davlat	Reyting	Gender tengligi darajasi	Ish bilan bandlik aholiga nisbatan	Ta’lim qamrov (umuta’lim) (25 yoshdan)	Xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilish	Tabiiy ofat oqibatida uysiz aholi (1 mln aholiga)
<i>Norvegiya</i>	<b>1</b>	0.990 (1)	61.7	94.9	14	0
<i>Irlandiya</i>	<b>2</b>	0.981 (1)	59.0	81.1	12	0
<i>Shveysariya</i>	<b>3</b>	0.968 (2)	65.1	96.1	14	0
<i>Gong Kong (Xitoy)</i>	<b>4</b>	0.972 (2)	72.9	79.1	14	0
....						
<i>Tongo</i>	<b>104</b>	0.950 (3)	59.1	93.8	2	0
<i>Liviya</i>	<b>105</b>	0.976 (1)	40.5	57.5	12	0
<i>Uzbekiston</i>	<b>106</b>	0.939 (3)	61.2	99.9	10	0
<i>Boliviya</i>	<b>107</b>	0.945 (3)	69.3	59.8	18	43
....						
<i>Chad</i>	<b>187</b>	0.764 (5)	69.4	6.1	11	38
<i>Markaziy Afrika (R)</i>	<b>188</b>	0.801 (5)	69.3	22.1	15	378
<i>Niger</i>	<b>189</b>	0.724 (5)	71.7	6.7	16	177

### “Human Development Index” (2020 yil holatiga<sup>72</sup>)

Bir qarashda mazkur indeks doirasida mamlakatimiz mavqei nisbatan barqarordek, biroq ishlab chiqarishda xususiy kapitalning ulushi (-6,2), aholini internetdan foydalanish darajasi (52,3 %), ijtimoiy munosabatlarda tengsizlik ulushi (13.9 %), go’daklar o’limi ko’rsatkichi (19,1) va boshqa indikatorlar doirasida natijalarning qoniqarsiz ekanligi mamlakatimizning indeksdagi o’rni va nufusiza salbiy ta’sir ko’rsatgan.

<sup>72</sup> <https://worldpopulationreview.com> and <https://hdr.undp.org>. 2020\_ststistical\_annex\_all.

“KidsRights Index” mamlakatlarda bola huquqlarini ta’minlanganlik darajasini baholovchi indeks bo’lib, ushbu indeks 5 ta indikator va 20 ta subindekatorni qamrab oladi. Mazkur indeks doirasida 2021 yilda 182 ta mamlakat doirasida o’tkazilgan baholashda O’zbekiston 89 pog’onani band etgan.

Davlat	Reyting	Jami	Hayotga bo’lgan huquq	Sog’liqni saqlash	Ta’lim	Xavfsizlik taminlanishi	Tabiiy huquq
<i>Islandiya</i>	1	0,966	0,982	0,963	1	0,989	0,900
<i>Shveysariya</i>	2	0,937	0,984	0,978	0,902	0,997	0,833
<i>Finlandiya</i>	3	0,934	0,970	0,984	1	0,992	0,750
<i>Shveysiya</i>	4	0,915	0,978	0,989	1	0,993	0,667
...							
<i>Trinidad-Tobago</i>	88	0,739	0,795	0,947	0,610	0,935	0,500
<i>Uzbekiston</i>	89	0,739	0,842	0,972	0,685	0,951	0,429
<i>Qirg’iziston</i>	90	0,738	0,881	0,919	0,715	0,840	0,500
...							
<i>Sierra Lion</i>	180	0,218	0,047	0,505	0,551	0,528	0,071
<i>Afg’oniston</i>	181	0,198	0,437	0,454	0,284	0,535	0,010
<i>Chad</i>	182	0,146	0,022	0,086	0,277	0,181	0,714

**“KidsRights Index” (2021 holatiga)<sup>73</sup>**

Mazkur ro’yxatdan ko’rishimiz mumkinki, mamlakatimizda bolalarni tabiiy huquqlarini taminlanganlik darajasiga ya’ni bolalar kamsitilishlariga barham berish, ularning eng yaxshi manfaatlarini ta’minlash, bolalarga imtiyozlar beruvchi qonunchilikni takomillashtirish, eng yaxshi budjet ta’minoti, bolalarni jamiyat hayotidagi ishtirokini qo’llab-quvvatlash, bolalar bilan bog’liq hodisalarni yi’g’ish va tahlil etib borish hamda davlat va jamiyat o’rtasidagi munosabatlarda bolalar manfaatlarini inobatga oshish kabi indikatorlar nisbatan pastroq baholangan. Bu esa mazkur indikatorlar doirasida milliy qonun hujjatlarini takomillashtirish zaruratini taqozo etadi.

<sup>73</sup> Quantitative data published and regularly updated by UNICEF [www.data.unicef.org](http://www.data.unicef.org) UNDP [www.hdr.undp.org/data](http://www.hdr.undp.org/data)

“World Economic Forum” tomonidan 2021 yilda 156 ta mamlakatda olib borilgan kuzatishlar natijasida Global gender tafovutlari hisoboti (Global Gender Gap Repors 2021) e’lon qilindi. Mazkur hisobotda mamlakatlarda gender tengligini ta’minlashda 2006-2020 yillar davomida olib borilgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va huquqiy islohotlar va davlatlarning bu boradagi xalqaro reytingi bayon etildi. Afsuski, mazkur baholash ro’yxatida mamlakatimiz qayd etilmagan.

Davlat	Reyting	Jami	Iqtisodiy imkoniyatlar va ishtirok	Ta’limda ishtiroki	Sog’liqni saqlash	Siyosiy Ishtiroki
<i>Islandiya</i>	<b>1</b>	0.892	0.846	0.999	0.964	0.760
<i>Finlandiya</i>	<b>2</b>	0.861	0.806	1	0.970	0.669
<i>Norvegiya</i>	<b>3</b>	0.848	0.792	1	0.964	0.640
...						
<i>Chexiya</i>	<b>78</b>	0.711	0.662	1	0.978	0.203
<i>Tayland</i>	<b>79</b>	0.710	0.787	0.992	0.978	0.084
<i>Qozog’iston</i>	<b>80</b>	0.710	0.728	0.995	0.975	0.141
...						
<i>Iroq</i>	<b>154</b>	0.535	0.228	0.807	0.968	0.136
<i>Yaman</i>	<b>155</b>	0.492	0.282	0.717	0.968	0.001
<i>Afg’oniston</i>	<b>156</b>	0.444	0.180	0.514	0.952	0.132

#### *Global Gender Gap Repors (2021 holatiga)<sup>74</sup>*

Albatta, mazkur baholash reytingida mamlakatimizni qayd etilmasligini bu borada ishlar etarli darajada tashkil etilmaganligi bilan izohlash xatodir. Chunki, qator xalqaro reytinglarda gender tengligi indikatorlari ta’kidlanib (Jumladan, Sustainable Development Goals, Human Development Index, Rule of law Index), mamlakatimiz tomonidan bu borada hisobotlar taqdim etib kelinmoqda. Biroq shu bilan bir qatorda, ayollarning siyosiy hayotdagi faolligini oshirish, rahbarlik lavozimlaridagi ulushini oshirish, qonun ijodkorligi faoliyatida samarli ishtirokini ta’minlash, xotin-qizlar o’rtasida erta nikoh holatlarini oldini olish bo’yicha indikatorlarni takomillashtirish davlatning muhim vazifasidir.

<sup>74</sup> World Economic Forum. “Global Gender Gap Repors 2021” CH-1223 Cologne/Geneva Switzerland. www.weforum.org

“World Justice Project” tomonidan 2021 yilda “huquq ustuvorligi” indeki bo'yich 139 ta mamlakatda 8 ta indikator va 44 ta subindikator doirasida o'rganishlar o'tkazildi. (2019 yil holatiga) Mazkur baholashda mamlakatimiz 85 pog'onani band etdi.

Davlat	Reyting	Jami	Hukumat faoliyatining ochiqqligi	Tabiiy huquqlar	Fuqarolik sudlarida huquqni ta'minlash	Jinoyat sudlarida huquqni ta'minlash
<i>Daniya</i>	<b>1</b>	0.90	0.89	0.92	0.86	0.83
<i>Norvegiya</i>	<b>2</b>	0.90	0.87	0.91	0.85	0.85
<i>Finlandiya</i>	<b>3</b>	0.88	0.87	0.90	0.82	0.84
...						
<i>Surinam</i>	<b>84</b>	0.49	0.38	0.53	0.48	0.52
<i>O'zbekiston</i>	<b>85</b>	0.49	0.37	0.44	0.50	0.45
<i>Kolumbiya</i>	<b>86</b>	0.49	0.62	0.51	0.47	0.32
...						
<i>Kongo D/R</i>	<b>137</b>	0.35	0.36	0.41	0.36	0.27
<i>Cambodja</i>	<b>138</b>	0.32	0.26	0.33	0.25	0.25
<i>Venesuela</i>	<b>138</b>	0.27	0.28	0.29	0.27	0.12

**“World Justice Project” 2021 yil (2019 holatiga)<sup>75</sup>**

Mazkur indeksda Janubiy Koreya 31, Qozog'iston 66, Qirg'iziston 99 va Afg'oniston 134 pog'onani band etgan. Mamlakatimiz ushbu indeksdagi hukumat faoliyatining ochiqqligi (122), davlat organlari faoliyatining mustaqilligi (121), tabiiy huquqlarni ta'minlanganlik darajasi (109) kabi indikatorlardagi natijalari nisbatan past darajani tashkil etgan.

Bu borada, qonunchilik jarayonida jamiyat ishtirokini ta'minlash, hukumat faoliyatiga oshkoralik berish, fuqarolik jamiyatini davlat ishlarida faol ishtirokini ta'minlash, shaxslarga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etilmasligini ta'minlash, ijro hokimiyatlari tomonidan qonunlarni hurmat qilish, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash bo'yicha samarali islohotlarni olib borish zaruratini taqozo etadi.

<sup>75</sup> World Justice Project “Rul of Law Index 2021” Copyright 2021. worldjusticeproject.org.

Xalqaro indekslar haqida gapirganimizda “Sustainable Development Goals” indeksini alohida ta’kidlashimiz lozim. Mazkur indeks har yili mamlakatlarning barqaror rivojlanish yo’lida 17 ta maqsad va 232 ta indikator dorasida tahlillar va kuzatishlarni olib boradi va xalqaro reytingini muntazaam yuritib boradi. Ushbu indeks doirasidagi inson huquqlariga doir ayrim indikatorlar reytingi bilan tanishib chiqamiz.

Davlat	Indeks	Jami	Sog’lom turmush tarzini ta’minlash. o’rtacha yosh (3)	Gender tenglikni ta’minlash parlamentda ulush (5)	Samarali bandlikni oshirish. huquqlar kafolatlanishi (8)	Tinch va ochiq jamiyatni batpo etish. xavfsiz yurish (16)
<i>Finlandiya</i>	<b>1</b>	85.90	81.6	46 %	0.9	88 %
<i>Shveysiya</i>	<b>2</b>	85.61	82.4	47 %	0.8	79 %
<i>Daniya</i>	<b>3</b>	84.86	81.3	39.7 %	0.9	85 %
...						
<i>Singapur</i>	<b>76</b>	69.89	83.2	29.5 %	0.7	97 %
<i>Uzbekiston</i>	<b>77</b>	69.84	73	32 %	0.5	87 %
<i>Tojikiston</i>	<b>78</b>	69.76	69.5	23.8 %	-	88 %
...						
<i>Chad</i>	<b>163</b>	30.90	59.6	15.4 %	-	44 %
<i>J.Sudan</i>	<b>164</b>	38.30	62.8	28.5 %	-	42 %
<i>Afrika M.R</i>	<b>165</b>	37.28	53.1	8.6 %	-	52 %

**“Sustainable Development Goals index” 2021 holatiga<sup>76</sup>**

Albatta mazkur indeks doirasida qator inson huquqlari sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi indikatorlarni masalan, ayollar va erkaklarning ta’lim tizimidagi ulushi, fuqarolarni toza ichimlik suvi, elektor energiyasi, shahar transporti bilan ta’minlanganlik darajasi, mulk huquqini ta’minlanganligi, tu’g’ilishni ro’yxatga olish bilan bog’liq masalalarni ham sanab o’tishimiz mumkin. Eng muhimi, mazkur indikatorlarni amalga oshirish mexanizmini belgilab beruvchi huquqiy hujjat (yo’riqnoma yoki nizom)ni yaratish orqali bu borada yanada smaraliroq natijaga erishish mumkin bo’ladi.

<sup>76</sup> J.Sachs, G.Trub-Schmidt, Ch.Kroll, G.Lafortune and G.Fuller Sustainable Development Report 2021. Cambridge unirestity press. First published 2021. www.cambridge.org

Insonning global huquqlari orasida mehnat qilish, adolatli mehnat sharoitida ishlash, erkin kasb tanlash, mehnat munosabatlarida buzilgan huquqlarini oson tiklash kabilar bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda muammoga aylanmoqda.

“International trade union Confederation” tomonidan 2021 yilda nashr etilgan “2021 ITUC Global Rights Index: The world’s worst countries for workers Executive Summary” nashrida mehnatkashlar huquqlarini buzuvchi dunyoning eng yomon mamlakatlarini 6 ta indikator doirasida ajratib ko'rsatadi<sup>77</sup>. Ya'ni:

<b>Yevropa</b>	<b>Osiyo</b>	<b>Amerika</b>	<b>Afrika</b>
<b>Qonun ustuvorligi buzilganligi sababli mehnat huquqlar kafolatlanmaydi (5+)</b>			
-	-	-	Suriya
-	-	-	Jan.Sudan
-	-	-	Yaman
<b>Qonunlarda mehnat huquqi kafolatlari mavjud emas (5)</b>			
Belorusiya	Qozog'iston	Kolumbia	Sudan
Ukraina	Jan.Koreya	Evador	Zimbabve
-	Hindiston	Braziliya	Misr
<b>Mehnat huquqlarini tizimli ravishda buzilishi (4)</b>			
Serbiya	Qirg'iziston	Chili	Kamerun
Vengriya	Shri-lanka	Venesuela	Senegal
Gretsiya	Qatar	AQSH	Tunis
<b>Mehnat huquqlarini muntazaam ravishda buzilishi (3)</b>			
Albaniya	-	Boliviya	Mozambik
Belgiya	-	Kanada	Gabon
Rossiya	-	Meksika	Liberiya
<b>Mehnat huquqlarining takroriy buzilish (2)</b>			
Chexiya	Yaponiya	Costa-rika	Namibiya
Shveytsariya	Singapur	-	Gana
Fransiya	Tayvan	-	Kongo Respublikasi
<b>Mehnat huquqlari baz'an buzib turilishi (1)</b>			
Finalndiya	-	Urugvay	-
Daniya	-	-	-
Germaniya	-	-	-

<sup>77</sup> International trade union Confederation 2021 ITUC Global Rights Index: The world’s worst countries for workers Executive Summary” 2021. <https://survey.ituc-csi.org>



Shuningdek, Xalqaro kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi Xalqaro Mehnat tashkilotining Konvensiyalari va standartlari asosida 5 ta yo'nalish, yani fuqarolik erkinliklari, huquqlarni o'rnatish va kasaba uyushmalariga qo'shilish, kasaba uyushmalari faoliyati, muzokaralarga kirishish huquqi hamda ishchilarning ish tashlash huquqi bo'yicha 97 ta indikatorni yaratishdi<sup>78</sup>. Jumladan:

- Kasaba uyushmasi a'zolarini hibsga olish, qamoqqa olish, ayblash va jarimaga tortish holatlari;
- Kasaba uyushmalari rahbarlariga nisbatan sodir etilgan qonun buzilishi holatlari;
- Kasaba uyushmalarni tashkil etishni yoki ular tarkibiga qo'shilishni taqiqlovchi holatlar;
- Joylardagi vakillarni erkin saylash huquqini buzish holatlari;
- Jamoaviy huquqni umumiy ta'qiqlash holatlari;
- Jamoaviy bitimlar tuzishda ishchilarning muayyan toifalarini istisno qilish holatlari;
- Qonunlarda kafolat yoki adolatning yo'qilgi, huquqbuzarlarga nisbatan tegishi choralar ko'rilmayotganlik holati;
- Ish tashlashni ta'qiqlash holatlari;
- Minimal mehnat huquqlarini buzilishi holatlari;
- Ma'muriy organlar tomonidan ish tashlashlarni to'xtatish yoki noqonuniy deb topish holatlari.

Shuni ta'kidlash lozimki, bungi kunda aholini ish bilan ta'minlash masalasi har bir davlat uchun asosiy usuvor vazifa bo'liq qolmoqda. Bu esa albatta ularning huquqlarini davlat tomonidan kafolatlanganlik dajarasini belgilovchi me'zonlar va huquq normalarini yaratishni taqozo etadi.


---

<sup>78</sup> Committee of Experts on the Application of Conventions and Recommendations (CEACR), Committee on the Application of Standards (CAS) and Committee on Freedom of Association (CFA). See in particular: the Compilation of decisions of the Committee on Freedom of Association (<https://www.ilo.org/dyn/normlex/en>) ILO General Survey 1994 on Freedom of Association and Collective Bargaining, 1994 (<https://www.ilo.org/public/libdoc/ilo/>) and ILO General Survey 2012 on fundamental Conventions (<https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public>) The list of indicators is adapted from David Kucera and Dora Sari. 2018. "New Labour Rights Indicators: Method and Trends for 2000-2015", International Labour Review (Accepted manuscript online: 9 MAR 2018)

Bugungi kunda AQSH faoliyat olib borayotgan “Freedom House” tomonidan 210 ta mamlakatda istiqomad qilayotgan insonlarning davlat tomonidan siyosiy va fuqarolik erkinliklaridan foydalanish huquqi ta’minlanayotganlik darajasini baholovchi “Dunyo erkinligi” hisoboti yuritilib, mazkur hisobotlar har yili ananaviy shaklda yangilanib boradi.

Ushbu hisobot global erkinlik ko’rsatkichi (siyosiy va fuqarolik erkinliklari), internet erkinligi (kirish uchun to’siqlar, aloqaga cheklovlar, foydalanuvchini huquqlarini buzish) va demokratiya ko’rsatkichi (demokratiya foizi va demokratiya darajasi)ni baholovchi maxsus indikatorlar asosida yuritiladi. 1-yo’nalishda 25 ta (har biri 0-4 gacha baholanadigan), 2-yo’nalishda 21 ta (0-3, 0-4, 0-5, 0-6 gacha) va 3-yo’nalishda 1 ta yaxlit indikatorlar tizimini foizda ifodalovchi demokratiya ko’rsatkicha hamda 7 ta (1-7 gacha baholanadigan) maxsus indikator jami 54 ta indikator mavjud va davlatlar ushbu indikatorlar doirasida “erkin”, “qisman erkin” va “erkin bo’lmagan” kabi 3 guruhga ajratiladi.

Masalan, Global erkinlik ko’rsatkichi bo’yicha:



Mazkur baholash indikatorlari asosan savolnoma shaklida tuzilib, so’rovlar asosida ma’lumotlarni to’plashga mo’ljallangan. Masalan, amaldagi qonun

chiqaruvchilar erkin va adolatli saylov asosida saylangamni? Savolga javob berish va saylovlar haqida ma'lumotlar to'plash orqali holat 0-4 gacha baholanadi.

Yoki, jismoniy shaxslar o'zlarining harakat erkinligi, masalan ish joyini, o'qish joyini, yashash joyini erkin o'zgartira oladimi? shaxslar kuzatuv, ta'qib va jazodan qo'rqmasdan siyosiy yoki boshqa mavzularda o'z shaxsiy qarashlarini erkin ifoda eta oladimi? kabi savollar ma'lumotni matnli jamlashga yordam beradi.

Biroq, faqatgina shaxsiy qarashlar va fikrlarga asoslangan indikatorlar har doim ham holatni ob'ektiv baholashga xizmat qilmaydi. Mavjud holatni real ifodalashda statistik (raqamlar, foizlar, sonlar) ma'lumotlardan ham foydalanish samaradorlikka erishishning me'zoni hisoblanadi.

BMTning Inson huquqlari Qo'mitasi tomonidan tayyorlangan "Human rights indicators: A Guide to Measurement and Implementation"<sup>79</sup> nomli tahlil ishida ham inson huquqlari sohasidagi indikatorlar sifat va midqoriy ko'rsatkichlar asosidagina to'liq baholanashi hamda ular bir-birini to'ldirib turishi takidlangan.

Shu bois, "Freedom House" indikatorlari doirasida baholangan ma'lumotlarni ob'ektiv nuqtai nazardan to'g'ri baholangan deb ayta olmaymiz.

Shuningdek, ushbu baholash ko'rsatkichlarini "Human Freedom Index" bilan taqqoslaganda mamlakatlarning reyting ko'rsatkichlarida ham jiddiy farqni sezish mumkin. Masalan, "Human Freedom Index"da Isroil 62 pog'onani, Gana 70 pog'onani band etgan. Biroq, "Freedom House"da Gana 100 ballik shkaladan 80 %, Isroil 76 % bilan baholangan. Yoki, "Human Freedom Index"da Buyuk Britaniya 14, Urugvay 33 pog'onani egallagan bo'lsada, Freedom House"da Urugvay (97 %) Buyuk Britaniyadan (93 %) yuqori pog'onadaligi ko'rsatilgan.

Albatta, bugungi kunda xalqaro tashkilotlar va davlatlar tomonidan inson huquqlari sohasidagi indekslar turlicha talqin etilishi, indikatorlarning bir-birini takrorlashi, davlatlarning bir munosabat doirasida turli pog'onalarda qayd etilishi holatlari uchrab turadi, biroq eng muhimi davlatning inson huquqlari borasidagi ishlarini ob'ektiv baholay olishdadir.

---

<sup>79</sup>. HR/PUB/12/5. © 2012 United Nations (New York and Geneva, 2012)

### 2.3. Indikatorlarni shakllantirish bo'yicha xalqaro amaliyot va xorijiy tajriba: ijobiy indikatorlarni milliy huquq tizimiga implementatsiya qilish masalalari.

Bugungi kunda inson huquqlarini ta'minlash borasida xalqaro standartlar doirasida qator mamlakatlar tajribasi shakllandi. Ularning ayrimlari nafaqat ushbu mamlakatda, balki boshqa davlatlar uchun ham dastur bo'lib xizmat qiluvchi xalqaro ahamiyat kasb etgan bo'lsa, ayrimlari davlat uchun kutilgan natijani bermadi.

Taqdiqot ishining mazkur bo'limida, xalqaro va xorijiy mamlakatlarda inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha yaratilgan, tadbiiq etilayotgan indikatorlarni milliy huquq tizimimizga implemintatsiya qilish masalalari xususida so'z yuritamiz.

Xalqaro huquqda insonning asosan 58 ta huquqi doirasida indikatorlar shakllantiriladi. Bular quyidagilardir:

Kamsitilishning ta'qiqlash	Oila qurish erkinligi	Dam olish huquqi	Jamoat ishlarida ishtirok etish huquqi
Hayotga bo'lgan Huquq	Oilani himoya qilish	Etarli turmush darajasi huquqi	Huquqni amalga oshirishda xalqaro tartib
Shaxs xavfsizligi va erkinligi	Nikohning ihtiyoriy rozilikka asoslanishi	O'z taqdirini o'zi belgilash huquqi	O'lim jazosidan Himoyalanih
O'zboshimchalik bilan hibsga olinishini ta'qiqlash	Turmush qurishda ayollar va erkaklar teng huquqliligi	Bolalarni himoyaga va yordamga bo'lgan huquqi	Urush va kamsitishlar bo'yicha tashviqotlarni ta'qiqlash huquqi
Qiynoqqa qarshi himoyalanih	Vijdon va din Erkinligi	Madaniy hayotda ishtirok etish huquqi	Madaniy va ilmiy hayot bilan shug'ullanish
Qullikka qarshi kurash huquqi	Fikrni ifoda etish erkinligi	Ochlikdan himoyalanih huquqi	Intellectual mulkga bo'lgan huquqi
Tenglik	Matbuot erkinligi	Ta'lim	Demokratiya
Qonuniylik	Y'ig'ilishlar erkinligi	Sog'liq	Ayollar huquqlari
Yuridik xizmat huquq	Uyushmalar erkinligi	Mulk huquqi	Apartaidni taqiqlash
Mustaqil va xolis sudga bo'lgan huquq	Hukumat ishlarida ishtirok etish huquqi	Boshpana huquqi	Siyosiy taqdirini o'zi belgilash huquqi
Aybsizlik preziumpsiyasi	Jamoat xavfsizligi	Uzluksiz boshlang'ich ta'lim huquqi	Iqtisodiy taqdirini o'zi belgilash huquqi
Erkin harakatlanish	Ishlash huquqi	Ozchilik madaniyati	Bolalarni himoyalash
Shaxsiy, oilaviy va yozishmalarning sir saqlanishi	Majburiy mehnatdan himoyalanih huquqi	Qamoqdagi shaxsga insoniy muomala huquqi	Fuqarolik burchini buzgaligi uchun qamoqdan himoyalanih
Qonunlar ta'siridan himoyalanih	Kasaba uyushmalarga qo'shilish huquqi	Ozodlikdan mahrum etishdan himoyalanih	
Millatga bo'lgan Huquqi	Adolatli sharoitda ishlash huquqi	Muhojirlarni chiqarib yuborishda qonuniylik	

Inson huquqlari sohasida indikatorlarni yaratish borasida eng rivojlangan mamlakatlar qatorida Buyuk Britaniya davlatlari alohida e'tirof etiladi. 21 asr boshlarida Shotlandiya Inson huquqlari bo'yicha komissiya va Tenglik bo'yicha inson huquqlari komissiyasi o'zaro hamkorlikda Angliya, Uels va Shotlandiya inson huquqlari indikatorlarini yaratish ustida tadqiqotlar olib borishdi. Avvaliga sog'liqni saqlash, ta'lim, jismoniy xavfsizlik va davlat ishlarida kamsitilishning ta'qiqlanishiga qaratilgan qator statistik ma'lumot shaklida tuzilgan indikatorlar yaratildi. Ushbu ish bo'yicha maslahatlashuvlar so'ngida inson huquqlari ko'rsatkichlarining yanada kengroq tizimini ishlab chiqish, bunda BMT Inson huquqlari qo'mitasi tavsiyalarini inobatga olgan holda faqat statistik ma'lumotlar emas, atrofdagi insonlarning ham fikrini o'rganish bo'yicha indikatorlarni yaratish ushbu voqeaga asoslangan ma'lumotlarni OAV, rasmiy tarmoqlar va boshqa muqobil ma'lumot manbaalari orqali to'plashga kelishib oldilar. Ma'lumotlarni to'plashda sayyohlar, lo'lilar, uysizlar, qamoqdagi shaxslar fikrlarini o'rganish ham nazarda tutildi.

Natijada, HRMF ("Human Right Measurment Framework") loyihasi ish boshladi<sup>80</sup>. Loyiha doirasida qator davlat organlari inson huquqlari idoralari bilan keng ko'lamli maslahatlashuvlar yo'lga qo'yildi va 2010 yilda butun Buyuk Britaniyada onlayn maslahatlashuvlar uchun maxsus veb-sayt yaratildi.

Keng ko'lamli harakatlar oqibatida ichki qonunchilik va xalqaro standartlarni birlashtirgan qator inson huquqlari yo'nalishlari, jumladan yashash huquqi, qiynoqlardan himoyalanih, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquq, shaxsiy va oilaviy hayotga bo'lgan huquq, ta'lim va sog'liqni saqlash huquqi, adekvat turmush darajasiga bo'lgan huquq bo'yicha indikatorlar yaratildi.

Mazkur loyiha doirasida ayniqsa, Inson huquqlari bo'yicha Britaniya instituti va London iqtisodiyoti maktabining inson huquqlarini ijtimoiy-siyosiy o'rganish va tahlil etish markazi samarali ishlarni amalga oshirdi.

---

<sup>80</sup> [www.equalityhumanrights.com](http://www.equalityhumanrights.com) EHRC Human Right Measurment Framework;Prototype Panels, Indicator Set and Evidence Base, research report 81 (2011)

Buyuk Britaniya inson huquqlari indikatorlarining o'ziga xos tomoni har bir inson huquqlari sohasi bo'yicha alohida indikatorlar tizimi yaratilib, mazkur indikatorlar asosan shaharlar muhitida yashovchi aholi vakillariga nisbatan tadbiq etilib, monitoring qilish imkoniyatlarini inobatga oladi<sup>81</sup>.

Yanada tushunarliroq qilib aytganda, mazkur indikatorlar "Barqaror rivojlanish maqsadlari"da belgilangan 11-maqсад (shaharlar va aholi yashash punktlarida xavfsizlik va ochiqlikni ta'minlash) vazifalarini qamrab olgan indikatorlar bilan deyarli o'xshash edi.

Bugungi kunga kelib mazkur indikatorlar 5 ta asosiy guruh tarkibiga birlashtirildi. Ya'ni:

- Tenglik va kamsitilishning ta'qiqlanishi;
- Ta'lim;
- Sog'liq va ijtimoiy himoya;
- Boshpana va uy-joyga bo'lgan huquq;
- Munosib turmush darajasi;

Buyuk Britaniyada indikatorlarni shakllantirishda aholi o'rtasida turli so'rovlar o'tkazish orqali ularning ehtiyojlarini aniqlash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, barcha hududlar uchun bir xil standart indikatorlardan emas, balki aholi muammolaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan. Masalan, Shimoliy Belfistdagi Yetti Minora aholi punktidagi insonlarni uy-joyga bo'lgan ehtiyojlari 6 ta indikator doirasida aniqlangan<sup>82</sup> Ya'ni:

- Muntazaam kabutarlar chiqindilaridan tozalanidan maydonlar ulushi;
- Yetti Minorada yashovchi yosh bolali oilalar soni;
- Drenaj va kanalizatsiya muammolari haqida murojaat qilgan aholi ulushi;
- Yashash xonadoni nam va zah bo'lgan aholi ulushi;
- Uy-joy masalasida murojaati natijasidan mamnun bo'lgan aholi ulushi;
- Uy-joy ma'muriyati qarorlaridan norozi bo'lgan aholi ulushi;

---

<sup>81</sup> York Human Rights Indicators Report 2017, Reclaiming the Positive. [https://www.york.ac.uk/media/cahr/documents/2017\\_Report\\_A4\\_final.pdf](https://www.york.ac.uk/media/cahr/documents/2017_Report_A4_final.pdf)

<sup>82</sup> available from [www.york.ac.uk/chp/hsa/papers/spring09/Donelly-pdf/](http://www.york.ac.uk/chp/hsa/papers/spring09/Donelly-pdf/) (accessed 23 may 2012) Participation and the Rights Procect ([www.pprproject.org](http://www.pprproject.org))

Natijada, Birlashgan qirollikda uysiz aholi soni sezilarli darajada kamaya boshladi va 2020 yil aprel va 2021 yil mart oyida o'tgazilgan o'rganishlarda Angliyada 274.000 aholi, ya'ni har 206 nafar insondan biri uysizligi aniqlangan<sup>83</sup>.

Shuningdek, inson huquqlarining boshqa sohalarida ham indikatorlarni yaratishda muayyan hududda istiqomad qilayotgan aholing ehtiyojlari, hududiy tuzilishi va boshqa belgilari inobatga olingan.

Albatta bu ijobiy jarayondir. Chunki har doim ham turli hududlarda istiqomad qilayotgan aholining ehtiyojlari har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi.

Masalan, qishloq joylarida istiqomad qiluvchi aholining toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoji shahar aholisiga nisbatan yuqoriroq hisoblanadi. Yoki, chekka hududlarda istiqomad qilayotgan aholini ish bilan bandligi ko'rsatkichi shahar aholisiga nisbatan pastroq hisoblanadi.

Shu bois yuqoridagilarni inobatga olib, milliy indikatorlatni shakllantirishda muayyan hudud, aholi ehtiyoji, sharoit va boshqa belgilarni inobatga olgan holda (diskriminatsiyaga yo'l qo'ymagan holda) yaratish lozim. Ayniqsa, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, ta'lim, ish bilan ta'minlash, internet sifati, huquqiy bilimlarni baholash kabi sohalarida samarali natijalarni berishi mumkin.

Yana bir inson huquqlarini ta'minlash sohasida yuqori natijalarga erishgan mamlakatlardan biri bu Daniyadir. Ushbu mamlakat insonlar o'rtasida gender tenglikni ta'minlash, o'zboshimchalik bilan xibsga olish holatlariga barham berish, qamoqxonlarda insoniy munosabatni ta'minlash, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish sohasida dunyo mamlakatlari uchun tajriba bo'la oladigan indikatorlarni joriy etdi. Ulardan eng muhimlaridan biri bu nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlanganlik darajasini baholovchi "Oltin inditarorlar"dir.

BMTning Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitasi mustaqil eksperta a'zosi S.Langvad "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini rivojlanishi uchun oltin indikatorlar tegishliligi, kuchliligi bilan o'ziga xos hissa qo'shdi" deb ta'kidladi<sup>84</sup>.

---

<sup>83</sup> England.shelter.org.uk 09.12.2021 y

Ushbu indikatorlarni “Oltin indikator” deb nomlanishiga sabab sifatida har bir indikator malakali mutaxassislar tomonidan dialogga asoslangan jarayonlar natijasida shakllantirilgan bo’lib, Inson huquqlari qo’mitasi tomonidan ushbu sohada “oltin standartlar” vazifasini o’tashiga asoslanadi.

“Oltin indikator” tarkibi 10 ta indikatoridan iborat va bular quyidagilardir:

**1.** O’tgan yil davomida jinsi, yoshi, etnik kelib chiqishi, dini yoki nogironlik belgisi bo’yicha kamsitilishni boshdan kechirgan nogironligi bo’lgan shaxslar ulushi;

**2.** So’nggi haftada OAV jumladan, televideniya, radio orqali efirga uzatiladigan dasturlarda nogironligi bo’lgan shaxslar hayotini tasvirlovchi yoki ular bilan intervyular tashkil etilganligi holati (haftada kamida bir marta);

**3.** So’nggi haftada jamoat transportlarida jumladan, avtobus, poezd, taksi, samolyot yo’lovchi tashish kemalari va boshqalarda maishiy va mahalliy muammolarga duch kelgan nogironligi bo’lganlar ulushi;(umumiy aholi nisbatida).

**4.** Qamoqxonalar va psixatriya muassasalarida saqlanayotgan 30 va undan katta yoshli aholi orasida nogironligi bo’lgalar ulushi;

**5.** Shaxsiy hayotda nogironlik belgisi kuchli tas’ir etayotgan shaxslar ulushi;

**6.** 25 yosh va undan katta aholi o’rtasida maktabni erta tark etgan yoki ta’limga jalb etilgan nogironligi bo’lganlar ulushi;

**7.** Jismoniy, ruhiy holati yaxshi darajada ekanligini his qiluvchi nogironligi bo’lgan shaxslar ulushi;

**8.** Tanlangan ma’lum bir haftada bandligi ta’minlangan nogironligi bo’lgan shaxslar ulushi;

**9.** So’nggi 3 yilda yashashiga iqtisodiy omillar sezilarli darajada to’sqinlik qilgan nogironligi bo’lganlar ulushi;

**10.** Oxirigi Daniya parlamentiga bo’lgan saylovlarda ovoz bergan nogironligi bo’lganlar ulushi;

---

<sup>84</sup> Author Freja Marie Gaare Larsen “The Gold indicators” 2015 y The Danish institute for Human Rights [www.humanrights.dk/tilgaengelighed](http://www.humanrights.dk/tilgaengelighed)



O'sh navbatida mazkur indikatorlar tarkibida 49 ta subindikatorlar ham mavjud bo'lib, ular har bir baholash indikatori mazmunini to'liqroq va tushunarliroq ochib berishga xizmat qiladi.

Masalan, 5 indikator tarkibida;

- a) Ma'lum bir hafta yoki oyda turli madaniy va ko'ngilochar tadbirlarda (kino, teatr, konsert, sport tadbirlari va boshqalarda) qatnashmagan nogironligi bo'lganlar ulushi;
- b) Tura-joy ob'ektlarida nogironligi bo'lgan aholi soni (har 100.000 aholiga nisbatan 18-64 yosh);
- c) "Oltin indikatorlar"ni yoshga qarab ajratilish;
- d) "Oltin indikatorlar"ni jinsga qarab ajratilish;
- e) "Oltin indikatorlar"ni millatiga qarab ajratilish;

Shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha Daniya instituti tomonidan "Oltin indikatorlar"ni ishlab chiqilishi BMTning Vashington guruhi tomonidan yuritiladigan statistik ma'lumotlarni to'plash bo'yicha ajoyib dastur bo'lib xizmat qildi<sup>85</sup>.

Ushbu indikatorlar nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini davlar tomonidan kafolatlanganlik darajasini baholab beruvchi ajoyib standart namunasiga aylandi va BMT Inson huquqlari qo'mitasi tomonidan yuksak baholandi.

Haqiqatdan, ushbu indikatorlar nogironligi bo'lgan shaxslarning siyosiy, ijimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda ishtirokini faol ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni qamrab olib, ular huquqlarini jamiyatda kamsitilishini oldini olishga xizmat qiluvchi ko'rsatkichlarni o'z tarkibiga olgandi.

Shuningdek, Daniya Nogironlar kengashi kotibiyati rahbari A.Jul Sorensen "Davlatning barqaror rivojlanish yo'lida bizga aynan "Oltin indikatorlar" ga o'xshash aniq baholash ko'rsatkichlari zarurdir va bu borada Daniya Inson

---

<sup>85</sup> <http://unstates/un/org/unsd/genderstatmanual/Print.aspx?Page=What-are-gender-states>

huquqlari instituti indikatorlarni topishning inklyuziv jarayonini boshladi”<sup>86</sup> deb ta’kidlagan edi.

Ma’lumki, 07.06.2021 yilda O’zbekiston Respublikasining “Nogironlar huquqlari to’g’risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida”gi qonuni kuchga kirdi va bu jarayon davlat tomonidan nogironligi bo’lgan shaxslar huquqlarini xalqaro standartlar darajasida himoya qilish, kafolatlash va buzilgan huquqlarini tiklash zaruratini taqozo etadi.

Ana shunday sharoitda, davlat uchun nogironligi bo’lgan shaxslar va ularning huquqlarini ta’minlanganlik darajasini baholash bilan bog’liq aniq indikatorlar va statistik ma’lumotlar zarur bo’ladi.

Bu borada, Daniya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanish orqali birinchidan, nogironligi bo’lgan shaxslarning huquqlari kafolatlanganligi, himoya qilinganligi yoki buzilgan huquqlari tiklanganligi darajasini baholovchi aniq mexanizm vujudga keladi, ikkinchidan, inson huquqlarini ta’minlashga xizmat qiluvchi milliy normalarni takomillashishi kuzatiladi, uchinchidan, davlatning sohaga doir xalqaro indekslardagi o’rniga ijobiy ta’sir etadi.

Bugungi kunda inson huquqlari sohasida ta’limni rivojlantirishda qator mamlakatlarni jumladan, AQSH, Buyuk Britaniya, Avstriya, Niderlandiya, Shveytsiya, Fransiya, Finlandiya, Yaponiya, Norvegiyaning ijobiy tajribalari haqida uzoq gapirishimiz mumkin. Biroq mazkur tadqiqot ishida BMTning Inson huquqlari qo’mitasi tomonidan ta’limni boshqarish, monitoring qilishda davlat tomonidan o’rnatilishi lozim bo’lgan xalqaro standart indikatorlar va ularni implemintatsiya qilish masalalari haqida to’xtalishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Ma’lumki, Inson huquqlari sohasida ta’lim indikatorlarini joriy etish bo’yicha milliy hujjatlarni tayyorlash tajribasi AQSH tomonidan amalga oshirilgan va o’rganish natijalari bo’yicha xulosalar BMTning 2014 yil sentyabr oyida bo’lib o’tgan 22-sessiyasida taqdim etilgan.

---

<sup>86</sup> Author Freja Marie Gaare Larsen “The Gold indicators” 2015 y The Danish institute for Human Rights [www.humanrights.dk/tilgaengelighed](http://www.humanrights.dk/tilgaengelighed)

Mazkur xulosalarga asosan BMT tomonidan davlatlarda inson huquqlari sohasida ta'limni rivojlanish darajasini monitoring qilish va baholash bo'yicha maxsus xalqaro indikatorlarni o'z ichiga olgan ta'lim deklaratsiyasi yaratilib, bu bo'yicha qo'llanma dastur 2020 yilda dunyo hamjamiyati e'tiboriga taqdim etilgan<sup>87</sup>.

Ushbu dasturda inson huquqlari sohasida ta'limni rivojlanish darajasini baholovchi 4 ta yo'nalish indikatorlari nazarda tutiladi. Ya'ni:

- Inson huquqlari sohasida ta'lim va treningni Milliy rejalashtirish;
- Rasmiy ta'lim sektorida inson huquqlari ta'limi va treningi;
- Huquqni muhofaza qiluvchi va harbiy organlar uchun inson huquqlari ta'limi va treningi;
- Davlat xizmatchilari, tibbiyot xodimlari, ijtimoiy soha xodimlari, jurnalistlar va boshqa doiradagi mutaxassislar uchun inson huquqlari ta'limi va treningi.

Albatta mazkur sohalar doirasidagi indikatorlar turli so'rovnomalar va intervyular o'tkazish, statistik ma'lumotlarni to'plash, davlat idoralaridan rasmiy ma'lumotlarni olish orqali mavjud real holatni ko'rsatib berishga yo'naltirilgan.

Sanab o'tilgan 4 yo'nlash doirasida jami 100 ta indikator va 328 ta subindikator yaratilgan bo'lib, indikatorlarning aksariyati "ha" yoki "yo'q" javobi orqali holatni ifodalashga, subindikatorlar esa statistik ma'lumotlar, so'ronoma va intervyular, rasmiy yozma ma'lumotlar to'plash orqali asosiy indikatorlar natijalari haqida yanada aniqroq ma'lumot berishga xizmat qiladi. Masalan:

**Indikator:** *Davlatda inson huquqlari ta'limini rivojlantirish dasturi yakunlanganmi?* **Javob:** "ha" yoki "yo'q"

**Subindikator:** *Rejani ishlab chiqish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar. Rejani tayyorlashning hozirgi holati. Rejani yakunlash uchun kutilayotgan harakat.* **Javob:** statistik va matnli ma'lumotda qayd etiladi.

**Yoki:**

---

<sup>87</sup> Human Rights Education framework: Key indicators to monitor and assess the implementation of human rights education and training. HRE2020. <https://www.hre2020.org>

**Indikator:** *Huquqni muhofaza qiluvchi va harbiy xodimlarga inson huquqalari sohasida ta'lim beruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot bormi?* **Javob:** “*ha*” yoki “*yo'q*”

**Subindikator:** *Istisoslashtirilgan tashkilotni tashkil etish uchun bajariladigan harakatlar.*

*Dastur uchun vaqt oralig'i.*

*Dasturni nazorat qilish uchun mas'ul shaxs.*

*Xodimlarni o'qitishda ishtirok etadigan hamkorlar.*

*Ajratilgan byudjet.*

**Javob:** *statistik, matnli va raqamli ma'lumotda qayd etiladi.*

**Yoki:**

**Indikator:** *Davlat xizmatchilari, tibbiyot xodimlari, ijtimoiy xizmat xodimlari, jurnalistlar va boshqa soha mutaxassislari uchun inson huquqlari ta'limi sohasida o'quv metodik qo'llanmalar, darsliklar va o'quv dasturlari mavjudmi<sup>88</sup>;*

**Javob:** “*ha*” yoki “*yo'q*”

**Subindikator:** *Darslik, o'quv metodik qo'llanma va dasturlarning sifati (etarli, qat'iy, mustaqil).*

*Inson huquqlari doirasida ta'lim bo'yicha tinglovchida bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish darajasi.*

**Javob:** *intervyu va so'rovnoma natijalarida, shuningdek statistik, va matnli ma'lumotda qayd etiladi.*

Albatta mazkur indikatorlar mamlakatlarda inson huquqlari bo'yicha ta'limni tashkil etilish darajasini monitoring qilish va baholashni nazarda tutadi, biroq har bir davlat xalqaro huquq sub'ekti sifatida xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan ekan unda belgilangan majburiyatlarni ham bajarishni o'z zimmasiga oladi va xalqaro standartlarga monand o'z milliy mexanizmini yaratishga intiladi.

---

<sup>88</sup> The second phase of the World Programme for Human rights education focuses on the training of civil servants, and the third phase focuses on strengthening the implementation of the first two phases and promoting human rights training for media professionals journalists.

Bugungi kunda BMTning mazkur xalqaro ta'lim indikatorlari doirasida aksariyat Yevropa mamlakatlari, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Isroil, Kanada, Singapur va boshqa qator mamlakatlar o'zlarining milliy indikatorlarini ishlab chiqdilar va bu borada ichki monitoring tadbirlarini olib borish orqali inson huquqlari sohasi ta'limida oqsayotgan muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqdalar.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida inson manfaatlari turar ekan bu borada, avvalo davlat idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining sohaga doir kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, inson huquqlarini xalqaro darajada ta'minlash mexanizmlarini milliy huquq tizimimizga joriy etish kabi aniq vazifalarni amalga oshirish zaruratini taqozo etadi.

Inson huquqlari sohasida ta'lim xalqaro standartlarini implimentatsiya qilish orqali, zamonaviy milliy huquq normasi vujudga kelishi bilan birga, inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlash sohasida xalqaro darajada yetarli bilim va malakaga ega bo'lgan davlat idoralari va huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan inson huquqlarini samarali ta'minlanishi bo'yicha ijobiy natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

**Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki**, mazkur bobda bayon etilgan inson huquqlari sohasida indikatorlarni shakllantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi, ularning xalqaro indekslar doirasidagi o'rni va nufuzi, xalqaro tashkilotlar tomonidan sohada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil etishdan asosiy maqsad zamonaviy indikatorlarni milliy huquq tizimimizga implemintatsiya qilish orqali inson huquqlarini himoya qilishning samarali usul va vositalarini nazariy asoslarda ko'rsatish va bu borada taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Inson huquqlari sohasida milliy indikatorlarni shakllantirishning nazariy asoslarini yaratmasdan, bu borada aniq mexanizmlarni ishlab chiqmasdan turib belgilangan maqsad va vazifalarga erishishga bo'lgan harakat davlat va uning vakolatli organlari uchun murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

### **III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BO'YICHA MILLIY INDIKATORLARNI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

#### **3.1. Milliy huquq tizimida indikatorlarni shakllantirish va takomillashtirish zarurati, ularning davlat siyosatidagi o'rni va roli.**

Albatta har bir xorijiy davlatlar singari bugungi kunda mamlakatimizda ham inson huquqlari sohasida qator islohotlar olib borilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa insonlarning huquq va manfaatlarni davlat tomonidan samarali ta'minlanishiga erishish, buzilgan huquqlarini tiklashning xalqaro standartlar darajasida tiklash bo'yicha mexanizmlarni takomillashtirish orqali inson qadrini yuksak darajada e'zozlashdan iboratdir.

Mazkur bobda biz, "Mamlakatimizda inson huquqlarini to'liq ta'minlanishiga erishish uchun indikatorlar kerakmi? Bugungi kunda ularni yaratish zarurati qanchalik muhim? Bu borada bugungi kunga qadar davlat tomonidan qanday ishlar amalga oshirildi? Indikatorlarni yaratish zarurati vujudga kelgan bo'lsa bu borada kelgusida qanday vazifalarni amalga oshirish zarur?" degan savollarga javob berishga va bu borada aniqlangan muammolarga nazariy jihatdan yechim berishga harakat qilamiz.

Yuqoridagi boblarda ta'kidlaganimizdek, indikatorlar mamlakatda mavjud bo'lgan real holatni sifat va miqdoriy jihatdan aniq ifodalashga xizmat qiluvchi ko'rsatkichlar bo'lgani singari, inson huquqlari sohasidagi indikatorlar ham mamlakatda insonga tegishli bo'lgan huquqlarni qay darajada ta'minlanayotganligini sifat va miqdoriy jihatdan aniqlab berishga yordam beruvchi me'zon hisoblanadi.

Bu mezonlarni yaratish orqali davlatning mavjud huquq normalari mamlakatda qay darajada ta'minlanayotganligi, huquq normalariga nisbatan insonlarning munosabati, davlat idoralari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarda

inson huquqlarini ta'minlanish darajasi ahvoli va ijtimoiy munosabatlarni boshqa davlatlar tajribasi bilan taqqoslash imkoni paydo bo'ladi.

Xo'sh, buguni kunga qadar mamlakatimizda qabul qilingan normativ hujjatlarda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan mezonlar, ko'rsatkichlar (indikatorlar) mavjudmi?

Albatta mavjud! Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinig 21.02.2022 yildagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentinig 14.01.2021 yildagi "O'zbekiston Respublikasida huquq ustuvorligini ta'minlash holatini aniqlashning samarali mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4951-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.04.2019 yildagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 31.07.2021 yildagi "Yoshlarga oid davlat siyosatining hududlarda amalga oshirilishi bo'yicha reyting tizimini joriy etish to'g'risida"gi SQ-361-IV-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23.06.2020 yildagi PF-6012-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2022 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 29.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni<sup>89</sup> va boshqa normativ hujjatlarda inson huquqlariga taaluqli ayrim indikatorlar, baholash mezonlari xususida ta'kidlangan.

Biroq tan olish kerak, ushbu normativ hujjatlarda inson huquqlarini davlat tomonidan ta'minlanishi lozim bo'lgan 58 ta xalqaro inson huquqi standartlari to'liq qamrab olinmagan, inson huquqlarini himoya qilishi sohasidagi indikatorlarni yaxlit tizimi va ularni amalga oshirish mexanizmi yoritib

---

<sup>89</sup> www.lex.uz

berilmagan, indikatorlar asosan strukturaviy turda shakllantirilib, jarayonni ifodalovchi va natijani ko'rsatuvchi turlari keltirilmagan, "inson huquqlari indikator" tushunchasi qonun hujjatlarida aks ettirilmagan va eng muhimi bugungi kunga qadar mamlakatimizda inson huquqlari sohasida milliy indikatorlar tizimini yaratish va amalga oshirish mexanizmlarini belgilab beruvchi aniq bir normativ hujjat mavjud emas.

Bu esa mamlakatimizda inson huquqlari sohasida indikator turlari, tizimi, shakllari, ularni amalga oshirish mexanizmi, bu borada vakolatli organlar vazifalarini o'z ichiga olgan aniq huquqiy hujjatni yaratish zaruratini taqqozo etadi.

Albatta so'nggi yillarda mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlash sohasida qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Bu borada ayniqsa Inson huquqlari bo'yicha milliy Markaz, Oliy Majlis huzuridagi inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman), prokuratura organlari va Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilgan ishlar diqqatga sazovordir.

Masalan, Inson huquqlar bo'yicha milliy Markaz tomonidan "BMTning Inson huquqlari sohasida o'qitish va tayyorlash to'g'risida"gi Dekloratsiyasini amalga oshirish bo'yicha Milliy harakat dasturi ishlab chiqilishi va bu borada davlat idoralari xodimlarini inson huquqlari sohasida bilim va kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha o'quv kurslarini muntazam tashkil etib kelinayotganligi, sohada xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish orqali turli tadbirlar va forumlarni tashkil etilayotganligi mamlakatimizda inson huquqlari sohasida ta'limni yangi bosqichga olib chiqishga zamin yaratmoqda<sup>90</sup>.

Shuningdek, prokuratura organlari tomonidan esa 2021 yil davomida 4.187 nafar fuqarolarning 7 mlrd so'm kechiktirilgan ish haqi va to'lovlari undirib berildi, 170 mingga yaqin aholi, jumladan 46.802 nafar yoshlar va 34.804 nafar xotin-qizlar ishga joylashtirildi, 152.592 ta ehtiyojmand oilaga har tomonlama ko'mak ko'rsatilib, 146.365 ta oila mahalliy kengash qarorlari asosida ehtiyojmand

---

<sup>90</sup> <https://www.insonhuquqlari.uz>



oilalar ro'yxatidan chiqarildi, 269.906 ta jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar ko'rib chiqib hal etildi<sup>91</sup>.

Adliya vazirligi tomonidan 2021 dil davomida joylarda inson huquqlarini himoya qilish sohasida 250 dan ortiq o'rganishlar o'tkazilib, 530 dan ortiq taqdimnoma, 580 dan ortiq ogohnomalar kiritildi, sohada xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan 294 nafar xodim intizomiy jazoga tortildi, 271 nafar mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari qo'llash yuzasidan vakolatli organlarga takliflar kiritildi, korxonalar va tashkilotlardan fuqarolar foydasiga 5.1 mlrd sum ish haqi va boshqa mablag'lar sudgacha undirib berildi, "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylarida yolg'iz keksalar va nogironlarni rasmiylashtirish tartibi va u yerda yaratilgan shart-sharoitlar holati o'rganildi<sup>92</sup>.

Biroq shu bilan birga sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar xali anchagina ekanligini BMTning Inson huquqlari qo'mitasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mitasi va boshqa qator shartnomaviy organlarning mamlakatimiz uchun yo'llagan tavsiyalari yaqqol ko'rsatib berdi.

Jumladan, BMTning Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar bo'yicha Qo'mitasining mamlakatimizda olib borilgan kuzatishlar yakuni bo'yicha beshinchi davriy ma'ruzasida garchi xalqaro huquq normalari milliy qonun hujjatlariga nisbatan ustuvorlik hususiyatiga ega bo'lsada "Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Pakt" va ushbu Paktning fakultativ protokollari normalari sudlarda qo'llanilmayotganligi, sud hokimiyati mustaqilligiga ijro hokimiyati va qonun chiqaruvchi hokimiyat aralashuviga qonun normalarining o'zida yo'l qo'yilganligi, Oliy Majlis huzuridagi Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman)ni tanlash va tayinlashning shaffof mexanizmi yo'qligi va uning faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarning mavjudligi, fuqarolik jamiyati tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazishda ma'muriy to'siqlarning mavjudligi sababli ularning soni kamligi, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan inson huquqlarini hurmat

---

<sup>91</sup> <https://www.senat.uz>

<sup>92</sup> <https://www.minjust.uz>

qilish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazaning kamligi, mamlakatda qochqinlar va boshpana izlovchilar uchun iqtisodiy va ijtimoiy huquqlaridan foydalanish bo'yicha huquqiy va siyosiy aoslarning yo'qligi, nogironlar iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini amalga oshirishda to'siqlarga duch kelayotganligi, ayollar erkaklarga nisbatan kam ish haqi olishi va xotin-qizlar mehnat qilishda norasmiy sektorlarga jamlanganligi, ularning oliy va o'rta ta'limda qamrov darajasi pastligi hamda rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushining nisbatan kamligi, paxta terimi davrida ayrim hollarda majburiy mehnat holatlari kuzatilayotganligi, mamlakatda belgilangan eng kam ish haqining miqdori xodimlar va ularning oila a'zolarining munosib turmushini ta'minlashga yetmasligi, mehnat inspeksiyalarining eng kam ish haqini bajarilishini ta'minlash bo'yicha norasmiy sektorlarda tekshirishlar o'tkazish bo'yicha vakolati yo'qligi, orta ta'limdan so'ng ta'lim yoki kasbga yo'naltirilgan qizlarning kamligi, takshkilotlarda kasaba uyushmalarini tashkil etish maqsadida ularni adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tishi shartligi bois 2016 yildan buyon ular soni sezilarli darajada ko'paymagani va ularda xodimlarning ishtiroki darajasi pastligi, ish tashlashda doir me'yoriy-huquqiy baza yo'qligi, ijtimoiy nafaqalarning yetarli emasligi va ayrim aholi guruhlari uchun berilmasligi, chekka hududlarda istiqomad qilayotgan bolalar uchun oila yoki muqobil parvarishning yetarli darajada emasligi va kam ta'minlangan, marginal guruhga mansub bolalar haqidagi ma'lumotlarni to'plash tizimi mavjud emasligi va boshqa shu kabi inson huquqlari bilan bog'liq muammoli vaziyatlardan xavotirda ekanligini bildirib, ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan o'z tavsiyalarini bergan<sup>93</sup>.

Shuningdek, bu kabi kuzatishlar natijasi yuzasidan tavsiyalar BMTning Ayollarga nisbatan kamsitilishlarga barham berish Qo'mitasi tomonidan 01.03.2022 yilda<sup>94</sup> va Inson huquqlari qo'mitasi tomonidan 02.04.2020 yilda<sup>95</sup> mamlakatimiz uchun taqdim etilgan edi.

---

<sup>93</sup> UN Committee on Economic, Social and Cultural Rights. Concluding observations on the third periodic report of Uzbekistan. 31.03.2022. E/C/12/UZB/CO/3

<sup>94</sup> UN Committee on the Elimination of Discrimination against Women. Concluding observations on the sixth periodic report of Uzbekistan. 01.03.2022. CEDAW/C/UZB/CO/6

Albatta bu tavsiyalarda qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish davlat va uning vakolatli organlaridan katta mehnatni talab etadi.

Ana shunday sharoitda inson huquqlari sohasida indikatorlarni yaratish zarurati paydo bo'ladi.

Chunki, davlatda mavjud qonun hujjatlarini xalqaro standartlar darajasida bajarilayotganligi holatini aniqlash va baholash hususiyati faqatgina indikatorlarda jamlangan. Aynan ushbu indikatorlar mavjud normalarni mamlakatda qay darajada ishlayotganligi holatini bizga ko'rsatib beradi.

Aytaylik mamlakatda gender tengligini ta'minlash yuzasidan qonun qabul qilinishining o'zi bu boradagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib qo'ymaydi. Buning uchun albatta ushbu qonun normasida nazarda tutilgan qoidalar aholi o'rtasida qanday tadbiriq etilayotganligi, ushbu qonunga aholining munosabati darajasi, bu borada vakolatli organlar tomonidan amalga oshirilayotgan vazifalar ko'lamini, davlat tomonidan qonunni amalga oshirish uchun belgilangan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligi va shu kabi holatlarni faqatgina sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar orqali aniqlash va baholash mumkindir.

Masalan, huquq normasida "davlat tomonidan xotin-qizlarning siyosiy hayotda faolligini oshirish uchun zarur va etarli shart-sharoitlar yaratilishi lozim" degan qoidani talqin etishda eng avvalo "xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi faolligi" xalqaro standartlarda qanday munosabatlarni qamrab olishini tushunishiniz lozim.

BMTning shartnomaviy organlari va mamlakatlarning sohaga doir xalqaro reytingini baholovchi tashkilotlar tomonidan "xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi faolligi" asosan 3 ta indikator doirasida aniqlanadi ya'ni:

- 1) Parlamentdagi ayollar ulushu (%)
- 2) Vazirlik lavozimlarida ishlaydigan ayollar ulushi (%)
- 3) Idoralarda rahbarlik lavozimlaridagi ayollar va erkaklar nisbati (50)<sup>96</sup>

---

<sup>95</sup> UN Committee Human Rights. Concluding observations on the fifth periodic report of Uzbekistan. 02.04.2020. CCPR/C/UZB/CO/5 <https://tbinternet.ohchr.org>

<sup>96</sup> World Economic forum. Global Gender Gap Report 2021; Insight report march 2021. [www.weforum.org](http://www.weforum.org)

Mazkur asosiy indikatorlar doirasida subindikatorlar shakllantiriladi va davlat tomonidan muayyan vaqtga mo'ljallangan chora-tadbirlar belgilanib, ushbu natijaga erishish yo'lida faoliyat muntazaam monitoring qilib boriladi va baholanadi.

Yoki migratsion munosabatlarni olaylik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida "O'zbekiston Respublikasining fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir" deb belgilangan.

Albatta mazkur qoida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 13-moddasi talablariga asoslangan bo'lib, unda "Har bir inson har bir davlat doirasida erkin yurish va yashash joyi tanlash huquqiga egaligi, har bir inson har har qanday mamlakatdan chiqib ketish va o'z mamlakatlariga qaytib kelish huquqiga ega" ekanligi belgilangan.

Mazkur xalqaro normalar 4 ta ya'ni "**erkin yurish**", "**erkin yashash joyini tanlash**", "**mamlakatdan chiqib ketish**" va "**o'z mamlakatlariga qaytib kelish**" kabi ijtimoiy munosabatni qamrab oladi va har bir insonning erkin harakatlanish huquqiga ega ekanligi prinsipiga asoslanadi.

Mamlakatimiz konstitutsiyasida esa 3 ta ya'ni "bir joydan ikkinchi joyga ko'chish", "**mamlakatdan chiqib ketish**" va "**o'z mamlakatlariga qaytib kelish**" kabi ijtimoiy munosabatni qamrab olingan va eng asosiysi bu huquqlar har bir inson uchun emas, aynan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchungina tadbiq etilishini tushunish mumkin.

Bu borada ayniqsa, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent L.Isoqovning "Yangi O'zbekiston" gazetasida "Konstitutiya va migratsiya" sarlavhasi ostida nashr etilgan maqolasida aynan yuqorida sanab o'tilgan jihatlarga alohida to'xtalib o'tilib har bir insonning "erkin yashash joyini tanlash huquqi"

(место пребывания) “erkin yurish” huquqidan tubdan farq qiluvchi ijtimoiy hodisa ekanligini aniq tushuntirib berilgan<sup>97</sup>.

Bu esa milliy huquq normalarini xalqaro standartlarga moslash va bo'shliqlarni to'ldirish orqali har bir ijtimoiy munosab doirasida milliy indikatorlarni to'g'ri shakllantirishni taqozo etadi.

Xalqaro migratsiya tashkiloti tomonidan 2021 yilda nashr etilgan “Global Migration Indicators 2021” nomli mamlakatlar uchun statistik va uslubiy qo'llanmada davlatlar tomonidan asosiy standart bo'lgan 20 ta ko'rsatkich (indikator) bo'yicha statistik va matni ma'lumotlar yuritilishi hamda shakllantirilishi lozimligi ta'kidlanadi<sup>98</sup>. Bular quyidagilardir:

Migrant aholi soni	Migrant talabalar	Xavfsiz migrantlar	Migrant ayollar
Migrantlar oqimi darajasi	Pul o'tkazmalari	Mehnat migrantlari soni	Mahalliydashgan migrantlar
Migrantlarning ojizliklari	Migrantlar joyini o'zgartirib turishi	Migrantlar qaytishi ko'rsatkichi	Migrantlar fikri inobatga olinishi
Migrantlar hissasi (tug'ilish nisbati)	Qochoqlar soni	Migrantlar hissasi (barcha sohalarda)	Potensial oshish darajasi
Odam savdosi qurboni bo'lgan migrantlar	Tabiiy ofatlar oqibatida ko'chirilgan migrantlar ulushi	Migrant bolalar	Migrantlarga doir ma'lumotlarni yuritilishi

Davlat tomonidan aynan mazkur indikatorlar doirasida migrantlar huquqlariga doir subindikatorlar shakllantirilishi, bu borada monitoring tadbirlari olib borilishi va aniq mavjud holatlarni ifodalovchi ma'lumotlar shakllantirilishi lozim.

Mazkur qoidalardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda migratsiya munosabatlarini tartibga solishga xizmat qiluvchi indikatorlar tizimi loyahasini namuna ko'rinishida taklif etamiz (1-ilovaga qarang).

<sup>97</sup> L.Isoqov (yu.f.f.d.) “Yangi O'zbekiston” gazetasi “Konstitutiya va migratsiya” maqolasi 08.06.2022 yil. 113-son.

<sup>98</sup> International Organization for Migration “Global Migration Indicators 2021” Geneva 19 Switzerland. [www.migrationdataportal.org](http://www.migrationdataportal.org) [www.iom.int](http://www.iom.int)

### **3.2. Milliy indikatorlarni shakllantirishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish choralari.**

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy indikatorlarni shakllantirishda qator nazariy va amaliy muammolar mavjud bo'lib, ushbu muammolarni hal etish zarurati sohani rivojlantirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish orqali bu borada islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Aynan ilmiy tadqiqot ishimizning asosiy maqsad va vazifalaridan biri ham inson huquqlari sohasida xalqaro va rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish orqali milliy huquq tizimimizdagi indikatorlarni shakllantirish borasidagi muammolarni hal etishning nazariy usullarini ko'rsatib beruvchi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdir.

Sohadagi muammolar va ularni hal etish yuzasidan taklif va tavsiyalar quyidagilardan iboratdir:

1. Albatta har bir mamlakatda muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq me'yorlarini joriy etishdan avval ushbu me'yorlarni davlat va jamiyat hayotida amalga oshirish mexanizmlari, usul va vositalarini ko'rsatib beruvchi nazariy asoslarini yaratish, ham xalqaro standart talabi, ham faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Aynan mazkur nazariy asoslar darsliklar, o'quv uslubiy qo'llanmalar, xalqaro tashkilotlarning tavsiyaviy hujjatlari va ta'bir joiz bo'lsa mamlakatning ayrim qonun va qonun osti hujjarlarida ham ifodalanadi.

To'g'ri hozirga kunda qadar qator olimlar va huquqshunoslarimiz jumladan, A.Mo'minov va M.Tillabayev<sup>99</sup>, O.Tadjibaeva va N.Ramazonova<sup>100</sup>, G.Yuldasheva, N.Gafurova va Z.Borsieva<sup>101</sup>larning darsliklarida inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari, uning xalqaro va milliy huquq tizimidagi o'ziga hos xususiyatlari, inson huquqlarini himoya qilishning usul va vositalari, bu borada

---

<sup>99</sup>. A.Mo'minov va M.Tillabayev "Inson huquqlari" darslik. Toshkent. Adolat 2013 yil

<sup>100</sup> O.Tadjibaeva va N.Ramazonova "Inson huquqlari" darslik. Toshkent. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" 2010 yil

<sup>101</sup>. G.Yuldasheva, N.Gafurova va Z.Borsieva "Inson huquqlari" darslik. Toshkent. TDYuU 2014 yil

davlat organlarining vazifalari va boshqa ko'pgina ijobiy tomonlari yoritib berilgan, biroq aynan bu borada milliy indikatorlarni shakllantirish, takomillashtirish masalalari, ushbu indikatorlarni davlat va jamiyat hayotga tadbiq etish orqali inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini yaratish masalasi yoritib o'tilmagan.

Bu borada darslik, o'quv uslubiy qo'llanma va boshqa turdagi adabiyotlarni yaratmasdan turib milliy indikatorlarni shakllantirish yoki takomillashtirish masalasi davlat uchun kutilgan natijani taqdim etmaydi.

Yuqordagilarni inobatga olib mamlakatimizda inson huquqlari sohasida milliy indikatorlarni nazariy asoslarini qamrab oluvchi o'quv adabiyotlari, usubiy qo'llanmalarni yaratish, shunigdek sohada indikatorlar tizimini shakllantirish yuzasidan 3 ta soha vakillari, ya'ni huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat tashkilotlari, muassasalari va idoralari (masalan, tibbiyot, ta'lim, bandlik, pensiya jamg'armasi va h.k) xodimlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillari (jurnalistlar, OAV xodimlari, kasaba uyushmalari, NNT lar va h.k)ni bu boradagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish, o'quv durturlarini yaratish orqali xalqaro standart me'yorlariga va sohada kutilayotgan yutuqlarga erishgan bo'lamiz.

**2.** Har bir davlat o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarga erishish yo'lida ushbu maqsadga erishishning muayyan chora-tadbirlarini belgilaydi hamda mazkur tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi, usul va vositalarini ko'rsatib beruvchi tizimni yaratadi.

Afsuski, bugungi kunda huquqiy hujjatlarimizda "inson huquqlari sohasida indikatorlar" tushunchasi, sohadagi indikatorlar tizimi, turlari, har bir indikatorning maqsad va vazifasi nimadan iboratligi, indikatorlarning tarkibi (subindikatorlar), indikatorlarni amalga oshirish mexanizmi, bu borada davlat idoralarining vazifasi va boshqa qator asosiy hususiyatlari ifodalab beruvchi qoidalar to'liq yoritib berilmagan va tushuntirilmagan.

Masalan, birgina BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy masalalar Qomitasi tomonidan 210 ta davlat miqyosida yuritiluvchi "Sustainable

Development Goals” xalqaro tarmog’ida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning mexanizmi, usul va vositalari, monitoring va baholash me’zonlarini ko’rsatib beruvchi maxsus uslubiy dastur yaratilgan<sup>102</sup>. Ya’ni: (misol uchun)

Voyaga etmaganlarni erta va majburiy nikoh holatlarini tugatish hamda xotin-qizlarni jinsiy a’zolarini kesish holatlarini yo’q qilish (5.3-vazifa) indikatori 2 ta subindikatoridan, ya’ni 5.3.1-subindikator (15 yoshgacha va 18 yoshdan oldin turmush qurgan 20-24 yoshli ayollar ulushi) va 5.3.2-subindikator (14-49 yoshli xotin-qizlarni jinsiy a’zolarini kesilishi bo’yicha soni va ulushi) dan iborat bo’lib, ushbu indikatorlarni amalga oshirish metodlari sifatida:

**Vakolatli organlar:** sog’liqni saqlash vazirligi, bola huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar, fuqarolik jamiyati tuzilmalari, statistik organlar va diniy muassasalar.

**Qamrov darajasi:** 14-49 yoshdagi xotin-qizlar uchun mamlakat miqyosida, 15-19 yoshdagi xotin-qizlar uchun hududiylik bo’yicha tanlov asosida o’tkaziladi va 50 foiz xotin-qizlar qamrab olingan taqdirda so’rov o’tkazilgan hisoblanadi.

**O’tkazish davriyligi:** yilda bir marta, dekabr-fevral oylari.

**Ma’lumotlarni to’plash usullari:** xonadon bo’yicha o’tkaziladigan suhbat, muassasalarda o’tkaziladigan tibbiy ko’rik, diniy muassasalar va tibbiyot muassasalaridagi murojaatlar asosida.

**Mezonlari:** to’plangan ma’lumotlarning so’nggi va ishonchliligi, rasmiy usullarda to’planganligi, hududiy aholi darajasini o’zida aks ettirishi, qanday usulda to’planganligi, avvalgi ma’lumotlarga muvofiqligi, ma’lumotlarning sir saqlanishi va davlat idoralari tomonidan kafolatlanishi kabilar sanab o’tilgan.

Bu kabi amalga oshirish mexanizmlari har bir indikator doirasida alohida belgilab berilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “inson huquqlari sohasida indikatorlar” tushunchasi, sohadagi indikatorlar tizimi, turlari, har bir indikatorning maqsad va vazifasi nimadan iboratligi, indikatorlarning tarkibi (subindikatorlar), indikatorlarni amalga oshirish mexanizmi, bu borada davlat idoralarining vazifasi

---

<sup>102</sup> <https://unstates.un.org>



va boshqa qator asosiy hususiyatlari ifodalab beruvchi huquqiy hujjatni (masalan, yo'riqnoma yoki nizom) yartish orqali inson huquqlari sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni baholash va monitoring qilish bo'yicha milliy mexanizmni shakllantirgan bo'lamiz.

**3.** Inson huquqlari sohasidagi milliy indikatorlarni shakllantirishning asosiy manbai bu xalqaro tashkilotlar tomonidan sohaga doir ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanmalar, dasturlar va xalqaro huquqiy hujjatlardir.

Aynan mazkur xalqaro standartlarni milliy huquq tizimiga implemintatsiya qilish orqali mavjud ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normasi, baholash mezonlari va monitoring mexanizmlari yaratiladi.

Biroq, ayrim xalqaro standart darajasida e'tirof etilgan indikatorlarni milliy huquq tizimimizga implemintatsiya qilishda ayrim muammolar, xususan sohaga doir ayrim indikatorlarni to'liq imlemintatsiya qilmaslik, subindikatorlarni nazardan chetda qoldirish kabi holatlar kuzatiladi. Vaholanki, subindikatorlar sohaga doir indikatorlarning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, muayyan ijtimoiy jarayonni aniq ifodalab berishga xizmat qiladi.

Masalan, "KidsRight Index" xalqaro baholash me'zoni talqiniga ko'ra, mamlakatlarda bolalar huquqlarini ta'minlanganlik darajasini baholash 5 ta asosiy indeks doirasida 20 ta indikatorni nazarda tutadi<sup>103</sup>. ya'ni:

**Yashash huquqi (3 ta indikator):**

1. 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi darajasi;
2. tug'ilishdan keyin umr ko'rish darajasi;
3. onalar o'limi ko'rsatkichi;

**Sog'liqni saqlashga bo'lgan huquq (4 ta indikator):**

4. kam vazndan aziyat chekayotgan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushi;
5. 1 yoshgacha bo'lgan bolalarni emlash ko'rsatkichi;
6. bolalarni sifatli tibbiy xizmat va binolardan foydalanish

---

<sup>103</sup> Quantitative data published and regularly updated by UNICEF [www.data.unicef.org](http://www.data.unicef.org) UNDP [www.hdr.undp.org/data](http://www.hdr.undp.org/data)

ko'rsatkichi (shahar va qishloqlarda);

7. bolalarni sifatli toza ichimlik suvidan foydalanish ko'rsatkich (shahar va qishloqlarda);

**Ta'limga bo'lgan huquq (3 ta indikator):**

8. qiz bolalarni maktablarda o'qishining davomiyligi;
9. o'gil bolalarni maktablarda o'qishining davomiyligi;
10. maktablarda gender tengsizligi ko'rsatkichi.

**Himoyalanihga bo'lgan huquq (3 ta indikator):**

11. bolalar mehnati ko'rsatkichi;
12. o'smirlik davrida tug'ish yoshi ko'rsatkichi;
13. tug'ilishni ro'yxatga olish ko'rsatkichi;


**Tabiiy huquq (7 ta indikator):**

14. kamsitilmaslik ko'rsatkichi (diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik);
15. bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta'minlash ko'rsatkichi;
16. bolalar manfaatlariga doir qonunchilik ko'rsatkichi;
17. bolalar manfaati uchun davlatning budget tizimi ko'rsatkichi;
18. bolalarni jamiyatdagi ishtirokini hurmat qilish ko'rsatkichi;
19. bolalar manfaatlariga doir ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish ko'rsatkichi;
20. davlat va jamiyat hayotida bolalar ishtirokini ta'minlash va hamkorlik qilish ko'rsatkichi;

Biroq negadir mazkur indikatorlarni implemintatsiya qilish jarayonida bolalarning tabiiy huquqlarini ta'minlanganlik darajasini baholovchi 7 ta indikator implemintatsiya qilinmagan. Vaholanki, har bir davlatda istiqomad qilayotgan bolalarda tug'ilganidan boshlaboq tabiiy huquqlari vujudga keladi.

(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.04.2019 yildagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son Qarorining ilovasiga qarang.)

Oqibatda, "KidsRight Index" doirasida 182 dunyo mamlakatlari o'rtasida 2021 yilda o'tkazilgan xalqaro baholashda O'zbekistonda bolalarning tabiiy huquqlarini ta'minlash bo'yicha indikatorlar shakllantirilmaganligi qayd etilib, ushbu indeks qolgan 4 ta indeksga nisbatan pastroq reytingda baholangan. Ya'ni:



- yashash huquqi ko'rsatkichi bo'yicha - 0,809 ball (102);
- sog'liqni saqlashga bo'lgan huquqni ta'minlash - 0,972 ball (30-o'rin);
- ta'limga bo'lgan huquqni ta'minlash - 0,685 ball (101);
- himoyalanihga bo'lgan huquqni ta'minlash - 0,951 ball (47);
- tabiiy huquqlarini ta'minlash ko'rsatkichi - 0,429 ball (124-o'rin);

Bu kabi holatlarni “Sustainable Development Goals” (Barqaror rivojlanish maqsadlari) va “Rule of law” (Huquq ustuvorligi) indeksi doirasidagi indikatorlarni implementatsiya qilish natijalarida ham kuzatish mumkin.

Bu esa inson huquqlari sohasida aniqlanishi va baholanishi lozim bo'lgan munosabatlarni to'liq ifodalanmasligida, mavjud real holatni ko'rsatib berish imkoni yo'qolishiga va eng asosiysi huquq normalarini xalqaro standart me'yorlar talablariga javob bermasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Mazkur holatlardan kelib chiqib, xalqaro tashkilotlar tomonidan yaratilgan inson huquqlari sohasidagi indikatorlarni implementatsiya qilish amaliyotidan imkon qadar to'liq va samarali foydalanish, mavjud huquq normalarimizdagi indikatorlar tizimini xalqaro standartlar darajasida to'ldirish, bunda milliy qadriyatlarimizni inobatga olgan holda indikator tizimini shakllantirish lozim bo'ladi.

**4.** So'nggi yillarda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik va biznes sub'ektlari tomonidan inson huquqlarini ta'minlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, Germaniya, Daniya, Finlandiya, Buyuk Britaniya va Norvegiya mamlakatlarida aynan biznes sub'ektlari tomonidan ishchi xodimlarning huquqlarini ta'nimlash bo'yicha davlat tomonidan alohida indikatorlar yaratilib, bu indikatorlar doirasida monitoring mexanizmi olib boriladi va yuqori reytingdagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalariga davlat tomonidan alohida imtiyozlar (soliq, kreditlar ajratish, chegara bojlari va boshqa masalalarda) yaratiladi.

Afsuski, mamlakatimizda bugungi kunda tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgan bo'lsada, ular tomonidan faoliyat olib borayotgan ishchi xodimlarning huquqlarini muntazaam ta'minlanayotganligi darajasini baholab borish bo'yicha maxsus indikatorlar va mexanizmlar yaratilmagan.

Bu borada hattoki, BMTning Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar bo'yicha Qo'mitasining mamlakatimizda olib borilgan kuzatishlar yakuni bo'yicha beshinchi davriy ma'ruzasida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan inson huquqlarini

hurmat qilish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazaning deyarli yo'qligi, mehnat inspeksiyalarining eng kam ish haqini bajarilishini ta'minlash bo'yicha norasmiy sektorlarda tekshirishlar o'tkazish bo'yicha vakolati yo'qligini ta'kidlab<sup>104</sup>, bu borada ishlarni yetarli darajada tashkil etish bo'yicha o'z tavsiyalarini berib o'tgan.

Masalan, Germaniya hukumati 2016 yilda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi 50 foiz kompaniyalarda inson huquqlarini hurmat qilish, ta'minlash va buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha 12 ta indikator yaratilib, ushbu indikatorlar doirasida har yilda monitoring tadbirlari tashkil etib borilgan va bu jarayon davlat uchun ham, tadbirkorlar uchun ham, qolaversa ishchi xodimlar uchun ham huquqlarni ta'minlashning qulay vositasi bo'lib xizmat qildi<sup>105</sup>.

**Ya'ni: Boshqaruv bo'yicha:**

**A.1.1** Inson huquqlarini hurmat qilish majburiyati;

**A.1.2** Ishchilar huquqlarini hurmat qilish majburiyati;

**A.1.3** Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish (fuqarolar bilan);

**A.1.4** Yo'l qo'ygan kamchiliklarni tuzatish majburiyati;

**Inson huquqlari masalasida mas'uliyatli bo'lish bo'yicha:**

**B.1.1** Inson ehtiyoji uchun kundalik resurlarni yaratish va huquqlar buzilganda javobgarlikni belgilash;

**B.1.2** Inson manfaatiga ta'sir etuvchi xavf va salbiy holatlarni aniqlash;

**B.1.3** Aniqlangan xavf va salbiy holatlar darajasini baholash;

**B.1.4** Baholash natijalarini imkon qadar kamaytirish bo'yicha chora ko'rish;

**B.1.5** Inson manfaatlariga ta'sir etuvchi omillarni muntazam kuzatib borish;

**Huquqiy himoya vositalari va shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha:**

**C.1.1** Ishchilarning shikoyatlarini qabul qilish mexanizmlari samaradorligi;

**C.1.2** Tashqi shaxslar (masalan, ishchilar oila a'zolari) va tashkilot (masalan, bandlik organi)lar murojaatlarini qabul qilish mexanizmi samaradorligi;

---

<sup>104</sup> UN Committee on Economic, Social and Cultural Rights. Concluding observations on the third periodic report of Uzbekistan. 31.03.2022. E/C/12/UZB/CO/3

<sup>105</sup> Author Herbert Winisto'rfer. Business & Human Rights Resource Centre: "Respect for Human Rights: a snapshot of the largest German Companies". Full Report -2019.

### C.1.3 Salbiy ta'sirlarni bartaraf etish va natijalarni umumlashtirish<sup>106</sup>.

Shu kabi Daniyada ham “1000 islohotlar” dasturi doirasida davlat tomonidan biznes sub'ektlarining inson huquqlarini hurmat qilish madaniyati yuksaltirish borasida alohida indikatorlar yaratilib, ular faoliyatiga tadbiiq etildi.

Mamlakatimizda ham tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishchi xodimlarning huquqlarini hurmat qilish, ta'minlash va buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha maxsus indikatorlarni yaratish orqali inson huquqlarini taminlashning yana bir samarali mexanizmini joriy etgan bo'lamiz.

Bu orqali, birinchidan, inson huquqlarini hurmat qilinish, ta'minlash va himoya qilishida tadbirkorlik sub'ektlarining davlatga ko'maklashishiga, ikkinchidan, huquq normalarini xalqaro standartlar va rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida takomillashishiga, uchinchidan davlatda inson huquqlarini himoya qilishining yana bir samarali mexanizmi yaratilishiga va to'rtinchidan, tadbirkorlar uchun soliq, boj, ichki bozordagi ishtirok va shu kabi imtiyozlarga ega bo'lish imkoniyatlarini yanada ko'payishiga hissa qo'shgan bo'lamiz.

**5.** Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquqlari sohasida indikatorlarning alohida ixtisoslashtirilgan tizimini belgilab beruvchi alohida huquqiy hujjat mavjud emas.

Aksariyat hollarda, mazkur sohaga doir ayrim indikatorlar “Barqaror rivojlanish maqsadlari”, “Huquq ustuvorligi” va boshqa shu kabi indeksleri doirasida ishlab chiqilgan indikatorlar tarkibida sanab o'tilgan xolos.

BMTning Inson huquqlari Qo'mitasi tomonidan 2012 yilda nashr etilgan “Human rights indicators: A Guide to Measurement and Implementation”<sup>107</sup> nomli tahlil ishida davlatlar tomonidan inson huquqlariga doir indikator tizimini shakllantirishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalar xususida so'z yuritiladi va standart indikatorlar ro'yxatini taqdim etadi.

---

<sup>106</sup> Author Herbert Winisto'rfer. Business & Human Rights Resource Cente: “Respect for Human Rights: a snapshot of the larges German Companies”.Full Report -2019.

<sup>107</sup>. HR/PUB/12/5. © 2012 United Nations (New York and Geneva, 2012)

Mazkur qo'llanma davlatlar uchun indikatorlarni asosini shakllantirish uchun dasturul amal bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ushbu dastur asosida bugungi kunda ko'pgina rivolangan Yevropa mamlakatlari, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Turkiya, Boltiq bo'yi mamlakatlari, Janubiy Amerikaning aksariyat davlatlari o'zlarining milliy indikatorlarini yaratish orqali inson huquqlarini ta'minlash mexanizmlarini shakllantirishdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mamlakatimizda inson huquqlari sohasida milliy indikator tizimini qamrab oluvchi yagona huquq normasini yaratish orqali korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa tashkilotlar tomonidan mamlakatda inson huquqlarini ta'minlash darajasi ahvolini aniqlash, monitoring qilish va baholash me'zonlarini shakllantirgan bo'lamiz.

Shu o'rinda, xalqaro va xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish asosida ishlab chiqilgan inson huquqlari sohasidagi milliy indikatorlar tizimi lohiyasini taklif etamiz (2-ildovaga qarang).

**6.** Albatta mamlakatda ma'lum indikatorlar doirasida mavjud real holatni aniqlash, qabul qilinayotgan qonunlarga nisbatan aholining munosabatini o'rganib borish, indikatorlar doirasida aniqlangan muammolarni statistik hisobini yuritish, bu muammolarni hal etishning samarali mexanizmlarini joriy etish davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlaridan ma'lum mas'uliyat va vazifani talab etish bilan bir qatorda ular o'rtasida o'zaro samarali hamkorlikni olib borish, muammolarni birgalikda hal etish maqsadida o'z hisobot natijalaridan xabardor etish kabi vazifasini ham talab etadi.

Indikatorlarni shakllantirish birgina tashkilot va idoraning emas balki butun bir davlat oldidagi asosiy vazifadir. Shunday ekan bu borada korxonalar va tashkilotlar o'rtasida vazifalarni taqsimlash va ushbu vazifalarni bajarilishi natijalaridan barchani, shu jumladan aholi vakillarini ham xabardor etib borish maqsadida yagona aloqa tarmog'i domenini yaratish lozim.

Masalan, 21 asr boshlarida Shotlandiya Inson huquqlari bo'yicha komissiya va Tenglik bo'yicha inson huquqlari komissiyasi o'zaro hamkorlikda Angliya,

Uels va Shotlandiya inson huquqlari indikatorlarini yaratish ustida tadqiqotlar olib borishdi.

Natijada, HRMF (“Human Right Measurment Framework”) loyihasi ish boshladi<sup>108</sup>. Loyiha doirasida qator davlat organlari inson huquqlari idoralari bilan keng ko’lamli maslahatlashuvlar yo’lga qo’yildi va 2010 yilda butun Buyuk Britaniyada onlayn maslahatlashuvlar olib borish va tadqiqot natijalarini joylashtirib borish uchun maxsus veb-sayt yaratildi.

Keng ko’lamli harakatlar oqibatida ichki qonunchilik va xalqaro standartlarni birlashtirgan qator inson huquqlari yo’nalishlari, jumladan yashash huquqi, qiynoqlardan himoyalanih, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, adolatli sud muhokamasiga bo’lgan huquq, shaxsiy va oilaviy hayotga bo’lgan huquq, ta’lim va sog’liqni saqlash huquqi, adekvat turmush darajasiga bo’lgan huquq bo’yicha indikatorlar yaratildi.

Mazkur jarayonlar BMTning vakolatli organlari va xorijiy mamlakat ekspertlari tomonidan yuqori baholandi. Hozirda Buyuk Britaniya inson huquqlari sohasidagi indikatorlari butun dunyoga namuna bo’la oladigan indikatorlar tizimidan iborat bo’lib, ushbu tizim bo’yicha hisobotlar davlatlarning vakolatli idoralari tomonidan belgilangan vaqtda va shaklda maxsus veb-saytga joylashtitib boriladi.

Ushbu veb-sayt davlat nazorati ostida Inson huquqlari bo’yicha Britaniya instituti va London iqtisodiyoti maktabining inson huquqlarini ijtimoiy-siyosiy o’rganish va tahlil etish markazi tomonidan yuritib boriladi.

Yuqoridagilarni inobatda olib, mamlakatimizda sohada milliy indikatorlarni shakllantirishda o’zaro hamkorlikni ta’minlash maqsadida, hisobotlarni joylashtirish, o’zaro muloqotlarni tashkil etish, statistik ko’rsatkichlarni yoritib borish, taklif va tavsiyalarni bildirib borish maqsadida yaqona veb-sayt (masalan, [Inson huquqlari indikator\\_iuz](http://Inson_huquqlari_indikator_iuz) yoki [IH indicator\\_iuz](http://IH_indicator_iuz)) ni tashkil etish orqali faoliyatda samaradorlikka erishgan bo’lamiz.

---

<sup>108</sup> [www.equalityhumanrights.com](http://www.equalityhumanrights.com) EHRC Human Right Measurment Framework;Prototype Panels, Indicator Set and Evidence Base, research report 81 (2011)



7. Inson huquqlari sohasida har bir indikator va subindikatorni yaratish vakolatli idoralardan ma'lum bir mas'uliyat va e'tiborni talab etadi. Chunki har bir indikator qanday ijtimoiy munosabatni aniqlab berishga xizmat qilishi, aniqlangan holatlarda mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etishning imkon qadar soddaroq va osonroq bo'lgan usul va vosiratalarini ko'rsatib berishga xizmat qilishi lozim.

Masalan, "o'rta va kasb-hunar ta'limini bitirgan o'quvchilarning umumiy soni" kabi indikatorni yaratishdan ko'ra, "o'rta va kasb-hunar ta'limini bitirgan o'quvchilarning oliy ta'lim va kasb-hunar bilan ta'minlanganligi qamrovi darajasi" kabi indikatorni yaratish davlat va inson manfaatlari uchun samaraliroq hisoblanadi. Chunki, ushbu indikator bu borada aynan oliy ta'limga yoki kasb-hunarga yo'naltirilmagan, jalb etilmagan bitiruvchilarni bandligini ta'minlash bo'yicha davlatning kelgusidagi vazifalarini belgilab olishiga xizmat qiladi.

Yoki, "bozorlarda aholining birinchi turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining mavjudligi" indikatoridan ko'ra aholining birinchi turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarining ta'minlanganlik darajasi"sini aniqlash indikatorini inson manfaatlari, uning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji qondirilganligi holatini aniqroq ifodalab beradi.

Shu kabi, "mamlakatda kuzatilgan chaqaloqlar tug'ilishi" ko'rsatkichidan ko'ra, "malakali shifokorlar ishtirokida qayd etilgan chaqaloqlar tug'ilishi soni" indikatorini, yoki "ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlari buzilgan shaxslar soni" indikatoridan ko'ra "ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlari buzilishi oqibatida kompensatsiya, tovon puli to'lab berilmagan shaxslar soni" indikatorini shakllantirish davlat uchun inson huquqlarini ta'minlashning samarali mexanizmini yaratishga xizmat qiladi.

Bu borada vakolatli idoralar tomonidan shakllantirilgan indikatorlarni sifati va samaradorligini baholash maqsadida yaratilayotgan indikatorlarni ekspertizadan o'tkazish tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Shu bois, mazkur vakolatni amalga oshirish maqsadida Inson huquqlari bo'yicha Milliy Markaz vakolatini kengaytirish lozim bo'ladi.

Ya'ni uning vakolatlari qatoriga davlat idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilot va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan yaratilgan inson huquqlari sohasidagi milliy indikatorlar va subindikatorlarni ekspertizadan o'tkazish vakolati, ekspertizadan o'tkazish tartibi va muddatlarini belgilovchi normalarni kiritish sohada samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

**Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki,** mazkur tadqiqot ishining asosiy vazifalaridan biri ham inson huquqlari sohasida milliy indikatorlarni shakllantirishning dolzarb masalalari va bu boradagi muammolarni aniqlash, tahlil etish orqali ushbu aniqlangan muammolarni bartaraf etishning usullarini ko'rsatib beruvchi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat edi.

O'ylaymizki, mazkur bildirilgan taklif va tavsiyalarni amalga oshirish orqali mamlakatimizda inson huquqlari sohasida samarali indikatorlar tizimini yaratish va bu indikatorlarni ijtimoiy munosabatlarga tadbiq etishning takomillashgan mexanizmini yaratgan bo'lamiz.

Albatta har bir davlatning amalga oshirayotgan islohotlari zahirida avvalo, inson qadri va uning manfaatlarini yotadi.

Vaholanki, davlat hokimiyatini shakllantirishning yagona va birdan bir manbai xalq ekan, demak davlat ham xalq manfaatlarini, inson huquqlarini demokratik standartlar asosida taminlash maqsadida bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etishi, bu yo'lda milliy qadriyatlarni hurmat qilgan holda, xalqaro va rivojlanga xorijiy mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanishi lozim bo'ladi.

## XULOSA

Mazkur tadqiqot ishi natijalari yuzasidan quyidagi ilmiy-nazariy, tashkiliy va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;

1. Mamlakatimizda inson huquqlari sohasida milliy indikatorlarni nazariy asoslarini qamrab oluvchi o'quv adabiyotlari, usubiy qo'llanmalarni yaratish, shunigdek sohada indikatorlar tizimini shakllantirish yuzasidan 3 ta soha vakillari, ya'ni huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat tashkilotlari, muassasalari va idoralari (masalan, tibbiyot, ta'lim, bandlik, pensiya jamg'armasi va h.k) xodimlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillari (jurnalistlar, OAV xodimlari, kasaba uyushmalari, NNT lar va h.k)ni bu boradagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish va bu bo'yicha o'quv dasturlarini yaratish lozim.

2. Xalqaro tashkilotlar tomonidan yaratilgan inson huquqlari sohasidagi indikatorlarni implimentatsiya qilish amaliyotidan imkon qadar to'liq va samarali foydalanish, mavjud huquq normalarimizdagi indikatorlar tizimini xalqaro standartlar darajasida to'ldirish, bunda milliy qadriyatlarimizni inobatga olgan holda indikator tizimini shakllantirish lozim bo'ladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.04.2019 yildagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son Qarorining ilovasida nazarda tutilmagan bolalarning tabiiy huquqlariga doir ya'ni:

1. kamsitilmaslik ko'rsatkichi (diskriminatsiyaga yo'l qo'yimaslik);
2. bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta'minlash ko'rsatkichi;
3. bolalar manfaatlariga doir qonunchilik ko'rsatkichi;
4. bolalar manfaati uchun davlatning budget tizimi ko'rsatkichi;
5. bolalarni jamiyatdagi ishtirokini hurmat qilish ko'rsatkichi;
6. bolalar manfaatlariga doir ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish
7. davlat va jamiyat hayotida bolalar ishtirokini ta'minlash va hamkorlik qilish kabi ushbu indikatorni milliy qonun hujjatimizda aks ettirishimiz lozim.

3. O'zida "inson huquqlari sohasida indikatorlar" tushunchasi, sohadagi indikatorlar tizimi, turlari, har bir indikatorning maqsad va vazifasi nimadan iboratligi, indikatorlarning tarkibi (subindikatorlar), indikatorlarni amalga oshirish mexanizmi, bu borada davlat idoralarining vazifasi va boshqa qator asosiy xususiyatlarni ifodalab beruvchi aniq huquqiy hujjatni (masalan, yo'riqnoma yoki nizom) yaratish lozim.

4. Mamlakatimizda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishchi xodimlarning huquqlarini hurmat qilish, ta'minlash va buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha maxsus indikatorlarni yaratish lozim.

Bu orqali, birinchidan, inson huquqlarini hurmat qilinish, ta'minlash va himoya qilishida tadbirkorlik sub'ektlarining davlatga ko'maklashishiga, ikkinchidan, huquq normalarini xalqaro standartlar va rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida takomillashishiga, uchinchidan davlatda inson huquqlarini himoya qilishining yana bir samarali mexanizmi yaratilishiga va to'rtinchidan, tadbirkorlar uchun soliq, boj, ichki bozordagi ishtirok va shu kabi imtiyozlarga ega bo'lish imkoniyatlarini yanada ko'payishiga hissa qo'shgan bo'lamiz.

5. BMTning Inson huquqlari Qo'mitasining tahlil ishlari asosida mamlakatimizda korxonalar, tashkilot, muassasalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa tashkilotlar tomonidan mamlakatda inson huquqlarini ta'minlash darajasi ahvolini aniqlash, monitoring qilish va baholash me'zonlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi inson huquqlari sohasida milliy indikator tizimini qamrab olgan yagona huquq normasini yaratish lozim.

6. Milliy indikatorlarni shakllantirishda korxonalar tashkilot va muassasalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlash maqsadida, hisobotlarni joylashtirish, o'zaro muloqotlarni tashkil etish, statistik ko'rsatkichlarni yoritib borish, taklif va tavsiyalarni bildirib borish maqsadida yagona veb-sayt (masalan, [Inson huquqlari indikator.uz](http://Inson_huquqlari_indikator.uz) yoki [IH indikator.uz](http://IH_indicator.uz)) ni tashkil etish lozim.

7. Inson huquqlari bo'yicha Milliy Markaz vakolatini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamsining "Inson huquqlari bo'yicha

O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 399-sonli Qaroriga va ushbu qaror 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi to'g'risida"gi Nizomiga davlat idoralari, korxonalar, muassasa, tashkilot va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan yaratilgan inson huquqlari sohasidagi milliy indikatorlar va subindikatorlarni ekspertizadan o'tkazish vakolati, ekspertizadan o'tkazish tartibi va muddatlarini belgilovchi normalarni kiritish lozim.

8. Bugungi kunda migratsion munosabatlar tobora rivojlanib borayotganligini inobatga olib, insonlarning migratsiya huquqlariga bo'lgan munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan indikatorlar tizimini, monitoring va baholash mexanizmlarini ishlab chiqish lozim.

9. Inson huquqlarini himoya qilish sohasida milliy indikatorlarning asosiy tamoyillari sifatida e'tirof etilgan *diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik* va *disaggregatsiya* tushunchalarining mazmun va mohiyatini yoritib beruvchi normalarni milliy qonun hujjatlarimizda aks ettirish va xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda ushbu mavzularda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, korxonalar, muassasa va tashkilot xodimlari hamda fuqarolik jamiyatining faol vakillari uchun maxsus o'quv kurslarini tizimli tashkil etishni yo'lga qo'yish lozim.

10. O'zbekiston Respublikasi "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi xalqaro konvensiyani ratifikatsiya qilganligini inobatga olib mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari qay darajada ta'minlanayotganligini muntazaam baholash va monitoring qilish maqsadida rivojlangan xorijiy mamlakatlar, xususan Daniya tajribasi asosida ("oltin indikatorlar") zamonaviy indikatorlar tizimini yaratish va huquqiy hujjatlarda aks ettirish lozim.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni talablaridan kelib chiqib, barcha davlat organlari, korxonalar va tashkilotlari tomonidan inson huquqlari sohasida to'plangan sifat va miqdoriy indikatorlar natijalarini belgilangan shaklda va muddatda vakolatli organlarga taqdim etish

tartibini belgilab beruvchi aniq huquq normasini yaratish va bu bo'yicha nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish lozim.

Mazkur ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalarni amalga oshirish orqali ***birinchidan***, mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish, ta'minlash va buzilgan huquqlarini tiklashning samarali usul va vositalarini belgilab beruvchi aniq mexanizmni shakllantirish, ***ikkinchidan***, xalqaro va xorijiy mamlakatlar tajribasini milliy huquq normalarida aks ettirish orqali zamonaviy huquq tizimini yaratish, ***uchinchidan***, mamlakatimiz tomonidan inson huquqlari sohasida xalqaro tashkilotlarga muntazam taqdim etib borilayotgan sifat va miqdoriy indikator ma'lumotlarini to'plash, taqdim etish va baholash bo'yicha faoliyatini osonlashtirishga va ***to'rtinchidan***, mamlakatimizda istiqomad qilayotgan har bir insonning huquq va manfaatlarini xalqaro standart darajasida himoya qilish imkoni yaratiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### XALQARO HUQUQIY HUIJATLAR

1. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (Nyu-york 10.12.1948 yil) BMT Bosh Assambleyasining 10.12.1948 yildagi 217 A (III) ko'rsatmasi asosida [https://www.un.org](https://www.un.org;);
2. "Irqiyl kamsitishning barcha shakllariga barham berish haqidagi Konvensiya" BMT Bosh Assambleyasining 20.11.1963 yildagi 1904/XVSH/rezolyutsiyasi asosida <https://www.un.org>, <https://unic.un.org>;
3. "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt" BMT Bosh Assambleyasining 16.12.1966 yildagi 2200A Qarori bilan tasqiqlangan;
4. "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt" BMT Bosh Assambleyasining 16.12.1966 yildagi 2200A Qarori bilan tasqiqlangan;
5. "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitilishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya" BMT Bosh Assambleyasining 18.12.1979 yildagi Qarori bilan tasqiqlangan <https://www.ohchr.org>;
6. "Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazoga qarshi Konvensiya" BMT Bosh Assambleyasining 10.12.1984 yildagi 39/46-sonli rezolyutsiyasi bilan tasqiqlangan <https://www.ohchr.org>;
7. "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" BMT Bosh Assambleyasining 20.11.1989 yildagi 44/25-sonli rezolyutsiyasi bilan tasqiqlangan <https://www.ohchr.org>;
8. "Barcha mehnatkash migrantlar va ular oila-a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro Konvensiya" BMT Bosh Assambleyasining 18.12.1990 yildagi 45/158-sonli rezolyutsiyasi bilan tasqiqlangan <https://www.ohchr.org>;
9. "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" BMT Bosh Assambleyasining 13.12.2006 yildagi A/RES/61/106-sonli rezolyutsiyasi bilan tasqiqlangan <https://www.ohchr.org>;

10. “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to’g’risidagi xalqaro Pakt”ning fakultativ protokoli BMT Bosh Assambleyasining 10.12.2008 yildagi A/RES/63/117-sonli rezolyutsiyasi bilan tasqiqlangan <https://www.ohchr.org>;
11. “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro Pakt” 1-fakultativ protokoli BMT Bosh Assambleyasining 16.12.1966 yildagi 2200A Qarori bilan tasqiqlangan <https://www.treaties.un.org>;
12. “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro Pakt”ning 2-fakultativ protokoli. BMT Bosh Assambleyasining 15.12.1966 yildagi 44/128-sonli rezolyutsiyasi bilan tasqiqlangan <https://www.ohchr.org>;
13. “Bola huquqlari to’g’risidagi Konvensiya”ning bolalarni foxishalik va bolalar pornografiyasi maqsadida sotishni ta’qiqdash to’g’risida”gi ixtiyoriy protokoli. BMT Bosh Assambleyasining 25.05.2000 yildagi A/RES/54/263-sonli rezolyutsiyasi bilan tasqiqlangan <https://www.ohchr.org>;
14. “Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g’ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazoga qarshi Konvensiya”ning davolanish va jazoni ijro etish muassasalari to’g’risida”gi qo’shimcha protokoli. BMT Bosh Assambleyasining 18.12.2002 yildagi A/RES/57/199-sonli rezolyutsiyasi bilan tasqiqlangan <https://www.ohchr.org>;
15. “Nogironlar huquqlari to’g’risidagi Konvensiya”ning qo’shimcha prokotoli. BMT Bosh Assambleyasining 13.12.2006 yildagi A/RES/61/106-sonli rezolyutsiyasi bilan tasqiqlangan <https://www.ohchr.org>;

## **MILLIY NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

16. “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” 08.12.1992 yil. Yangi tahrir.
17. O’zbekiston Respublikasining “Fuqarolik kodeksi” 01.03.1997 yil. So’nggi tahrir.
18. O’zbekiston Respublikasining “Mehnat kodeksi” 01.04.1996 yil. So’nggi tahrir.
19. O’zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi” 01.09.1998 yil. So’nggi tahrir.
20. O’zbekiston Respublikasining “Jinoyat protsessual kodeksi” 01.04.1995 yil.



21. O'zbekiston Respublikasining 'Sudlar to'g'risida'gi qonuni 29.07.2021 yil
22. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuni 07.11.2001 yil. Amaldagi tahrir.
22. O'zbekiston Respublikasining 07.06.2021 yildagi "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida"gi qonuni.
23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamsining 13.11.1996 yildagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 399-sonli Qarori.
24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022 yildagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-sonli Qarori.
25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022 yildagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligiga ko'maklashishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 203-sonli Qarori.
26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.04.2019 yildagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son Qarori.
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2021 yildagi "O'zbekiston Respublikasida huquq ustuvorligini ta'minlash holatini aniqlashning samarali mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4951-sonli Qarori.
28. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.08.2021 yildagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5217-sonli Qarori.
29. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.06.2020 yildagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indeksdagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi PF-6003-sonli Farmoni.

30. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.06.2020 yildagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-sonli Farmoni.

31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2022 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 29.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni.

32. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 31.07.2021 yildagi "Yoshlarga oid davlat siyosatining hududlarda amalga oshirilishi bo'yicha reyting tizimini joriy etish to'g'risida"gi SQ-361-IV-sonli Qarori.

### **XALQARO, XORIJIY VA MILLIY DARSLIK, USLUBIY QO'LLANMA VA TAVSIYALAR**

33. Danish Institute for Human Rights and Global Alliance of National Human Rights Institutions. "Indicators and data for human rights and sustainable development: a guide for national human right institutions". Copenhagen 2021 y. [www.humanright.dc](http://www.humanright.dc);

34. Raoul Wallenberg institute. "Human rigths cities indicators". 2021 y Istanbul. [www.rwinstanbul.org](http://www.rwinstanbul.org);

35. Cato Institute and the Fraser Institute. "The human freedom index 2021". Copyright © 2021 [www.cato.org](http://www.cato.org);

36. Authored by: LBarlev, Y.Pur, Y.Bachar. "People with Disabilities in Israel 2021 Facts and Figures". Jerusalem 21;

37. International Organization for Migration "Global Mirgation Indicators 2021" Geneva 19 Switzerland. [www.migrationdataportal.org](http://www.migrationdataportal.org) [www.iom.int](http://www.iom.int);

38. Human Rights Education framework: Key indicators to monitor and assess the implementation of human rights education and training. HRE2020. <https://www.hre2020.org>;

39. The list of indicators is adapted from David Kucera and Dora Sari. 2018. "New Labour Rights Indicators: Method and Trends for 2000-2015", International Labour Review (Accepted manuscript online: 9 MAR 2018);

- 40.** York Human Rights Indicator Report 2017, Human Rights: Reclaiming the Positive. [https://www.york.ac.uk/media/cahr/documents/2017\\_Report\\_A4\\_final.pdf](https://www.york.ac.uk/media/cahr/documents/2017_Report_A4_final.pdf)
- 41.** Human Rights Indicators and the Sovereignty of Technique. The Author 2016. Published by Oxford University Press. <http://creativecommons.org/licenses/by/3/0/>;
- 42.** Quantitative data published and regularly updated by UNICEF [www.data.unicef.org](http://www.data.unicef.org) UNDP [www.hdr.undp.org/data](http://www.hdr.undp.org/data);
- 43.** E.Sulaymanova. Assessment of the implementation status of treaty body recommendations on sexual and reproductive health and right in the Republic of Azerbaijan. Baku 2015;
- 44.** Author Freja Marie Gaare Larsen “The Gold indicators” 2015 y The Danish institute for Human Rights [www.humanrights.dk/tilgaengelighed](http://www.humanrights.dk/tilgaengelighed);
- 45.** Sally Engle Merry, ‘Quantification and the Paradox of Measurement’ (AHRI Conference, Copenhagen, September 2014);
- 46.** Office of the High Commissioner for Human Rights (OHCHR), Human Rights Indicators: A Guide to Measurement and Implementation (2012);
- 47.** Sally Engle Merry, 'Measuring the World: Indicators, Human Rights, and Global Governance' (2011) Current Anthropology 83, p. 84;
- 48.** C. Naval, S. Walter and R. Suarez de Miguel, “Measuring human rights and democratic governance: experiences and lessons from Metagora”, OECD Journal on Development, vol. 9, No. 2 (2008);
- 49.** Maria Green, Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), 'Measuring Human Rights and Democratic Governance: Experiences and Lessons from Metagora' (2008);
- 50.** See Malhotra and Fasel, “Quantitative human rights indicators”. This survey is by no means exhaustive. It draws from some attempts at mapping and surveys of human rights and related indicators and some earlier studies, in particular M. Cain, R. Claude and Th. Jabine, “A guide to human rights data sources”, in Human Rights and Statistics: Getting the Record Straight; T. Landman and J. Häusermann, “Map-making and analysis of the main international initiatives on developing indicators on democracy and good governance” (2003);

51. W. Seltzer and M. Anderson, “The dark side of numbers: the role of population data systems in human rights abuses”, *Social Research*, vol. 68, No. 2 (summer 2001);
52. Maria Green, ‘What we talk about when we talk about Indicators: Current Approaches to Human Rights Measurement’ (2001) 23 *Human Rights Quarterly* 1062, p. 1065;
53. *Human Rights Indicators in Development*. Copyright 2010. The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)
54. Joanne Abbot and Irene Gujit, ‘Changing Views on Change: Participatory Approaches to monitoring the Environment’ (1998) *Discussion Papers* 254, p. 40;
55. G.Yuldasheva, N.Gafurova, Z.Borsieva “Inson huquqlari” darslik. Toshkent. TDYuU 2014 yil;
56. A.Mo’minov va TM.Tillabaev “Inson huquqlari” darslik. Toshkent. Adolat 2013 yil;
57. O.Tadjibaeva va N.Ramazonova “Inson huquqlari” darslik. Toshkent. “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” 2010 yil.

### **XALQARO, XORIJIY, MILLIY MA'RUZA VA HISOBOTLAR**

58. UN Committee on Economic, Social and Cultural Rights. Concluding observations on the third periodic report of Uzbekistan. 31.03.2022. E/C/12/UZB/CO/3
59. UN Committee on the Elimination of Discrimination against Women. Concluding observations on the sixth periodic report of Uzbekistan.01.03.2022. CEDAW/C/UZB/CO/6
60. World Economic Forum. “Global Gender Gap Repors 2021” CH-1223 Cologny/Geneva Switzerland. [www.weforum.org](http://www.weforum.org)
61. World Justice Project “Rul of Law Index 2021” Copyright 2021. [worldjusticeproject.org](http://worldjusticeproject.org).

- 62.** J.Sachs, G.Trub-Schmidt, Ch.Kroll, G.Lafortune and G.Fuller Sustainable Development Report 2021. Cambridge university press. First published 2021. [www.cambridge.org](http://www.cambridge.org)
- 63.** International trade union Confederation 2021 ITUC Global Rights Index: The world's worst countries for workers Executive Summary".<https://survey.ituc-csi.org>
- 64.** The human freedom index 2021. Copyright © 2021 by the Cato Institute and the Fraser Institute. [www.cato.org](http://www.cato.org)
- 65.** UN Committee Human Rights. Concluding observations on the fifth periodic report of Uzbekistan. 02.04.2020. CCPR/C/UZB/CO/5 <https://tbinternet.ohchr.org>
- 66.** 2020\_statistical\_annex\_all. <https://worldpopulationreview.com>
- 67.** Quantitative data published and regularly updated by UNICEF UNDP Full Report – 2020. [www.data.unicef.org](http://www.data.unicef.org)
- 68.** Author Herbert Winisto'rfer. Business & Human Rights Resource Centre: "Respect for Human Rights: a snapshot of the largest German Companies". Full Report - 2019.
- 69.** EHRC Human Right Measurement Framework; Prototype Panels, Indicator Set and Evidence Base, research report 81 (2011) [www.equalityhumanrights.com](http://www.equalityhumanrights.com)
- 70.** the Special Rapporteur on contemporary forms of racism, racial discrimination, xenophobia and related intolerance has used surveys and disaggregated indicators to highlight the marginalization of minorities in access to education, employment, health and housing in Japan (E/CN.4/2006/16/Add.2).
- 71.** United Nations Special Rapporteur of the Commission on Human Rights on the Right of Everyone to enjoy the Highest Attainable Standard of Physical and Mental Health, 'Interim Report on the Right of Everyone to enjoy the Highest Attainable Standard of Physical and Mental Health' 28 August 2003, A/58/427, para 10, 12
- 72.** O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2021 yil yakuni yuzasidan hisoboti. <https://www.minjust.uz>
- 73.** O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining 2021 yil yakuni yuzasidan hisoboti. <https://www.senat.uz>

74. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis huzuridagi inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman)ning 2021 yil yakuni yuzasidan hisoboti <https://www.ombudsman.uz>

## **XORIJIY VA MILLIY TADQIQOT ISHLARI, AVTOREFERAT VA MAQOLALAR**

75. S.McInerney-Lankford va Hans-Otto Sano "Human Rights Indicators in Development: Definitions, Relevance and Application" Copyright 2010. The International Bank for Reconstruction and Development.

76. David McGoran "Human Rights Indicators and the Sovereignty of Technique" 2016. European Journal of International Law.

77. Damiano de Felice Business and Human Rights Indicators to Measure the Corporate Responsibility to Respect: Challenges and Opportunities 2015. Johns Hopkins University Press.

78. Arlene S. Karter "Human Rights Indicators for the Convention on the Rights of People with Disabilities" 2022. Cambridge University.

79. Ziba Vaghri, Lothar Krappmann and Jaap Doek "From the indicators of General Comment: Global Child" 2019. The International Journal of Children's Rights.

80. A.Saidov "Turkiston-press" NAAGA "Inson huquqlarini ta'minlash – bosh maqsadimiz" risolasi ostida bergan intervyusi. 21.03.2022 yil

81. F.Eshmatova "Inson huquqlari - eng oliy qadriyat" nomli maqolasi.

82. F.Eshmatova "Insoniyatning buguni va ertangi farovonligiga yo'naltirilgan muhim tashabbuslar" nomli maqola: 2021 yil. [Ombudsman.uz](https://www.ombudsman.uz)

83. T.Norboeva "Inson huquqlari - eng oliy qadriyat" nomli maqolasida. "Xalq so'zi" gazetasi 23.02.2021 yil

84. L.Isoqov (yu.f.f.d.) "Yangi O'zbekiston" gazetasi "Konstitutiya va migratsiya" maqolasi. 08.06.2022 yil. 113-son.

## FOYDALANILGAN INTERNET SAHIFALARI.

1. <https://lex.uz/> - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjati ma'lumotlari milliy bazasi;
2. <https://norma.uz/> - axborot-huquqiy portali;
3. <https://qomus/info/> online dictionary/ - yuridik atamalar izohli lug'ati;
4. <https://www.ohchr.org> - BMT Inson huquqlari kengashi rasmiy sayti;
5. <https://www.data.unicef.org> - BMT Bolalar huquqlari tashkiloti rasmiy sayti;
6. <https://Ombudsman.uz> – Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili rasmiy sayti;
7. <https://www.minjust.uz> – O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi rasmiy sayti;
8. <https://worldjusticeproject.org> – “World justice project” xalqaro tashkiloti rasmiy sayti;
9. <https://unstates.un.org> – BMTning Inson huquqlari sohasida statistik ma'lumotlarni yuritish yuzasidan rasmiy sayti;
10. <https://hrw.org>. – “Human Rights Watch” xalqaro tashkiloti rasmiy sayti;
11. <https://worldpopulationreview.com> – “Inson ozodligi indeksi” xalqaro tashkiloti rasmiy sayti;
12. <https://www.theglobaleconomy.com> – “The Global Economy” xalqaro tashkiloti rasmiy sayti;
13. <https://dashboards.sdgindex.org> – BMT “Barqaror rivojlanish maqsadlari” dasturi rasmiy sayti;
14. <https://www.migrationdataportal.org> – BMT Xalqaro Migratsiya tashkiloti rasmiy sayti;
15. <https://survey.ituc-csi.org>–Xalqaro kasaba uyushmalari tashkiloti rasmiy sayti;
16. <https://www.cato.org> – Kato xalqaro tadqiqotlar instituti rasmiy sayti.

